

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

Z. XO'JAYEVA, R. HAKIMOV, A. ABDULLAYEV

SOLIQ TIZIMI VA MUNOSABATLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

3-nashri

УДК 336.22(075)
ББК 65.261.4ya722
X70

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O'quv qo'llanmada soliq tizimidagi mavjud qonunlar va tartiblarni, o'zaro munosabatlarning shakllanishi, takomillashuvi, o'quvchiga tushunarli tilda bo'lishi uchun yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilgan holda qo'llash usullari va tartiblari to'g'risida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar chizmalar, jadvallar, turli shakl va ifodalarda bayon etilgan bo'lib, soliq nazariyasining asosiy g'oyalari, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va soliqsiz to'lovlar, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, soliq munosabatlari to'g'risidagi bilimlar jamlangan. Bundan tashqari, soliqlar bo'yicha alohida hisob-kitoblar uchun buxgalteriya hisobi va hisobot shakllari, buxgalteriya yozuvlari, masalalar va ularning yechimlari, mustaqil ishlash uchun mashqlar, o'z-o'zini tekshirish uchun test savollari kiritilgan.

Taqrizchi: L. KO'PAYSINOVA — Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji o'qituvchisi.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan munosabatlarning rivojlanishi soliqlar, soliq tizimi va soliq siyosatida keskin o'zgarishlar bo'lishini taqozo etdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq sohasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar mavjud muammolarni hal qilishga imkon yaratdi.

O'zbekistonning mustaqil soliq tizimini yaratish O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 15-fevraldagi «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi va 1993-yil 7-maydagi «Mahalliy soliqlar va yig'img'lar to'g'risida»gi Qonunlarini qabul qilishdan boshlandi. Bu Qonunlar bo'yicha kiritilgan soliqlar yildan yilga takomillashtirilib borildi. 2007-yil 25-dekabrda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi. Keyingi yillarda ham davr talabidan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining tegishli moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston buyuk kelajak sari» kitobida: «Islohotning hozirgi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak», deb ta'kidlagan.

Soliq tizimini takomillashtirish maqsadida soliq xizmati tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish tadbirlarini amalga oshirish jarayonida kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni takomillashtirishda ta'lim berishning nazariy, amaliy, noan'anaviy usullarini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr talabidir. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushbu o'quv qo'llanma

«Soliqlar va soliqqa tortish» yoʻnalishi mutaxassislari uchun tuzilgan dastur asosida tayyorlandi.

Qoʻllanma soliq sohasidagi muammolarga bagʻishlanib, oʻzbek va xorijiy tillarda chop etilgan oʻquv adabiyotlarining mazmuni hamda mohiyatini anglagan holda shu sohada koʻp yillik bilim va tajribalar asosida toʻplangan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan.

Oʻquv qoʻllanma xususida bildirilgan xolisona fikr, taklif va mulohazalarni mualliflar minnatdorchilik bilan qabul qilishadi.

1.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga kelganligi va faoliyat ko'rsatganligi uchun ishlab chiqarish munosabatlarining bir qisimidir. Ularning mazmuni shundan iboratki, ular hukumatning o'z funksiyalarini bajarishi uchun milliy daromadning bir qismini davlat ixtiyoriga berishidir.

Soliq — bu milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini budjetga majburiy tarzda o'tkazish shakli.

Soliqlarning ijtimoiy mazmuni — boshqaruv hokimiyatining iqtisodiy munosabatlarning aralashuviga imkoniyat yaratib beradi. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida soliqlar davlat budjetining asosiy (70—95 %) daromadini tashkil etadi.

Soliqlar — qadimgi moliyaviy turkumlardan biri. «Soliq» tushunchasi o'zining ildizlari bilan qadimdan ma'lum bo'lib, davlat xazinasiga undiriladigan har xil tushumlar ko'rinishida bo'lgan. O'tmishda davlatni moliyalashtirish mexanizmlari paydo bo'layotgan bir davrda, soliqlar davlatning paydo bo'lishi va undagi jamiyatning sinflarga bo'linishida muhim iqtisodiy munosabat sifatida yuzaga kelgan.

Soliq to'g'risidagi tushuncha asrlar davomida o'zgarib borgan. Soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishi va takomillashib borishi bilan «soliq» tushunchasiga nisbatan qarash evolyutsion ravishda o'zgargan. Tadqiqotchilar soliq tushunchasiga faqatgina iqtisodiy qarashdangina emas, balki unga yuridik nuqtayi nazardan ham ta'rif berishga urinishgan. Masalan, XVII asrda yashab o'tgan ingliz iqtisodchisi A. Smit soliqqa quyidagicha ta'rif bergan: *soliq* — bu davlat tomonidan qiymati va to'lash tartibi qonuniy qilib o'rnatilgan yuk.

Soliq undirishni huquqiy tomondan ko'rib chiqadigan bo'lsak, u soliq to'lovchining xususiy mulkning bir qismini davlat xazinasiga

berish demakdir. Soliq faqat iqtisodiy tushuncha bo‘libgina qolmay, shu bilan birga huquqiy kategoriyadir, shuning uchun soliq tabiatini tushunishning qiyin tomoni ham, uni bir vaqtning o‘zida borliqning haqiqatda iqtisodiy, xo‘jalik va siyosiy tomonlarini o‘z ichiga olganligidadir.

«Soliq — bu majburiy, yakka tartibda beg‘araz to‘lanishi lozim bo‘lgan, tashkilot va fuqarolarda ularga qarashli bo‘lgan xo‘jalikda yuritiladigan va operativ boshqaruvdagi pul mablag‘larining bir qismini davlat yoki munitsipal tuzilmalarning moliyaviy faoliyatini yuritishi uchun undiriladigan mablag‘dir»¹.

Soliq yig‘imlar, bojlar va to‘lovlardan farqli o‘laroq umumiy xarakterga ega va doimiy ravishda undiriladi. Soliqlarning iqtisodiy ma‘nosi — xo‘jalik faoliyatini yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan yaratilgan mahsulotning ma‘lum bir qismini davlat o‘zining vazifalarini bajarishi uchun olib qo‘yilishi bilan bog‘liq.

Soliq o‘zining xususiyati bo‘yicha yig‘im va bojlardan farq qiladi, O‘zbekiston qonunchiligida «soliq», «boj», «yig‘im» tushunchalariga ularni bir-biridan farq qiluvchi ta‘rif keltirilmagan. Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksida, masalan, «yig‘im»ga quyidagicha ta‘rif berilgan:

- yig‘im deganda, majburiy to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, boshqa vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlar amalga oshirilishining shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadigan, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badal tushuniladi, bunga muayyan huquqlarni taqdim etish yoki ruxsatnoma (litsenziya)lar berish ham kiradi.

Yig‘im, odatda, aniq maqsadga ega bo‘lgan badal bo‘lib, davlat tomonidan ko‘rsatilgan ma‘lum bir xizmat uchun undiriladi. Yig‘imlar aniq maqsadga yo‘naltirilganligini ularning nomlaridan ham ajratib olish mumkin (masalan, yo‘l yig‘imi).

Boj — bu yuridik va jismoniy shaxslardan maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan ma‘lum bir holatni belgilash yoki yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatni berish uchun to‘lanadigan to‘lov. Davlat bojlari bojxona-chegaraviy va davlat ichida undiriladigan bojlarga bo‘linadi.

Bojxona boji — bojxona organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarni tovar-moddiy boyliklarni davlat chegarasidan olib kirgan

¹ I.A. Zavalishina. Soliqlar: nazariya va amaliyot. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005, 6-bet.

yoki olib chiqqani uchun undiriladigan to'lovga aytiladi. Bojxonada bojxona bojidan tashqari har xil ko'rinishdagi bojxona to'lovlari va yig'implari undiriladi.

Davlat ichida undiriladigan boj — yuridik va jismoniy shaxslardan huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjat (harakat)ni tasdiqlab berilganligi uchun undiriladigan to'lov.

Soliqlar, eng avvalo, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi.

Davlat oldida turgan umumjamiyat vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Aholining kam ta'minlangan tabaqalari (talabalar, nafaqaxo'rlar, nogironlar)ni ijtimoiy himoya qilish.
2. Mamlakat mudofaasini ta'minlash.
3. Mamlakat fuqarolarining tinch mehnat qilishi va erkin yashashi muhofazasini ta'minlash.
4. Mamlakat ichida uzluksiz ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish.
5. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-madaniy, siyosiy aloqalarni o'rnatish.
6. Bozor infratuzilmasini takomillashtirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish nihoyatda ko'p moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslarni faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar orqali amalga oshirish mumkin.

Soliqlarning obyektiv zarurligi — davlatning bajaradigan qator funksiyalarini mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi.

Soliq funksiyalari

Soliqlarning asosiy mohiyatini ularning funksiyalari, ya'ni soliqlarning jamiyat va davlatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'naltiruvchi kuch ekanligini ochib beradi.

Funksiya so'zi lotincha *function* — bajarish, majburiy bajarish, faoliyat ma'nolarini anglatadi.

Soliqlarning quyidagi funksiyalari mavjud:

- fiskal;
- ijtimoiy himoyalash;

- qayta taqsimlash;
- tartibga solish;
- me'yorlash;
- jamlash;
- axborot;
- nazorat.

Soliqlarning asosiy funksiyasi *fiskal funktsiya* bo'lib, uning yordamida pul resurslarining markazlashtirilgan fondi tashkil etiladi. Bu funktsiya yordamida davlat budjetining daromad qismi shakllantiriladi.

Ijtimoiy himoyalash funktsiyasi har xil daromadga ega bo'lgan aholini soliqqa tortish natijasida hosil bo'lgan jamiyat daromadlarini har xil toifadagi aholi o'rtasida qayta taqsimlashni o'z ichiga oladi. Ushbu funktsiya yordamida jamiyatning boy qatlamiga soliq yukini oshirish hisobiga aholining ijtimoiy zaif va himoyalangan qatlamlari mablag' bilan ta'minlanadi.

Soliqlarning *qayta taqsimlash funktsiyasi* — kelib tushadigan soliqlardan hosil bo'luvchi pul resurslarining davlat fondi orqali daromadlar qayta taqsimlashini: bir qismini ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, bir qismini ustuvor tarmoqlarga investitsiya qo'yishga yo'naltiradi.

Tartibga solish funktsiyasi davlatning iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish davrida kelib chiqadi. Bunda davlat soliqning shakli, soliq stavkalarining o'zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va chegirmalardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ajratib oladi.

Tartibga solish funksiyasining asosiy ma'nosi bu iste'mol uchun yo'naltirilgan resurslarni soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

Tartibga solish funktsiyasi uch qismdan iborat bo'ladi: rag'batlantiruvchi, chegaralovchi, qayta ishlab chiqarish.

Rag'batlantiruvchi — korxonalar va ba'zi faoliyat turlariga imtiyoz berish orqali davlat uchun ustuvor, jamiyat uchun kerakli muhim yo'nalishlarini aniqlash.

Chegaralovchi — davlat tomonidan soliq stavkalarini ko'tarish bilan jamiyat uchun foydasiz deb topilgan ishlab chiqarishni, jarayonlarni va ba'zi faoliyat turlarini chegaralash.

Qayta ishlab chiqarish — ishlatilgan mablag'larning o'rnini qoplash.

Me'yorlash funksiyasi — soliq amaliyotida belgilangan me'yorlardan ortiq foydalanilgan resurslar uchun qo'shimcha soliq to'lash, stavkalarini oshirishni nazarda tutadi.

Jamlovchi funktsiya — yagona iqtisodiy maydonni tashkil etishga imkon yaratadi. Tashqi savdo va tashqi iqtisodiyotni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan *integrallashtiruvchi* (jamlovchi) vosita sifatida xizmat qiladi.

Axborot funksiyasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, buxgalteriya hisobini yuritishga majbur bo'lmagan shaxslarning soliq majburiyatlarini hisoblash uchun zaruriy axborotni to'plash, qayta ishlash imkonini beradi. Jismoniy shaxslar buxgalteriya hisobini yuritmaganliklari sababli, hisob funksiyalari soliq organiga yuklatiladi. Soliq ma'lumotlariga ishlov berish jarayonini jadallashtirish, soliq statistikasining samaradorligini oshirish, soliq inspektorlari ish faoliyatini avtomatlashtirish maqsadida davlat soliq xizmati tizimida eng istiqbolli axborot texnologiyalari va kompyuterlashgan tarmoqlarini tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orasida ma'lumotlarni taqsimlash bazalari bilan ishlash, yagona axborot bankini yaratish, mijoz-tarmoq, mutaxassisning avtomatlashgan ish joyi, internet kabi axborot tizimlari joriy etilmoqda.

Nazorat funksiyasi — budjetga undirilayotgan soliq to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish bilan birga ularni moliyaviy resurslarga bo'lgan talablar bilan taqqoslaydi. Bu funktsiya yordamida soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar hamda soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va boshqa soliq ko'rsatkichlari tekshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan nazorat ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. *Kameral tekshiruv* — bunda soliq to'lovchilarning hisobotlari va hisob-kitoblari hisobot qabul qilish davrida tekshiriladi.

2. *Hujjatli tekshiruv* — bunda buxgalteriya hujjatlari bevosita joyning o'zida tekshiriladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq tushunchasiga ta'rif bering.
2. Davlat oldida turgan umumjamiyat vazifalari nimalardan iborat?
3. Soliqning obyektiv zarurligi nimalardan kelib chiqadi?
4. Soliqning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ta'riflang.
5. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
6. Soliq funksiyalari qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?

1.2. Davlat va mahalliy budjetlarni shakllantirishda soliqlarning salohiyati

Soliqlar davlatning barcha yo‘nalishdagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo‘lib, zayomlar va pul emissiyasi bilan birgalikda davlatning mavjudligini ta‘minlaydi. Davlat va mahalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi asosiy vosita — soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlardir.

Davlat budjeti tarkibida xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi budjet kamomadini keltirib chiqaradi. Budjet daromadlarini barqaror safarbarligini ta‘minlash davlatning moliyaviy mustahkamligidan dalolat beradi va uning zimmasiga yuklangan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishiga moliyaviy zamin yaratadi.

Davlat budjeti — davlat pul mablag‘lari (shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari)ning markazlashgan jamg‘armasi bo‘lib, davlat budjeti daromadlari va xarajatlaridan iborat. Davlat budjeti — respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi.

Respublika budjeti — davlat budjetining umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdorini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mahalliy budjet — davlat budjetining tegishli viloyat, shahar va tuman pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi, uni shakllantiruvchi bir qismi.

Davlat budjetiga solikli va soliqsiz daromadlarni o‘z vaqtida to‘liq tushirish, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, soliq to‘lovchilardan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish soliq organlari tomonidan ta‘minlanadi.

Soliqlar davlat va mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etib, budjetning xarajat qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta‘sir ko‘rsatish imkonini beradi. Soliqlar — iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tarkibiy tuzilishiga, dinamikasiga, joylanishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tarkibida solikli tushumlarning salmog‘i 1-jadvalda keltirilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari
tarkibi va dinamikasi**

T/r	Soliq turlari	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
		Salmog'i (%)	Salmog'i (%)	Salmog'i (%)	Salmog'i (%)	Salmog'i (%)	Salmog'i (%)
1.	Yuridik shaxslarning foydasiga soliq	6,7	6,3	6,1	5,8	5,5	5,4
2.	Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq	14,5	14,1	13,4	12,7	12,4	11,7
3.	Mikrofirma va kichik korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovi	4,5	4,4	3,6	2,9	2,7	2,6
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	25,9	25,5	24,6	28,8	29,3	30,5
5.	Aksiz solig'i	24,4	25,1	23,2	22,7	21,1	20,3
6.	Resurs soliqlari	10,5	11,2	11,8	13,4	15,0	15,2
7.	Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i	4,3	7,5	4,2	4,3	4,1	3,5
8.	Boshqa soliqlar	4,2	2,7	6,1	5,2	5,4	5,6
9.	Boshqa to'lovlar	5,0	6,2	8,0	5,4	4,5	5,2
10.	Jami solikli daromadlar	100	100	100	100	100	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining solikli daromadlari umumiy hajmida QQS, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliqlar bo'yicha tushum miqdori yuqori salmog'ini egallaydi. Buning sababi shundaki, bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlarda bilvosita soliqlar uzoq davr mobaynida o'zining fiskal ahamiyatini saqlab qoladi hamda aholi turmush darajasining oshishi, tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratilishi aholi daromadlarining nominal va real hajmlarining o'sishiga olib keldi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat budjeti daromadlari tarkibi qanday?
2. Davlat va mahalliy budjetlarda soliqlarning tutgan salmog'ini izohlang.
3. Budjet kamomadi haqida tushuncha bering.

1.3. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari

Soliq siyosati mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga, bozor munosabatlarini boshqarishga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Soliq siyosati — davlatning soliq borasidagi Farmon, Qonun va qarorlari ijrosini ta'minlash hamda tashkil qilish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, faoliyatlar yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor vazifalari soliq siyosatini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidladi. Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etib, soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatlariga ega bo'lish lozimligini uqitirib, «Shunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin», deb ta'kidladi. Soliq siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- soliqlar bo'yicha asosiy yuk tabiiy mineral — xomashyo, yer, suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishini ta'minlash;

- amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirish.

So'nggi yillarda soliq tizimini yangi mazmunda barpo etish va uni shakllantirish uchun amal qilingan soliqlar hamda yig'implar respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi «o'zbek modeli»ning xususiyatlari va bozor qoidalari talablaridan kelib chiqqan holda rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda soliq yukini kamaytirish jarayoni davom etyapti. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i-ning stavkalarini kamaytirilganligi hisobiga soliq yuki yanada kamayadi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda 2012-yilda 29,7 % ga tushirilgan. Bu davlatimizning soliq sohasidagi liberallashtirish siyosatining ifodasidir.

Davlat miqyosida iqtisodiy o'sishini belgilovchi mexanizmlaridan biri — iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish jarayoni hisoblanadi. Bu mexanizm davlat tomonidan boshqarilib turadi.

Davlatimizda bozor iqtisodiyotining ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilgan modelini soliq mexanizmi orqali rivojlantirish, jahon iqtisodi bilan integratsiya qilish uchun amaliy ishlarni bajarish zarur. Bularni ta'minlashda soliq siyosatini amalga oshirish asosiy yo'l bo'lib hisoblanadi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

1. Har yil mulk shakllariga moslangan korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularning bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama yordamlashish.

2. Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlash.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash nochorlarga yordam berish.

4. Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorini vaqt-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savati» miqdorini e'tiborga olish.

Soliq siyosatining strategiyasi, taktikasi va ilmiy asoslangan konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lishi zarur. *Strategiya* — uzoq yillarga mo'ljallangan soliq munosabatlaridagi muhim yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar tizimi. Taktika soliq strategiyasining har bir ma'lum davr (yil, chorak)da amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq tadbirlar majmuyi.

Soliq siyosatini faollashtirish maqsadida quyidagilarga e'tiborni ko'proq qaratish lozim:

1. Soliq sohasida davlatlar yo'l qo'ygan ba'zi xatolarning takrorlanmasligi uchun soliq tarixini puxta o'rganish lozim.

2. Soliqlar tortish va uni undirish ishlarining arzonga tushishiga erishish.

Soliq obyektini aniq, ixcham, to'lovchilarga va soliq idoralari xodimlariga soliqni hisoblash oson va qulay bo'lishi zarur.

Soliq siyosati mustaqil moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, uni hayotga tatbiq etilishi soliq siyosatining muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Mamlakatimizda moliyaviy siyosatni amalga oshirishda soliq siyosati oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- respublikaning budget tizimini mustahkamlash;
- davlat va mahalliy budget daromadlarini to'ldirishni ta'minlash;
- xo'jalik subyektlarining faolligini rag'batlantirish.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Soliq siyosati konsepsiyasini izohlab bering.
3. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari qanday?

1.4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, yangi mustaqil davlatlar ichida birinchilardan bo'lib, iqtisodiyotni yirik miqyosda isloh qilish, tubdan o'zgartirishlar va jamiyatni yangilash yo'liga o'tdi. O'sha davrda milliy soliq tizimining barpo etilishi g'oyatda muhim vazifaga aylanib, uning hal qilinishiga ko'p jihatdan yosh mustaqil davlatning taqdiri bog'liq bo'lgan. 1991-yilda respublikada bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida davlat budgetiga tushumlarni ta'minlashga da'vat etadigan soliq tizimini barpo etish boshlandi.

Soliq tizimi davlat tomonidan o'rnatilgan barcha soliqlar, yig'imlar va boshqa budgetga undiriladigan majburiy to'lovlar majmuyi, ularning shakli va tuzilish usullarini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimining rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

I bosqich (1991–1994-yillar) – O‘zbekistonning o‘z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning ahamiyatini oshirish bosqichi.

Respublikamizning o‘z soliq tizimini yaratishda 1992-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonun asos bo‘ldi. Bu Qonun soliq tizimi tuzilishining umumiy asoslarini aniqlab, soliqlarni hisoblash va undirish tartiblarini belgilab berdi.

1992-yil 9-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi Qonun bir qancha o‘zgartirishlar bilan qabul qilindi.

1993-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Bunday soliq-larga jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, transport vositalari egaligidan olinadigan soliqlar va turli xil yig‘imlar kiritildi.

«Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritilib, chet el valutasidan olinadigan tushumdan soliq olish joriy etildi. Bu soliqdan respublika valuta fondiga ajratma avval 25 %, keyinchalik 10 % qilib belgilandi. Demak, soliq islohotining birinchi bosqichida soliqlarning xazinaviy samaradorligiga erishish chora-tadbirlari keng amalga oshirilib, O‘zbekistonning o‘z soliq tizimi joriy etildi.

Soliq islohotlarining II bosqichi soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarining ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratish davridir. Bu davr 1995–1997-yillarni o‘z ichiga oladi.

Bu davrda soliqlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilib, turli xil imtiyozlar berildi. 1995-yildan boshlab yuridik shaxslarning foyda (daromad) solig‘iga imtiyozlar joriy etildi, korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘paytirilgani uchun 0,3 % ga foyda solig‘i stavkasi kamaytirildi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab etdi va ko‘plab korxonalar uchun foyda solig‘i o‘rniga daromad solig‘i to‘lashga o‘tish amalga oshirildi. Soliq tizimi ixchamlashtirilib, bir qator kam samarali soliqlar: respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xomashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan budjetga 30 % ajratma va boshqalar bekor qilindi, fuqarolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o‘zgartirildi.

1996-yilning 1-yanvariga ro'yxatdan o'tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga soliqqa tortish tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi taqdim etildi.

Soliqlarni bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirish uchun yagona huquqiy asos O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997-yil 24-aprelda qabul qilindi.

Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini mustahkamlabgina qolmay, soliqlarni mahsulotlarni eksport-import tovarlari o'rniga ishlab chiqarishni, nogironlarni ishlab chiqarishga qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarini rag'batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

Soliq islohotining III bosqichi 1998-yildan hozirgi vaqtgacha davom etmoqda. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri, deb atash mumkin. Bu bosqichda soliq to'lovchi yuridik shaxslarga imkon beruvchi soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlari ixchamlashtirildi.

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi qaroriga asosan 1998-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoyishi bilan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini 1998-yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mol-mulk solig'ini to'laydigan bo'lishdi.

Soliq tizimini ixchamlashtirish soliq hisoblovchi xodimlar, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining ko'p vaqtlarini tejashga, korxonalar faoliyati tahliliga bag'ishlashga imkoniyat yaratildi. Mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlantirish o'zining natijasini asta-sekin berib kelmoqda. Kichik korxonalarining mamlakat ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib boryapti. 2007-yil 25-dekabrda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan holda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning hozirga qadar amalga oshirilayotgan III bosqichning boshlanishi ifodasi ekanligi tamomila qonuniy holdir.

III bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda, kichik korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalash-tirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy

asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'img'lar jamlanmasi o'rniga yagona soliq to'lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-sonli qarori bilan kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi tasdiqlandi.

2002-yildan boshlab, davlat soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan soliq og'irligini yanada kamaytira borish, chetga qat'iy almashtiriladigan valuta mahsulotlarini eksport qilganlarga ham daromad (foyda)ga soliqdan, ham mol-mulk solig'idan pasaytirilgan regressiv soliq stavkasini qo'llash siyosatini yurgizish joriy etila boshladi. Soliqlar tizimida bevosita soliqlar salmog'ini kamaytira borish va bilvosita soliqlar salmog'ini oshirishga mo'ljallangan siyosat yuritish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga soliq qonunchiligi takomillashtirila borildi, hamma soliqlar bo'yicha yo'riqnoma va nizomlar qaytadan ishlab chiqildi.

2003-yildan boshlab, samarasiz, budjetga tushishini qiyinlashtiradigan quyidagi soliqlar va to'lovlar bekor qilindi. Bular: reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotish solig'i, me'yoridan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'i uchun 2 % li haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlardir.


2004-yilda ham qator soliq islohotlari amalga oshirilib, bunda yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i va jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari bir necha darajaga kamaytirilgan bo'lsa, resurs soliqlari stavkalari oshirildi. Yagona soliq tizimiga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar foydali qazilmalar qazib olganida yagona soliq bilan birgalikda yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni ham to'laydigan bo'ladilar. Shuningdek, ayrim soliq imtiyozlari bekor qilindi. Soliq tizimidagi islohotlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faolligini oshirishga, ularning import o'rnini bosuvchi va eksport faoliyatini rag'batlantirishga, shuningdek, ularning resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirishga qaratiladi.

Soliq tizimining tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasida huquqiy (yuridik) va jismoniy shaxslardan olinadigan umumdavlat va mahalliy soliqlar, yig'img'lar, boj to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tizimi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi soliq mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tuzilmasi 1-chizmada ko'rsatilgan.



1-chizma. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi.

Soliq mexanizmi budjet mexanizmi tarkibiga kiradi. Soliqa mexanizmi deganda, soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obyekt, subyekt, manbasi, soliq stavkasi, to'lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi. Soliqa mexanizmi soliq tizimining amaliyotga tatbiq etilishini ifodalaydi.

Soliqa mexanizmi tarkibida soliqlar va boshqa to'lovlar (ajratma, yig'imlar) kabi elementlar borligini aytib o'tish zarur. Soliqa mexanizmida soliqlar aksariyat uzoq yillar harakat qilsa, ularning elementlari (masalan, stavkasi) tez-tez o'zgarib turishi mumkin. Demak, soliqlar soliq mexanizmining nisbati mustahkam, uzoq yillarga mo'ljallangan, kam o'zgartiriladigan qismi. Ajratmalar, yig'imlar va soliqlarning elementlari tez-tez o'zgartirib turadigan, hatto bekor bo'ladigan turidir.

Soliqqa tortish subyekt (soliq to'lovchi) — qonunga ko'ra soliqlar, yig'imlar va to'lovlarni huquqiy jihatdan to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda istiqomat qilgan jismoniy shaxs *O'zbekiston Respublikasi rezidenti*, deb qaraladi.

O'zbekistonda *ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan* yuridik shaxs, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining *rezidenti* hisoblanadi.

Soliq obyekt — soliq solinadigan daromad, oborot (aylanma) yoki mulkdir. Unga foyda, ish haqi, qo'shimcha qiymat, yer, imorat kabilar kiradi. Obyekt doimo subyekt bilan bog'liq bo'ladi. Subyektsiz obyekt bo'lmaydi.

Boshqacha aytganda, soliqqa tortish obyekt bo'lib (soliq to'lovchining harakati yoki uning mulkiy holati) shunday bir holatga aytiladiki, ularning mavjudligi soliq solish bo'yicha majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Ularga quyidagilar kirishi mumkin:

— tovar (ish, xizmat)larning sotilishiga doir oborotlar, mol-mulkka egalik huquqi, oldi-sotdi operatsiyasini bajarish, qimmatli qog'ozlardan daromad olish va h.k.lar. Soliqqa tortish obyekt bo'lmagan soliq to'lovchining soliq bo'yicha majburiyati bo'lmaydi.

Nazariy jihatdan soliqqa tortish obyektini quyidagi ko'rinishlarga bo'lish mumkin:

- *mulkka egalik* (mol-mulkka egalik huquqi) va *mulkka ega bo'lmalik* (mulkdan foydalanish huquqi);

- *subyektning* (oldi-sotdi, tovar olib kirish) *harakati* (faoliyati);
- xo'jalik faoliyatining natijasi (daromad, foyda).

Soliq obyekt va soliqqa tortish bilan bog'liq obyekt har bir soliq va boshqa budjetga undiriladigan majburiy to'lovlar bo'yicha Soliq kodeksiga asosan aniqlanadi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'ini soliq solish obyekt bo'lib, soliq aylanmasi va soliq importi hisoblanadi.

Soliqqa tortiladigan baza — soliq solish obyektining qiymatiga oid, fizik yoki boshqa tavsifidan iborat bo'lib, unga asoslangan holda budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq va boshqa to'lovlarning summolari aniqlanadi.

Soliq majburiyatining paydo bo'lish vaqtini aniqlash uchun *soliq bazasini tashkil etish usuli* katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda, asosan, ikki usul qo'llaniladi — kassa va hisoblash usullari.

Kassa usulida daromad solig'i to'lovchiga aniq davr ichida tushgan summaga to'g'ri keladi, xarajat deganda esa, real to'langan summalar hisobga olinadi. Daromad hisoblashning kassa usuli, odatda, chakana savdoda qo'llaniladi, chunki u yerda sotish vaqti to'lash vaqtiga mos keladi.

Hisoblash usulida ushbu soliq davrida olish huquqi majbur bo'lgan barcha daromadlar, ularning haqiqatda olingan yoki olinmaganligidan qat'i nazar, hisobga olinadi, xarajatlar esa, joriy davrda mulkiy majburiyatlar summasi paydo bo'lishi bilan hosil bo'ladi. Bunda majburiyatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan, soliq hisoblash (buxgalteriya yuritishda esa, Milliy buxgalteriya hisobi standartlariga binoan) usuli qo'llaniladi.

Soliq davri deganda, Soliq kodeksiga asosan, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan ayrim soliq va boshqa majburiy to'lovlarga nisbatan tugashi bilan soliq bazasi belgilanadigan va to'lanishi kerak bo'lgan soliq hamda majburiy to'lovlarning summasi hisoblanadigan davriga aytiladi.

«*Soliq davri*» tushunchasi hisobot davri tushunchasidan farq qiladi, ba'zi hollarda ular mos kelishi mumkin, masalan, kichik va qo'shma korxonalarining hisobotlarida. Ba'zi hollarda bir soliq davrining ichida bir necha bor hisobot topshirilishi mumkin, masalan, har xil soliqlar bo'yicha hisobotlar (QQS, aksiz solig'i, yagona soliq to'lovi va boshq.).

Soliq stavkasi — bu soliq hisoblanadigan soliq bazasining birlik hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me‘yorini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, soliq stavkasi, bu — soliqqa tortish me‘yori.

Soliq stavkasi qat‘iy yoki foiz advalor ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq stavkasi — soliq solish oboroti va import oborotining 20 % qismini tashkil etadi (bu foiz stavkasi). Qat‘iy soliq stavkasiga yer solig‘ining stavkasi misol bo‘la oladi. Bunda soliq olish birligiga (yer uchastkasining maydoni) qat‘iy soliq summasi to‘g‘ri keladi.

Soliqqa tortish usuli — soliq bazasining o‘zgarishiga qarab soliq stavkasining o‘zgarish tartibini belgilaydi. Odatda, tajribada soliq stavkasini belgilashda quyidagi to‘rt usuldan foydalaniladi:

- *teng* — hamma soliq to‘lovchilarga teng soliq summasi belgilanadi (ushbu soliq turi odatda yig‘imga tegishli);
- *proporsional* — hamma soliq to‘lovchilar uchun teng soliq stavkasi qo‘llaniladi (QQS, aksiz, daromad (foyda) solig‘i);
- *progressiv* — soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi ham ortadi (jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i);
- *regressiv* — soliq bazasining ortishi bilan soliq stavkasi kamayadi (eksportyorlar daromadlaridan undiriladigan soliq eksportning umumiy sotilgan mahsulotga nisbatan ortishi daromad solig‘i stavkasi kamayishiga olib keladi).

Soliq to‘lashning uch xil asosiy usullari mavjud:

- *deklaratsiya asosida soliq to‘lash* (daromad olingandan so‘ng soliq to‘lash), ya‘ni soliq to‘lovchiga belgilangan muddatda soliq organiga o‘zining majburiyatlari bo‘yicha rasmiy ravishda ariza berishi lozim. Bunday holatlarda soliqni to‘lash majburiyati soliq to‘lovchining o‘ziga yuklanadi;


- *soliq undirishning daromadni to‘lov manbayida undirish usuli* (daromad olgunga qadar soliq undirish), ya‘ni to‘lov manbayida soliq avtomatik ravishda ushlanadi va budjetga o‘tkazib beriladi. Soliqni ushlab va budjetga o‘tkazish bo‘yicha javobgarlik to‘lov manbayiga yuklanadi (masalan, dividend va foizlarni to‘lanayotgan vaqtda).

- *soliq undirishning kadastr usuli* — soliq summasi mulkdan olinishi mumkin bo‘lgan o‘rtacha daromadni tashqi belgilardan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda qat‘iy hisoblangan soliq summasi belgilanadi (masalan, mol-mulk solig‘i).

Soliq imtiyozi — soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilar bilan qiyoslanganda soliqlar to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan, soliq (yig'im) to'lamaslik yoxud kam hajmda to'lash imkoniyati.

Masalan, soliqlar bo'yicha imtiyozlar iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida avvaldan qo'llanilgan. Shu jumladan, XIV asrda sobiq qiron Amir Temur yangi yer maydonlarini o'zlashtirish maqsadida ana shunday o'ziga xos imtiyozlarni joriy qilgan.



2-chizma. Soliq imtiyozi.

Soliq manbayi — bu subyektning daromadi. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq obyekt, ham soliq manbayi bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda obyektlar har xil, manba esa, daromad.

Soliqqa tortish birligi — bu obyektning o'lchov birligi. Bu daromad solig'ida so'm, yer solig'ida m² bilan belgilanadi.

Soliq huquqi — soliq sohasidagi huquqiy me'yorlar majmuasi bo'lib, soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida hosil bo'ladigan munosabatlarni tartibga solib turadi.

Soliq hujjatlari va hisob-kitoblari — Davlat soliq xizmati organlari (DSI) har bir soliq to'lovchi uchun alohida soliq yoki yig'im bo'yicha shaxsiy hisob varag'ini ochadi. Budjetga to'lovga hisoblangan va budjetga haqiqatda tushgan, o'tkazilgan soliq va yig'im summaları hamda hisoblangan pena to'g'risidagi yozuvlar shaxsiy hisobvarag'ida quyidagi hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi:

- budjetga avans (bo'nak) to'lovlari to'g'risida ma'lumotnoma. 1 yilga (choraklar bo'yicha). Masalan, kutilayotgan foyda to'g'risida ma'lumotnoma (biznes-reja asosida);

- soliq hisobotlari, soliq hisob-kitoblari, deklaratsiyalar (bayonnoma). Bu hujjat soliq to'lovchilarning daromadlari yoki boshqa soliq obyektlari bo'yicha haqiqatda budjetga to'langan soliq va yig'im summalarini izohlaydi;

- DSI yoki boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan hisobli tekshiruv dalolatnomalari, qarorlari. Bu hujjatlar soliq qonunchiligini buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy va jinoiy javobgarlik hamda moliyaviy sanksiyalarni qo'llash asosida jarima summalarini budjetga o'tkazishga asos bo'ladi.

Soliqni budjetga to'lash tartibi va muddatlari — O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan, davlat soliq xizmati organlariga har chorakda va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni va soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatida taqdim etiladi. Soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblab yozish va to'lash uchun soliq to'lovchilar tegishli chorak uchun joriy to'lovlar bo'yicha ma'lumotnomani taqdim etib, soliq turlari bo'yicha Soliq kodeksi bilan belgilangan muddatlarda budjetga to'lanishi shart.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur o'z tuzuklarida soliqqa tortishning to'rt tamoyilini ko'rsatib o'tgan. XIV asrda sohibqiron shunday yozgan: «Soliqlarni yig'ishda aholini soliqlar bilan qiynab, viloyatlarni mablag'laridan mahrum qilishdan o'zimizni tiyishimiz lozim, chunki aholining qashshoqlanishi davlat g'aznasining bo'shashiga olib keladi, g'aznaning bo'shligi o'z vaqtida qurolli kuchlarning tarqalishiga va natijada, hukumatning kuchsizlanishiga olib keladi».

Soliq ta'limoti asoschilaridan biri Adam Smit 1776-yilda «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari bo'yicha izlanishlar» asarida soliqqa tortishning quyidagi klassik tamoyillarini bayon qilgan:

1. *Adolatlilik (tenglik) tamoyili* — soliq yuki bir xilda taqsimlanishi lozim, ya'ni har qanday soliq to'lovchi davlat xarajatlarini qoplashda o'zining daromadi va qobiliyatiga qarab qatnashishi kerak.

2. *Aniqlik tamoyili* — soliq to'lashning muddati va tartibi, avvaldan soliq to'lovchiga aniq va ma'lum bo'lishi lozim. Soliq hisoblash va to'lashning maqbul usullarini qo'llash talab etiladi.

3. *Qulaylik tamoyili* — soliq to'lovchilar uchun qulay bo'lgan muddatlarda va shakllarda soliq undirilishi tushuniladi.

4. *Arzonlilik (tejamkorlik) tamoyili* — soliq yig'ish uchun ketadigan sarflarning kam xarajatlar bilan amalga oshirilishi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining muhim tarkibiy qismi Davlat soliq xizmati organlaridir. Davlat soliq xizmati idoralari

soliq sohasidagi munosabatlarni amalga oshirish, budjetga undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'rnatish, o'zgartirishlar kiritish, hisoblash, to'lash tartiblari hamda soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va nazorat qiladi.

Soliq organlari tuzilishi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishning markaziy subyekti bo'lib, O'zbekiston Davlat soliq xizmati hisoblanib, u soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlaydigan organlar tizimidan iborat.

Soliq organlari — mamlakat mustaqilligining tengdoshi. 1991-yil 14-iyunda «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq organlari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi, 1991-yil 12-avgustda esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq organlari to'g'risida»gi 217-sonli qarori qabul qilindi.

O'sha paytda tasdiqlangan tuzilma 1994-yilgacha amal qildi, bu vaqtda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasida qoshidagi Bosh Davlat soliq boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasiga aylantirildi. Respublikada soliq organlari barpo etilishiga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat daromadlari boshqarmasi va uning joylardagi moliya bo'limlarida tegishli bo'linmalari faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi, 2000-yil 13-martdagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi, 2000-yil 5-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari soliq organlari faoliyatining huquqiy bazasini tashkil etadi. Ushbu hujjatlarda soliq organlarining asosiy funksiyalari va vazifalari ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, quyidagilar Davlat soliq xizmati organlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrining davlat soliq boshqarmalari, viloyatlarning davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning davlat soliq inspeksiyalari. Davlat soliq organlari tizimi ko'p darajali pog'ona

tarzidagi tashkilot tamoyili bo'yicha barpo etilgan: respublika, viloyat va tuman darajalarini o'z ichiga olgan yagona markazlash-tirilgan tizimdan iborat.

Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda, uning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilishda soliq xizmatining markaziy organi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hisoblanadi. Viloyat boshqarmalari soliq organlari tizimida oraliq, vositachi bo'g'in hisoblanadi, ular butun soliq xizmatining samarali faoliyat ko'rsatishini, boshqaruvning markaziy devoni bilan joylardagi soliq inspeksiyalarining hamkorligini ta'minlaydi.

Quyi soliq xizmatlari — O'zbekiston soliq organlari tizimining asosiy bo'g'imi asosiy vazifalarni amalga oshirar ekan, ular soliq to'lovchilar bilan bevosita hamkorlik qilishadi.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qilishadi. Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslar hisoblanadi, respublika budjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bitilgan muhrga ega bo'ladi.

Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab, uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab jo'natilgan qiymat bilan o'lchangan (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham, oborotdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromadidan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan olingan soliqlar kiradi. Bu guruh soliqlariga ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish solig'i ham kiradi. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer ostidan foydalanish solig'i va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bevosita soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. Bevosita soliq yukini boshqalarga ortish holati bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromadidan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

Bilvosita soliqlarning huquqiy to'lovchilari mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilardir. Lekin soliq yukining haqiqatan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bilvosita soliqlarga QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun yonilg'i iste'moli solig'i kiradi.

Soliqlar budjetni shakllantirish yo'nalishi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi:

I. Umumdavlat soliqlari.

II. Mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun yonilg'i iste'moli solig'i;

5) savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari;

6) yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Alohida (maxsus) soliq tartibi quyidagi toifadagi xo'jalik subyektlariga nisbatan qo'llaniladi:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi;

2) mikrofirmalar va kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxati belgilangan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini to'laydilar;

3) savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar yalpi tushumdan budjetga yagona soliq, shu bilan birga mol-mulk solig'ini to'laydilar;

4) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i;

5) lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar budjetga yalpi tushumdan qat'iy soliq to'laydilar.

Konchilik sanoati tarmog'ining ayrim korxonalari uchun ustama foyda solig'i to'lashi ko'zda tutilgan.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq tizimi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Davlat soliq xizmati organlari tizimining tarkibi qanday?
3. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining rivojlanish bosqichlarini izohlang.
4. Soliq mexanizmi tushunchasiga ta'rif bering.
5. Soliq mexanizmi elementlarini bayon eting.
6. Soliq tamoyillarini tavsiflang.
7. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
8. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
9. Soliqlarning tasnifini izohlang.
10. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlarning tasnifini izohlang.

1.5. Xorijiy davlatlarning soliq tizimlari va xalqaro soliq munosabatlari

Mustaqil respublikamizning jahon iqtisodiy xo'jaligi integratsiyalashuviga intilishi xalqaro soliq amaliyoti, rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq tizimlari va soliqqa tortish sohasidagi tajribalarini o'rganishni taqozo etadi. Xalqaro soliq amaliyotining tajribalarini

o'rganish shuni ko'rsatdiki, rivojlangan industrial davlatlar budjeti daromadlarining 80 % ga yaqinini soliqlar tashkil etadi. Quyida jahonning rivojlangan davlatlarning soliq tizimlari xususiyatlarini va xalqaro soliq munosabatlarini ko'rib chiqamiz.

Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi. AQSH budget tizimi quyidagicha: federal budget, mahalliy budget, maxsus budget. Mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy resurslari: shtatlar, munitsipalitetlar, maktab va maxsus okruglar, qishloqlarning moliya zaxiralaridan iborat.

AQSH soliq modeli amerikacha-sakson modeli bo'lib liberallashgan soliq tizimi, maqsadli soliq mexanizmiga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Federal budget daromadlari va xarajatlarining 65—70 % ini o'z ichiga oladi.

2-jadval

AQSH budjeti daromadlari tarkibida soliq tushumlarining salmog'i

Soliq turlari	Soliq stavkasi, %	Davlat budjetidagi salmog'i, %
Jismoniy shaxslar daromad solig'i	15, 28, 33	48,6
Korporatsiyalar daromad solig'i	15, 25, 34	9,6
Ijtimoiy sug'urta	Differensial stavka	34,1
Aksizlar	30, 60, 70	2,94
Meros va sovg'alarga solinadigan soliq	18—50	1,47
Bojxona to'lovlari	Differensial stavka	0,98
Mol-mulk solig'i	0,5—0,6	0,7
Sotuvlardan soliq	3—8	0,8
Boshqa daromadlar	Differensial stavka	0,81
Jami		100,0

AQSH soliqqa tortish tizimida soliqlarning asosiy turlari hokimlik vakolatlarining barcha pog'onalari bo'yicha bir xilda qo'llaniladi, ya'ni aholi 3 ta daromad solig'i, korporatsiyalar 3 ta foyda solig'i, 2 ta mol-mulkdan olinadigan soliq to'laydi.

Buyuk Britaniya soliq tizimi. Buyuk Britaniyada dastlab soliqqa tortishning ilmiy nazariyasi paydo bo'lib, hozirda liberallashgan davlat soliq tizimi amal qiladi. Buyuk Britaniyada zamonaviy soliq tizimi quyidagi yirik guruhlariga bo'lingan soliqlardan iborat: bevosita soliqlar (daromad solig'i, kapital solig'i, meros solig'i), bilvosita

soliqlar (asosiy manba — QQS), mahalliy soliqlar (eng yirigi — ko‘chmas mulk solig‘i), tadbirkorlikni faollashtiruvchi va boshqa soliqlar. Quydagi jadvalda Buyuk Britaniya budjeti daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari berilgan:

3-jadval

Buyuk Britaniyada joriy etilgan soliqlar bo‘yicha soliq tushumlarining tarkibi

Soliq turlari	Soliq stavkalari, %	Soliqlarning budjetdagi salmog‘i, %
Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i: A qism — mulk, yer, qurilish va inshootlardan olingan daromad; B qism — o‘rmon xo‘jaligidan olinadigan daromad; E qism — mehnatdan daromadlar; F qism — dividend va foizlar	25—40 Differensial stavka	26,0
Korporatsiyalar solig‘i	30 gacha	8,47
Mol-mulksolig‘i	Differensial stavka	10,0
Neft mahsulotini sotishdan olingan foyda solig‘i, royalti	12,5	0,53
Sarmoyaning ko‘payishidan olinadigan soliq	—	0,79
Merosdan olinadigan soliq	50 gacha	0,6
Gerb yig‘imlari	—	2,2
QQS	15	15,52
Aksizlar	Differensial stavka	11,0
Bojxona to‘lovlari	Differensial stavka	0,55
Ijtimoiy himoya uchun soliq	Differensial stavka	15,77
Boshqa daromadlar	Differensial stavka	8,57
Jami		100,0

Buyuk Britaniyada soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg‘armalar, mahalliy boshqaruv organlari budjeti va davlat korporatsiyalari moliyaviy jamg‘armalari daromadlarini tashkil etadi.

Germaniya soliq tizimi. Germaniyada fiskal siyosatli soliq tizimi amal qilib, soliqlar federatsiya, 2 ta maxsus jamg'arma, 16 ta yer budjeti va 11000 ta mahalliy budjetlarga to'lanadi.

Germaniyada amalda 40 dan ortiq soliq, yig'im va to'lovlar bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

4-jadval

Germaniyada joriy etilgan soliqlar bo'yicha soliq tushumlarining tarkibi

Soliq turi	Soliq stavkasi, %	Soliqning budjetdagi salmog'i, %
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	19—52	40,7
Cherkov solig'i (daromad solig'iga qo'shimcha)	8—9	—
Meros va sovg'alarga soliq	3—70	7
Korporatsiyalar daromadiga soliq	30—45	12
Qo'shilgan qiymat solig'i (kitob, oziq-ovqat va transport xizmatlariga imtiyozli stavka)	15 7	28
Tadbirkorlik faoliyati	35	0,5
Qimmatli qog'ozlardan olingan daromadga soliq	25—30	0,8
Qurilish tugallanmagan yerlarga soliq	0,35	1,3
Qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlariga soliq	0,6	1,2
Ijtimoiy sug'urta fondiga badal	2—15	—
Aksizlar	Differensial stavka	5,6
Kasb-hunar solig'i	15	1,1
Mol-mulk solig'i	0,6—1	1,8
Jami		100,0

Fransiya Respublikasida soliq tizimi. Fransiya davlat budjetining 90 % ini soliq va yig'imlar tashkil etadi. Yig'imlar yagona tizim bo'yicha undiriladi. Asosiy soliq turlari uch xil, *bevosita*, *bilvosita* va *yig'implardan* iborat. Bilvosita soliqlarning 50 % ini QQS tashkil etadi. Soliqlar ikkiga bo'linadi: mahalliy va respublika budjetiga soliqlarning taqsimlanishi qat'iy belgilangan.

Fransiyadagi soliqlar

Mahalliy	Umumdavlat
Turistlardan yig'im	Qo'shilgan qiymat solig'i
Oila solig'i, u uch qismdan iborat: daromad, yer va uy-joy solig'i	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i
Yer solig'i	Yuridik shaxslarning daromad solig'i
Atrof-muhitni tozalash uchun soliq	Neft mahsulotlari uchun bojxona to'lovi
Kommunikatsiyadan foydalanganlik uchun soliq	Aksizlar
Imoratlarni sotganlik uchun soliq	Mulk solig'i (jismoniy shaxslardan)
	Bojxona bojlari
	Qimmatli qog'ozlardan olinadigan foyda solig'i va boshqalar kiradi

Soliqning asosiy stavkasi — 18,6 % ni tashkil etadi, eng yuqori stavka esa 22 %. Bu stavka, asosan, ayrim tovar turlariga (avtomobil, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, atir-upa, qimmatbaho mo'yna) qo'llaniladi. Eng past soliq stavkasi (ya'ni, 5,5 %) oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kitoblar, dori-darmonlar uchun qo'llaniladi.

Fransiyaning moliya tizimi ko'p bo'g'inli bo'lib, umumdavlat va mahalliy soliqlar quyidagi budjetlarning daromadlarini tashkil etadi: umumiy budjet, g'aznachilik maxsus hisoblari, maxsus jamg'armalar va yettita qo'shilgan budjetlar (aloqa, ijtimoiy xo'jalik nafaqalari, milliy bosmaxona, zarbxona va boshq.).

Daromadda asosiy o'rinlardan birini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi. Jismoniy shaxs barcha oladigan daromadlarini hisobga olgan holda daromad deklaratsiyasini soliq organlariga taqdim etadi (davlat budjetining 18 % ini jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tashkil etadi).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv tavsifga ega, stavkalar 0 % dan 56,8 % gacha. Fransiyada ko'chmas

mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa mulklar bo'yicha qilingan operatsiyalarning boshqacha qoidalari mavjud.

Qo'shilgan qiymat solig'i. QQSni ko'radigan bo'lsak, u budjetning 45 % ini tashkil qiladi. QQSning to'rt stavkasi mavjud:

1. 18,6 % — barcha tovar va xizmatlar uchun.
2. 33,3 % — eng yuqori stavka (avtomobil, alkogol, tamaki mahsulotlari).
3. 7 % — imtiyozli stavka, madaniy tovarlar uchun (kitoblarga).
4. 5,5 % — birinchi navbatdagi ehtiyoj tovarlari va xizmatlariga (oziq-ovqatlar (alkogol va shokoladdan tashqari), dori-darmonlar, binolar va transport xizmatlariga).

QQSdan ozod qilishning ikki ko'rinishi bor:

- batamom ozod qilish;
- QQS — kompensatsiya, eksport qilingan tovarlarga beriladi.

QQSdan uch xil xizmatlar ozod qilinadi:

- tibbiy xizmatlar;
- ta'lim;
- xayriya va umumiy tadbirlar.

Mahalliy budjet tarkibi quyidagicha ifodalanadi. Mahalliy soliq tizimini to'rt asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- yer solig'i — qurib bitkazilgan uchastkalar uchun;
- yer solig'i — qurib bitkazilmagan uchastkalar uchun;
- turar joy solig'i;
- kasb solig'i.

Bu soliqlarning stavkalari mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi. Fransiya soliq tizimini ko'rib chiqib, O'zbekiston soliqlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, fransuz soliq tizimi ko'proq samarali ekanligini aytishimiz mumkin.

Yaponiya soliq tizimi. Yaponiya budjeti daromad qismining 64 % ini umumdavlat soliqlari, qolgan qismi mahalliy soliqlar va yig'imlarini tashkil qiladi. Mamlakatda 47 ta prefektura bo'lib, ular 3045 ta shahar va qishloq tumanlaridan tashkil topgan, har biri alohida mustaqil budjetga ega. Soliq tizimi 25 turdagi davlat va 30 turdagi mahalliy soliqlardan iborat.

Yaponiya soliq tizimining tarkibi

Soliq turi	Soliq stavkasi	Izoh
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	0,2—50 %	Soliq stavkasi oila a'zolarining soniga qarab tabaqalashgan
Yuridik shaxslarning daromad solig'i	Davlat korporatsiyalari daromadiga soliq — 33,48 %, prefektura solig'i — 5 %, munitsipalitet solig'i — 12,3 %	
Meros va hadyalarga soliq	10 % — 70 %	
Iste'mol solig'i	9 %	Imtiyozli stavka dori-darmon, qishloq xo'jaligi tovarlari uchun
Mol-mulk solig'i	1,4 %	Yuridik va jismoniy shaxslar uchun

Yaponiya soliq tizimi fiskal tavsifga ega bo'lib, budjetning 84 % i soliqlar, 16 % i soliqsiz to'lovlardan tashkil topgan. Yaponiyada moliya yili 1-aprelda boshlanib, 31-martda tugaydi. Jahondagi rivojlangan davlatlardan farqli ravishda Yaponiyada investitsiya rivojlanish budjeti tuzilgan bo'lib, bozor munosabatlariga o'tayotgan davlatlarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga beg'araz yordam ko'rsatmoqda.

Aksariyat davlatlarda xalqaro iqtisodiy faoliyat yurituvchi shaxslar foydasi davlatlar o'rtasida taqsimlanadi va ularni soliqqa tortish tartibi belgilanadi. Agar ikki davlat o'rtasida soliqqa tortish bo'yicha maxsus shartnoma yoki xo'jalik yurituvchi shaxs bilan alohida shartnomalar mavjud bo'lmasa, ikki tomonlama soliqqa tortiladi. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bo'g'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni, Bojxona kodeksi, boshqa qonun hujjatlari, xalqaro shartnomalar, shuningdek, xalqaro me'yorlar va qoidalar bilan tartibga solinadi.

Respublikamiz jahondagi rivojlangan mamlakatlarning soliqqa tortish tizimidagi xususiyatlarini o'rganib, xalqaro soliq amaliyotini va munosabatlarini tahlil qilib, soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishning samarali, maqbul usullarini tanlash imkoniyatiga egadir.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Rivojlangan mamlakatlardagi soliq tizimlari va munosabatlarining xususiyatlari nimadan iborat?
2. Xalqaro soliq munosabatlari qanday ifodalanadi?
3. AQSH soliq tizimining xususiyatlari qanday?
4. Buyuk Britaniyada qo'llaniladigan soliq turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Rivojlangan davlatlarda iste'mol soliqlari qanday undiriladi?
6. Xalqaro iqtisodiy faoliyatdan olingan soliq tushumlari qanday taqsimlanadi?

II bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLI VA SOLIQSIZ TO‘LOVLAR

2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan solikli va soliqsiz to‘lovlar tavsifi

Soliqqa tortish maqsadida o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan barcha korxon va tashkilotlar (ularning bo‘linmalari ham) *yuridik shaxs* hisoblanadi, undan tashqari ular mustaqil balans yoki smetaga va bank muassasalarida o‘z hisob raqamlariga ega bo‘lishlari kerak.

Yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari. O‘zbekiston Respublikasida hamda undan tashqarida ko‘rsatgan faoliyat manbalaridan olingan foydasi bo‘yicha soliq to‘laydilar.

O‘zbekistonda ta‘sis etilgan yoki ro‘yxatga olingan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ro‘yxatga olingan, bosh korxonasi O‘zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi.

Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo‘yicha guruhlash

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab, uch guruhga bo‘linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Foydadan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga QQS, aksiz solig‘i, bojxona bojlari kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo‘yicha ilgariydek mahsulot realizatsiyasi oborotidan

emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchangan (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham, oborotdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Foydadan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning foydasiga, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq. Bu guruh soliqlariga ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish solig'i ham kiradi. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanish solig'i va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab, soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bevosita soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. Bevosita soliq yukini boshqalarga ortish holati bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

Bilvosita soliqlarning huquqiy to'lovchilari mahsulotni ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilardir. Lekin soliq yukining haqiqatan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bilvosita soliqlarga QQS, aksiz solig'i, bojxona bojlari, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun yonilg'i iste'moli solig'i kiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'implar, boj to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar tashkil etadi. Yuridik shaxslar respublika (umumdavlat) budjetiga quyidagi soliqlarni va yig'implarni to'laydilar:

- yuridik shaxslarning foydasiga soliq;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik solig'i;
- bojxona boji;
- davlat boji;
- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;

- jarimalar va boshqa to'lovlar.

Yuridik shaxslar mahalliy budjetga quyidagi soliqlarni va yig'implarni to'laydilar:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- alohida tovarlarni sotish uchun litsenzion yig'im;
- savdo huquqini olish yig'imi va h.k.

Yuridik shaxslar budjetdan tashqari jamg'armalarga quyidagi to'lovlarni to'laydi:

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov;
- budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratma;
- bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga ajratma;
- Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga ajratma;
- respublika yo'l jamg'armasiga ajratma.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olgandan so'ng, ruxsat etilgan biror turdagi faoliyatdan daromad olishi yoki tovar (ish, xizmat)lar sotishdan aylanmaga ega bo'lishi hamda statistika idoralaridan, mahalliy boshqaruv organlaridan ro'yxatdan o'tishi shart. Tuman davlat soliq idorasida hisobda turishi va identifikatsion raqam (STIR) olishi shart.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i — *bilvosita soliqlar*, ya'ni soliq to'lovchilar ishlab chiqaruvchi va sotuvchi yuridik shaxslar bo'lsa-da, soliq yuki iste'molchilar zimmasiga tushadi. *Bevosita soliqlar* — daromad (foyda), mol-mulk, yer soliqlari to'lovchilari soliq yukini o'z zimmasiga oladi.

**Davlat budjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslardan
olinadigan soliqlarning salmog'i**

Soliqlar	2002-y.	2007-y.	2012-y.
Yuridik shaxslarning foydasiga soliq	25,8	13,5	9,6
Mikrofirkmalar va kichik korxonalar yagona solig'i	—	1,3	5,5
Mol-mulk solig'i	1,5	2,8	3,9
Yer solig'i	3,5	4,0	4,6
Yer qa'ridan foydalanganlik solig'i	0,6	1,2	1,4
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,1	0,4	1,5
Qo'shilgan qiymat solig'i	17,7	29,7	28,9
Aksiz solig'i	20,0	18,6	26,4
Bojxona boji	1,6	1,3	2,8
Boshqa soliqlar va yig'imlar (infratuzilmani rivojlantirish solig'i)	7,2	2,2	8,5
Jami	78	75	93



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
2. Yuridik shaxslar respublika budjetiga qanday turdagi soliqlarni to'laydilar?
3. Yuridik shaxslar mahalliy budjetiga qanday turdagi soliqlar va yig'imlarni to'laydilar?
4. Yuridik shaxslar budjetdan tashqari fondlarga qanday turdagi soliqsiz to'lovlarni to'laydilar?

**2.2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqni hisoblash
va budjetga to'lash tartibi**

Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning foydasiga soliq budjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu soliq bevosita soliq bo'lganligi uchun xo'jalik subyektlarining moliyaviy holati bilan bog'liq. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan yilga kamaytirish siyosatini olib bormoqda.

Yuridik shaxslar foydasidan undiriladigan soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, «Yuridik shaxslarning foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Foyda solig'ini to'lovchilar

Moliya yilida soliq olinadigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Ushbu soliqning to'lovchisi bo'lib chet ellik yuridik shaxslar va soliq solishning maxsus tartibiga o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanishmaydi.

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilar bo'lmaydi: *notijorat tashkilotlar*. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi. Agar Soliq kodeksining XX bo'limida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solishning sodalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Soliq solish obyeksi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyeksi quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasi;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va nerezidentlarining ushbu bo'limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari. Foydaga soliq solish obyeksi:

$$SB = JD - Ch - I - SBK,$$

bu yerda, *SB*—soliqqa tortish bazasi; *JD*— jami daromad; *Ch*—chegirmalar; *I*—imtiyozlar; *SBK*—soliqqa tortiladigan bazaning kamayishi.

$$F_{ss} = (SB \cdot S) / 100,$$

bu yerda, *F_{ss}*—foyda soliq summasi; *S*—belgilangan soliq stavkasi.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan ushbu bo'limda nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, Soliqli kodeksining 159-moddasiga muvofiq, soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza Soliqli kodeksining 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi. Soliqli hisob-kitoblari quyidagi shakllarda keltirilgan:

YTIR

varaqlar

Hujjat turi / Hisobot davri Soliqli davri

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlar

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Xodimlar soni Kishi

Mikrofirmalar Kichik korxonalar Yirik korxonalar (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma

Yuridik shaxsning joylashgan manzili _____
Pochta manzili _____

Telefon: kod raqam

Ushbu hisob- kitob	<input type="text"/>	varaqa tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjat- lar yoki ularning nusxalari	<input type="text"/>	<input type="text"/>	O'lchov birligi varaqa	<input type="text"/>	<input type="text"/>	<input type="text"/>	so'm
-----------------------	----------------------	---	----------------------	----------------------	---------------------------	----------------------	----------------------	----------------------	------

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

_____ ga taqdim etiladi.
(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Mazkur hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchligi va to'liqligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar STIR <input type="text"/>	Ushbu hisob-kitob (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda orqali <input type="checkbox"/> varaqda taqdim etildi
F.I. Sh. _____	
Imzo _____	
Bosh buxgalter STIR <input type="text"/>	Taqdim etilgan <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> sana (k/o/y) F.I. Sh. _____ Imzo _____
F.I. Sh. _____	
Imzo _____	
Sana (k/o/y) <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	

M.O'.

STIR

Hujjat turi / Hisobot davri chorak soliq davri

Hujjat turi: 1—ma'lumotnoma, 2—aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Ma'lumotnomani taqdim etish muddati (k/o/y)

_____ ga taqdim etiladi.
(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy
to'lovlarni hisoblash uchun
MA'LUMOTNOMA**

Ko'rsatkichlar	Satr kodlari	Summa(so'm)
Hisobot davrida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lagunga qadar taxmin qilinayotgan foyda summasi	010	
Taxmin qilinayotgan foydaning tuzatish koeffitsiyenti (110-satrning oldingi chorakda foyda solig'i hisob-kitobining 010-satriga nisbati ·100), % da	020	
Hisobot davridagi taxmin qilinayotgan soliq solish bazasi (010-satr 020-satr)	030	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uchun belgilangan stavka, %	040	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (030-satr 040-satr)	050	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar summasi (050-satr / 3)	060	

Izoh: Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitoblari o'sib boruvchi yakun bilan tuzilishini hisobga olib, tuzatish koeffitsiyentini hisoblab chiqarish uchun ma'lumotlar hisob-kitob bo'yicha 1-chorak, 2-chorak (1-yarim yillik ayiruv 1-chorak) va hokazo uchun aniqlanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan to'ldiriladi	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar STIR <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> F.I. Sh. _____ Imzo _____	Mazkur ma'lumotnoma (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta <input type="checkbox"/> elektron pochta orqali <input type="checkbox"/> orqali <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> varaqda taqdim etildi
Bosh buxgalter STIR <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> F.I. Sh. _____ Imzo _____	Taqdim etilgan <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> sana (k/o/y)
Sana (k/o/y) <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	F.I. Sh. _____ Imzo

Korxonalarining hisobot ma'lumotlari asosida foyda solig'ini hisoblash tartibi.

Masala. Hisobot davrida korxonaning mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdan sof tushumi 126000 ming so'mni tashkil etdi. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 79500 ming so'mni, davr xarajatlari tarkibidagi sotish xarajatlari 5200 ming so'm, ma'muriy xarajatlar 14700 ming so'm, boshqa operatsion xarajatlar 11350 ming so'mni tashkil etdi. Kelgusida soliqqa tortiladigan bazaga kiritilmaydigan xarajatlar 5500 ming so'mni tashkil etadi.

Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar 21200 ming so'm. Asosiy faoliyatdan boshqa xarajatlar 13800 ming so'm. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar: dividendlar shaklidagi daromadlar 1000 ming so'm; foiz shaklidagi daromadlar 500 ming so'm; uzoq muddatli ijara (lizingdan) daromadlar; valuta kursining farqidan daromadlar 460 ming so'm; moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar 480 ming so'm.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar: moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar 1230 ming so'm; favqulodda foyda 1390 ming so'm, eksport ulushi 25 %, nogironlar sonining salmog'i.

Plastik kartochkalar joriy qilinib to'langan haq. Soliqdan ozod qilinadigan foyda.

Yechim: korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ning 240-satri — 19750 ming so'm. Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk—500 ming so'm. Foyda solig'i hisob-kitobining I ilovasiga muvofiq, korxonalar xarajatlari hisobga olinganda soliq solinadigan bazaga qo'shiladigan xarajatlar: 010-satr — 1100 ming so'm. Foyda soliq hisob-kitobining II ilovasiga muvofiq, korxonalar xarajatlari hisobga olinganda soliq solinadigan bazaga qo'shiladigan xarajatlar: 010-satr — 5500 ming so'm. Foyda soliq hisob-kitobining III ilovasiga muvofiq korxonalar xarajatlari hisobga olinganda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar: 010 satr — 1340 ming so'm. Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar — 1000 ming so'm. Olingan (olinishi lozim bo'lgan) foizlar—500 ming so'm.

Soliq solinadigan foyda = [19750 + 500 + (1100 + 5500 — 1340)] — 1000 — 500 = 24010 ming so'm.

MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT — 2-shakl
201__-yil

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Hisobot davrida	
		daromad- lar (foyda)	xarajat- lar (zarar)
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	126000	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	020	x	79500
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (010–020-satr)	030	46500	
Davr xarajatlari, jami (050+060+070+ 080-satr), shu jumladan:	040	x	36750
sotish xarajatlari	050	x	5200
ma‘muriy xarajatlar	060	x	14700
boshqa operatsion xarajatlar	070	x	11350
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080	x	5500
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (zarari)	090	21200	13800
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (030–040+090-satr)	100	17150	
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (120+130+140+150+160-satr), shu jumladan:	110	2440	x
dividendlar shaklidagi daromadlar	120	1000	x
foizlar shaklidagi daromadlar	130	500	x
uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar	140		x
valuta kursi farqidan daromadlar	150	460	x
moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160	480	x
moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (180+190+200+210-satr), shu jumladan:	170	x	1230
foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x	
uzoq muddatli ijara (lizing) bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x	

valuta kursi farqidan zararlar	200	x	
moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	x	1230
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	220	18360	
Favquloddagi foyda va zararlar	230	1390	
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (220+/-230-satr)	240	19750	
Foyda solig'i	250	x	782,1
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260	x	1517,4
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (240-250-260-satr)	270	17450,5	

Imtiyozlar—jami 5292 ming so'm, shu jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga IV ilovaning 060-satri 3-ustuni—1104,5 ming so'm. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga V ilovaning 010-satri—4187,5 ming so'm.

$$\text{Soliq solinadigan baza} = 24010 - 5292 = 18718 \text{ ming so'm.}$$

Plastik kartochkalar qo'llanilib, to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga IX ilovaning 030-satri 110-satr) 1628,4 ming so'm. Keltirilgan summa chegirilgan holda foydadan (110-satr—1101-satr) = 18718—1628,4 = 17089,6 ming so'm. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi—9 %.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga X ilovaning 060-satri 4,5 %;
- xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi jami 927,8 ming so'm, shu jumladan, hisoblangan:

$$(1628,4 \quad 4,05 \%) / 100 = 66,75 \text{ ming so'm;}$$

$$(17089,6 \quad 4,5 \%) / 100 = 769,032 \text{ ming so'm.}$$

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodlari	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) («Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» — 2-shaklning 240-satri)	010	19750
Soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk (*)	020	500
Chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar) (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga I ilovaning 010-satri)	030	1100
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot davrining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga II ilovaning 010-satri)	040	5500
Hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga III ilovaning 010-satri)	050	1340
Hisobot davrining soliq solinadigan bazasiga kiritiladigan xarajatlar (030-satr + 040-satr — 050-satr)	060	5260
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar	070	1000
Olingan (olinishi lozim bo'lgan) foizlar	080	500
Soliq solinadigan foyda (010-satr + 020-satr + 060-satr — 070-satr — 080-satr)	090	24010
Imtiyozlar jami (1001-satr + 1002-satr)	100	5292
shu jumladan:		
soliq solishdan ozod qilinadigan foyda (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga IV ilovaning 060-satri 3-ustuni)	1001	110,45
soliq solinadigan foydani kamaytirish (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga V ilovaning 010-satri)	1002	4187,5
Soliq solinadigan baza — jami (090-satr — 100-satr)	110	18718
shu jumladan, hisoblangan:		
plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga IX ilovaning 030-satri · 110-satr)	1101	1628,4
1101-satrdagi keltirilgan summa chegirilgan holda foydadan (110-satr — 1101-satr)	1102	17089,6

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasi	120	9 %
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi:	130	
eksport qiluvchi korxonalar uchun, eksport ulushiga qarab, % da (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga V ilovaning 060-satri)	1301	4,5 %
Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalar qo'llanilib to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan olingan foydadan, % da [1301-satr - (1301-satr · 10 %)]	1302	4,05
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi – jami (150-satr+160-satr)	140	835,78
shu jumladan, hisoblangan:		
1101-satrdan ko'rsatilgan foydadan (1101-satr 1302-satr)	150	66,75
1102-satrdan ko'rsatilgan foydadan (1102-satr 1302-satr)	160	769,03
Nogironlar mehnatidan foydalanayotgan korxonalar uchun foyda solig'ining tuzatish kiritilgan summasi (yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga XI ilovaning 070-satri)	170	145,7
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi (1450-satr-170-satr)	180	690,08
Oldingi hisobot davri uchun hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	190	

Yuridik shaxslarning jami yillik daromadining tarkibi va tavsifi

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan, shu jumladan, yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadidir. Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni

jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi. Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiy summasidagi solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar joriy hisobot davrida tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ish (xizmat)lar bo'yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ish (xizmat)larning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgarganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalandanda;
- bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovar

(ish, xizmat)lar bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu moddaga muvofiq tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovar (ish, xizmat)ni Yetkazib beruvchi tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni Soliq kodeksining 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Boshqa daromadlar

Boshqa daromadlarga tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

1) soliq to'lovchining Soliq kodeksining 133-moddasiga muvofiq, asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;

2) Soliq kodeksining 134-moddasi, birinchi qismiga muvofiq, mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

3) Soliq kodeksining 134-moddasi, ikkinchi qismiga muvofiq, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

4) Soliq kodeksining 135-moddasiga muvofiq, tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar va h.k.

Korxonada faoliyatida yalpi foyda tushunchasi va asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foydasi

Tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan biron-bir subyekt foyda bermaydigan ishga qo'l urmaydi, binobarin foydasiz ish uchun xarajat ham, harakat ham qilmaydi. «Foyda» tushunchasini iqtisodchi va buxgalterlar turlicha talqin qiladilar. Iqtisodchilar foydaning ikki turi — me'yoriy foyda va iqtisodiy foydaga e'tiborni qaratadilar.

Me'yoriy foyda tabiatan tadbirkorlik faoliyati uchun olinadigan haq hisoblanadi va xarajatlarni tarkibiga kiritiladi. Tovarlar eng past narxda, ya'ni xarajatga teng narxda sotilganda ham tadbirkor me'yoriy foydani oladi.

Iqtisodiy foyda miqdoran tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushum bilan xarajatlarni o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi va tovarlar xarajatlardan yuqori bo'lgan narxda sotilganda hosil bo'ladi. Foyda

ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, xatarli ishga qo‘l urgani uchun tadbirkorlarga tegadigan mukofotdir.

Iqtisodiy nazariyada faoliyat turiga qarab ham foyda turlarini talqin etiladi. Masalan, ishlab chiqarish foydasi, tijorat foydasi, bank foydasi va hokazo. Bundan tashqari bozordagi narxlarning o‘zgarishi tufayli olinadigan foydani *omad foydasi*, deb yuritiladi. Bu foyda xarajatlarga bog‘liq bo‘lmaydi, uni narxda kutilmagan o‘zgarishlar yuzuga keltiradi. Pulning qadrsizlanishi jarayonida inflatsion foyda ham hosil bo‘lishi mumkin.

Sof foyda korxonaga faoliyatining umumlashgan, yakuniy ko‘rsatkichidir. Sof foydaga qarab korxonaga faoliyatiga baho berish mumkin. Korxonaga yaratgan tovarlar va xizmatlarini sotishdan tushgan tushum uning kirimi bo‘lib, ketgan sarf-xarajatlarni qoplaydi va foyda olish imkonini beradi.

Xarajat foyda olishning asosiy sharti hisoblanadi, chunki sarf-xarajatsiz iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi. Iqtisodiy nazariyada xarajatlarni tashqi va ichki, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratiladi:

Tashqi xarajatlar	Ichki xarajatlar
• ish kuchi	• bino-inshootlar
• xomashyo	• mashina-uskunalar
• yoqilgi-energiya	• ijara haqi
• transport, aloqa xizmatlari	• kreditlar uchun foiz
• bank xizmatlari	• me‘yoriy foyda
• boshqalar	• shunga o‘xshash boshqa xarajatlar

Miqdori ishlab chiqarish hajmiga qarab o‘zgarmaydigan sarflar doimiy xarajatlar deyiladi, aksi esa o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘ladi. Buxgalteriya va soliqqa tortish maqsadlarida daromad, foyda va xarajat kabi tushunchalarga keng ma‘noda e‘tibor beriladi va chuqur tahlil qilinadi. Buxgalteriya va soliqqa tortish maqsadlarida iqtisodiy nazariyada bo‘lgani kabi me‘yoriy foyda, omad foydasi, inflatsion foyda kabi tushunchalar qo‘llanilmaydi.

Hozirgi kunda amaliyotda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq, foyda ko‘satkichlari besh turdan iboratdir:

1. Yalpi foyda.
2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda.
3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda.
4. Soliq to'languncha foyda.
5. Sof foyda.

Foyda solig'i obyektini aniqlashda ham yuqoridagi foyda ko'rsatkichlariga duch kelinadi. Soliq kodeksiga asosan, soliq obyektini jami daromad bilan kodeksda ko'rsatilgan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida aniqlangan foyda summasidir, deyilgan. Amaliyotda soliqqa tortiladigan obyekt jami daromad bilan yuqorida nomi zikr qilingan nizomda ko'rsatilgan xarajatlar va nizomning ilovalarida belgilangan xarajatlar summasiga o'zgartirilgan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqilgan foyda hisoblanadi.

Daromad va xarajatlar ma'lum bo'lgandan keyin, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydani quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YAF=SST-SMIT,$$

bu yerda, YAF —yalpi foyda; SST —sotishdan olingan sof tushum; $SMIT$ —sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF=YAF-DX+BD-BZ,$$

bu yerda, AFF —asosiy faoliyatdan olingan foyda; DX —davr xarajatlari; BD —asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; BZ —asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF=AFF+MFD-MFX,$$

bu yerda, UF —umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MFD —moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; MFX —moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Soliq to‘lagungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FF-FZ,$$

bu yerda, STF —soliq to‘langungacha olingan foyda; FF —favqulodda vaziyatlardan olingan foyda; FZ —favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

5. Sof foyda, bu soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladigan foyda bo‘lib, u soliq to‘laguncha olingan foydadan daromad (foyda) solig‘i hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan foydadan to‘lanadigan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlangan holda aniqlanadi:

$$SF=STF-DS-BST,$$

bu yerda, SF —sof foyda; DS —foydadan to‘lanadigan soliq; BST — boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Demak, hozirgi vaqtda amaliyotda buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalarning shakllanishida foydaning besh ko‘rsatkichi, ya‘ni yalpi foydadan boshlab, to sof foydagacha bo‘lgan bosqichlar ko‘rib chiqiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq solinadigan bazani quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$SSB= STF+DT\pm VT,$$

bu yerda, SSB —soliq solinadigan baza; STF —soliq to‘langunga qadar foyda; DT —doimiy tafovutlar; VT —vaqtinchalik tafovutlar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortish jarayoni oson kechmaydi. Amaliyotda korxonalarining foydasiga soliq hisoblanishi iqtisodiy nazariyadagi foyda tushunchalaridan farq qiladi. Korxonalarining foydasini soliqqa tortish murakkab jarayon bo‘lib, moliyaviy natijaning shakllanishidagi barcha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Amortizatsiya xarajatlari

Bir necha doimiy muassasalarga ega bo'lgan bitta xorijiy yuridik shaxsning birgalikda jamlangan hisobotlari va soliq hisob-kitoblarini topshirish ruxsat etilmaydi. Doimiy muassasa soliq organida hisobga turishdan bo'yin tovlasa, xorijiy yuridik shaxsga uning miqdor vakili orqali, ya'ni doimiy muassasa orqali O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilab qo'yilgan tartibda jazo—jarima choralari ko'riladi.

Doimiy muassasaga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, soliqqa tortiladigan bazani aniqlash uchun olinadigan yalpi daromadni va shu daromadlar bo'yicha tegishli chegirmalarni hisobga olishga imkon bergan buxgalteriya hisobini yuritish lozim.

Chet el valutasida amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyalari ular amalga oshirilgan vaqtda Markaziy bankning kursiga muvofiq milliy valutaga qayta hisoblanadi. Doimiy muassasalarning daromadlarini soliqqa tortishga, ularning O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan shu daromadlar bo'yicha chegirmalar orasidagi ayirma olinishi lozim.

Norezident yuridik shaxsning daromadlariga doimiy muassasaning O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi daromadlar kiradi.

Xarajat bo'yicha chegirmalarga norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshirilgan barcha faoliyatlari bilan bog'liq ravishda olingan daromadlariga qilingan xarajatlar kiradi, bunda ushbu xarajatlar O'zbekiston Respublikasida qilinganmi yoki yo'qmi buning farqi bo'lmaydi.

Chegirmalar, xarajatlar va ajratmalarni aniqlash tartibi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisoblangan foyda solig'i summasiga qo'shimcha ravishda norezidentning doimiy muassasasi tomonidan chet elga o'tkaziladigan har bir summasida 10 % miqdorida soliqni hisoblashi va budjetga to'lashi shart.

Norezidentning doimiy muassasasi tomonidan hisobotlarni taqdim etish va soliq to'lash muddatlari

Norezident tomonidan hisobotlar chet el sarmoyasi bilan tashkil etilgan korxonalarining yillik buxgalteriya hisobotini topshirish uchun beriladigan muddatlarida doimiy muassasa joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga «O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xarakteri to'g'risida (erkin shaklda) hisobot, shuningdek, daromadlari haqida»gi 1416-yo'riqnomada keltirilgan shaklda hisob-kitob topshiriladi.

Soliq organi xizmati xorijiy yuridik shaxsga foyda solig'ini hisoblaydi va hisob-kitob topshiriladigan kundan 10 kun mobaynida to'lov xabarnoma yozib beradi. To'lov xabarnomasida soliq to'lashning muddatini uning yozib berilgan oyi bilan bir oyda ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

«Doimiy muassasa» foyda solig'ini bir yilda bir marotaba joriy to'lovlarni to'lamagan holda to'laydi. Soliq doimiy muassasa yoki xorijiy yuridik shaxsning o'zi tomonidan so'm ko'rinishida to'lov xabarnomada ko'rsatilgan muddatlarda pul ko'chirish yo'li bilan to'lanadi.

Masala

Mehmonxona xorijiy yuridik shaxs bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan. Shartnomaga muvofiq, boshqaruv bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun xorijiy yuridik shaxs norezident 250 ming AQSH dollari miqdorida daromad olishi kerak. «Doimiy muassasa» orqali olingan daromadga 10 % li stavka qo'llaniladi. Demak, norezidentning 250 ming AQSH dollari summasi miqdoridagi daromadi ushbu daromadni olish bilan bog'liq ravishda qilgan xarajatlarni chegirib tashlagan holda soliqqa tortiladi.



1. «Doimiy muassasa» tushunchasini izohlang.
2. Norezidentning doimiy muassasasi tomonidan soliq to'lash tartibi muddatlari qanday?
3. Chet el investitsiyalik korxonalarini soliqqa tortish xususiyatlarini tavsiflang.

2.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Barcha bilvosita soliqlar kabi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ham, asosan, soliqlarning fiskal funksiyasini bajaradi, uning joriy qilinishidan asosiy maqsad davlat budjetini mablag' bilan to'ldirish bilan bog'liq. QQS soliq tushumlarini narx-navoning o'sishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lab turganligi uchun u budjet mablag'larini inflatsiya bo'lishidan saqlab qoluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

QQS bilvosita soliq bo'lib, soliq yuki iste'molchi zimmasiga tushadi. Ushbu soliqni to'lash oldi-sotdi jarayonidan kelib chiqadi va soliqqa tortish subyektining moliyaviy holatini hisobga olmaydi.

Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasini aniqlashning to'rt usuli mavjud:

- 1) bevosita additiv yoki buxgalteriya usuli;
- 2) bilvosita additiv;
- 3) bevosita chegirish usuli;
- 4) bilvosita chegirish yoki hisobvaraqlar bo'yicha hisobga olish usuli.

QQSning summasi ko'rsatilgan hisobvaraqlar-fakturasi mavjudligi oldi-sotdining asosiy vaqtini belgilab, xo'jalik subyektining ushbu soliq majburiyati haqida ma'lumotni beradi. Shuning uchun ham hisobvaraqlar-fakturaning to'ldirilishi bo'yicha qat'iy tartibga bo'ysunish talab etiladi.

Soliq to'lovchilar

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa;

2) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;

3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib

kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno;

4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Soliq solish obyektini

Soliq solish obyektini quyidagilardir:

- soliq solinadigan oborot;
- soliq solinadigan import.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti deb, quyidagilar e'tirof etiladi:

- mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:
 - tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish);
 - ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;
 - mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish), shu jumladan, yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish);
 - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovar (ish, xizmat)larga almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish);
 - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisa (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va h.k. (Soliq kodeksining 199-moddasi)

Soliq solinadigan oborotni belgilash

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir, bundan quyidagilar mustasno:

- Soliq kodeksining 208, 209 va 210-moddalariga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborot;
- realizatsiya qilingan joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan oborot.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish joyi Soliq kodeksining 202-moddasiga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidenti uchun bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mazkur ishlarni, xizmatlarni oluvchining soliq solindigan oborotiga Soliq kodeksining 207-moddasida belgilangan tartibda kiritiladi.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaqa

0	1
---	---

Hujjat turi

1

 /

--

Hisobot davri

0	1
---	---

Soliq davri

--	--	--	--

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

Yuridik shaxslardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlar

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Xodimlar soni

--	--	--	--	--

 kishi

Mikrofirma Kichik korxonona Yirik korxonona (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

Davlat royxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma

--	--	--	--	--	--	--	--

Yuridik shaxsning joylashgan manzili _____

Pochta manzili _____

Telefon: kod

--	--	--	--

 raqam

--	--	--	--	--	--	--	--

Ushbu hisob-kitob <table border="1"><tr><td> </td><td> </td></tr></table> varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari <table border="1"><tr><td> </td><td> </td></tr></table> varaqda <table border="1"><tr><td> </td><td> </td></tr></table> O'lchov birligi <table border="1"><tr><td>so'm</td></tr></table>							so'm
so'm							

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (k/o/y)

--	--

--	--

--	--	--	--

_____ ga taqdim etiladi.

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Paxta tolasini respublikamizda ichki iste'molchilarga realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini 20 % li stavkada undirish belgilandi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazani aniqlash va imtiyozlarni qo'llash

Soliq solinadigan bazani belgilash

Soliq solinadigan baza, agar Soliq kodeksining 204-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, realizatsiya qilinayotgan tovar (ish, xizmat)larning qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovar (ish, xizmat)lar tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar ham hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, Soliq kodeksining 224-moddasiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat

muddati belgilangan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi. Ushbu moddaga muvofiq, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvaraqq-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Soliqdan ozod etiladigan tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

1) davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar (harakatlar);

2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar va h.k. (Soliq kodeksining 208-moddasi).

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Hisobga olinadigan soliq summasi. Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovar (ish, xizmat)lar oluvchi haqiqatda olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'ining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar mazkur tovar (ish, xizmat)lardan soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan, nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadlarida foydalanilsa, shuningdek, Soliq kodeksining 199-moddasi, ikkinchi qismi, 1-bandiga muvofiq, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun foydalanilsa.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchida soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborotlar, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotlar mavjud bo'lgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i Soliq kodeksining 221-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Ushbu bobni qo'llash maqsadida mol-mulkni ijaraga berishga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Soliqni hisoblash tartibi

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{qqs} = S_{ay} \cdot H \cdot 100,$$

bu yerda, S_{qqs} —iste‘molchilardan undiriladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi; S_{ay} —soliqqa tortiladigan aylanma; H —qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Tovar (ish, xizmat)lar qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga olgan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganda — soliq quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi:

$$S_{qqs} = T_q \cdot H \cdot (H + 100),$$

bu yerda, T_q —qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan hisobga olingan tovar (ish, xizmat)lar qiymati.

Soliq to‘lash tartibi

QQSni budjetga to‘lash Soliq kodeksining 225-moddasiga muvofiq QQS hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Masala. Hisobot davrida korxonada 374000 so‘mlik QQSsiz sotish aylanmasiga ega bo‘lib, shu jumladan, soliqqa tortiladigan aylanmasi 314000 so‘m bo‘lgan, xomashyo, materiallar, yonilg‘i va boshqa ish, xizmatlar qiymati 160000 so‘m (QQSsiz). Soliqqa tortilmaydigan aylanma 60000 so‘m (QQS bo‘yicha imtiyoz to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma ilova qilinadi).

Yechim. 1). Hisobot davrida olingan hisobvaraqq-fakturalar bo‘yicha haqiqatda kelib tushgan xomashyo, materiallar yoqilg‘i, ish-xizmatlar qiymati bo‘yicha hisoblanadigan QQS summasi = (160000 20 %) 100 % = 32000 so‘m.

2). Yuklab jo‘natilgan tovar (ish, xizmat)lar aylanmasi— (314000—60000) = 254000 so‘m.

QQS summasi = (254000 20 %) 100 % = 50800 so‘m.

3). Budjetga to‘lanadigan QQS summasi = $QQS_{to‘liq} - QQS_{hisobga\ kiritilgan} = 50800 - 32000 = 18800$ so‘m.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi (II ilovaning 050-satri)	010	33703138,96
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (III ilovaning 050-satri)	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr—020-satr)	030	33703138,96
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi (IV ilovaning 010-satr 4-ustuni)	040	8786392,47
Budjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr—030-satr)	050	-24916746,49

Rahbar _____
(imzo)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

M.O'.

Hisobga olinadigan QQS hisob-kitobi uchun foydalaniladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Qiymat	QQS summasi
QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovar (ish, xizmat)lar (7-ilovaning 5 va 6-ustunlari yakuniy summalari)	010	168515694,8	33703138,96
Hisobga olinadigan QQS summasiga tuzatish kiritish:		x	x
umumbelgilangan soliqlarni to'lashga, shu jumladan, yagona soliq to'lovchisi tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga o'tilganda, shuningdek, imtiyoz bekor qilinganda QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelganda tovar (ish, xizmat)larning qoldiqlari bo'yicha	020	—	—
soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda, shu jumladan, imtiyozlar tadbiiq etilganda, tovar (ish, xizmat)lar qoldiqlari bo'yicha	030	—	—
Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (010-satr+ 020-satr-030-satr)	040	168515694,8	33703138,96

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaқ

0	4
---	---

**Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi
hisob-kitobi**

Ko‘rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo‘yicha jami oborotdagi salmog‘i*	Realizatsiya bo‘yicha oborot summasi	QQS
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum, jami («Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot—2-shaklning 010-satri)	010	100 %	59114054,25	x
shu jumladan:				x
20 foizli stavka qo‘llaniladigan	0101	71,51	4229805	x
0 foizli stavka qo‘llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari)	0102			
0 foizli stavka qo‘llaniladigan tovarlar eksporti:	0103	x	x	x
chet el valutasida	01031	x	8535 Yevro	x
jo‘natish kuniga O‘zR Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valutadagi ekvivalentda	01032	28,49 %	16844249,25	x
valuta tushumi kelib tushishi (chet el valutasida)	01033	x	8535 Yevro	x
kelib tushgan chet el valutasining salmog‘i (01033-satr / 01031-satr ·100)	01034	100 %	x	
soliq solinmaydigan tushum	0104			x

Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (1-ilo- vaning 040-satri)	020	x	x	33703138,96
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (alohida-alohida yuritiladigan hisob bo'yicha) (0301-satr+0302-satr+0303-satr+0304-satr)	030	x	x	
shu jumladan:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun	0301	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun	0302	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun	0303	x	x	
qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun	0304	x	x	
Olingan va realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun ishlatiladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS summasi (mutanosib usul bo'yicha) (020-satr-030-satr)	040	x	x	33703138,96
shu jumladan:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (040-satr 0101-satr)	0401	x	x	33703138,96
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (040-satr 0102-satr)	0402	x	x	

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Har bir oborotning realizatsiya bo'yicha jami oborotdagi ulushi	Realizatsiya bo'yicha oborot summasi	QQS
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun (040-satr 01032-satr)	0403	x	x	
Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan oborot uchun (040-satr 0104-satr)	0404	x	x	
Olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha hisobga olinadigan QQS summasi (0501-satr + 0502-satr + 0503-satr)	050	x	x	33703138,96
shu jumladan, realizatsiya bo'yicha oborotlar uchun:		x	x	
20 foizli stavka qo'llaniladigan oborotlar uchun (0301-satr + 0401-satr)	0501	x	x	33703138,96
0 foizli stavka qo'llaniladigan (tovarlar eksportidan tashqari) oborotlar uchun (0302-satr + 0402-satr)	0502	x	x	
0 foizli stavka qo'llaniladigan tovarlarning chet el valutasidagi eksporti uchun (0303-satr + 0403-satr)	0503	x	x	
shu jumladan, valuta tushumi kelib tushganlari bo'yicha (0503-satr 0103-satrning 3-ustuni / 100)	0503	x	x	

Valuta tushumining to'liq kelib tushmaganligi munosabati bilan hisobga olinmaydigan QQS summasi (0503-satr–0531-satr)	0503	x	x	
Hisobga olinmaydigan QQS summasi (020-satr–050-satr= 0304-satr+ 0404-satr+0503-satr)	060			

Izoh: 0101, 0102, 01032, 0104-satrlarning 3-ustunlari qiymatlari ushbu satrlarning 4-ustunlarining 010-satr 4-ustuniga nisbati orqali aniqlanadi.

Rahbar _____
(imzo)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

M.O'.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobiga 4-ilova

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaqa

0	7
---	---

Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish oborotlari

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jo'natmalar qiymati	QQS summasi
Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami (0101–0107-satrlar yig'indisi)	010	60776211,6	8786392,47
ulardan			
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» – 2-shaklning 010-satri)	0101	59114054,25	
shu jumladan,			
QQSdan ozod qilinadiganlari (5-ilovaning 010-satri)	01011		x
0 darajali stavka bo'yicha soliq solinadiganlari (6-ilovaning 010-satri)	01012	16544249,25	x

boshqa soliq solinadigan realizatsiya (0101-satr–0101-satr–01012-satr)	01013	42269805	8453961
tannarxidan past narxda realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)larning tannarxi va realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq	0102		
tovarlarni import qilishda QQS to'lash maqsadida bojxona organlari tomonidan aniqlangan narx va import qilingan tovarlarning QQS kiritilmagan holda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farq summasi	0103		
asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari realizatsiyasi (realizatsiya qilish narxi bilan ularning qoldiq qiymati o'rtasidagi QQS summasini ham o'z ichiga oladigan ijobiy farq)	0104		
mol-mulkn moliya ijarasiga, shu jumladan, lizingga topshirish (chiqib ketayotgan aktivlarning qiymati bilan ularning QQS summasini o'z ichiga oladigan qoldiq qiymati o'rtasidagi musbat farq)	0105		
mol-mulkn operativ ijaraga berish	0106		
Realizatsiya bo'yicha 0101, 0104–0106-satrlarda ko'zda tutilmagan boshqa oborotlar	0107		
	01071	1662157,35	332431,47
	01072	1662157,135	332431,47
	01073		
	01074		

Izoh: 0103-satr import qilingan tovarlarni sotish bo'yicha savdo faoliyatini yurituvchi import bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Qiymatiga QQS summasini ham o'z ichiga oladigan tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi bo'yicha oborotlar bo'yicha QQS summasi (oborot 20 / 120) formulasi orqali aniqlanadi.

Rahbar _____
(imzo)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

M.O'.

Nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi hisob-kitobi

Soliq solinadigan obyektlar	Satr kodi	Soliq solinadigan baza
Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar realizatsiyasi – jami (020+030+040+050+060+070 ...):	010	168444249,25
shu jumladan:		
tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish	020	168444249,25
chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi	030	
«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar realizatsiyasi	040	
xalqaro yo'nalishda yuk tashish bo'yicha xizmatlar realizatsiyasi	050	
suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan olayotgan shunday xizmatlar realizatsiyasi	060	
QQS bo'yicha nol darajali stavka qo'llanilishi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi – jami	070	
shu jumladan	0701	
	0702	
	0703	

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'

Hisobga olinmaydigan soliq summasi

Quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi:

1) olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha;

2) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, Soliq kodeksiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovar (ish, xizmat) bo'yicha;

3) garov qiymatiga ega bo'lgan, ushbu tarada tovarni jo'natishda soliq solinadigan oborotga kiritilmaydigan qaytariladigan tara, shu jumladan, shisha idish bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan tovar (ish, xizmat) bo'yicha;

5) tekinga olingan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha, bundan oluvchi tomonidan tovar (ish, xizmat) bo'yicha Soliq kodeksining 218-moddasi birinchi qismi 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i to'langan hollar mustasno;

6) bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, ko'ngilochar tomoshalar tashkil etish maqsadida olingan moddiy resurslar bo'yicha, bundan soliq to'lovchi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ko'ngilochar tomoshalar sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun olgan moddiy resurslar mustasno.

Hisobga olinadigan soliq summalariga tuzatish kiritish

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

- Soliq kodeksiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalanilayotgan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha;

- Soliq kodeksining 218-moddasi birinchi qismida belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda.

Soliq solinmaydigan realizatsiya qilish oboroti mavjud bo'lgan taqdirda, soliqni hisobga o'tkazish tartibi

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovarlar (ish, xizmat)lar bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovar (ish, xizmat)larning qiymatida hisobga olinadi.

Hisobvaraƒ-faktura

Hisobvaraƒ-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1) hisobvaraƒ-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
2) hisobvaraƒ-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlari yoki shartnomaning raqami va sanasi;

3) soliq to'lovchi va tovar (ish, xizmat)lar sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;

4) realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birliklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa);

5) o'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraƒ-faktura bo'yicha soni (hajmi);

6) shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif).

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvaraƒ-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini Soliq kodeksining 218-moddasiga muvofiq hisobga olish uchun asos bo'ladi. Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobvaraƒ-faktura tovar (ish, xizmat)lar realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek, tovar (ish, xizmat)larni uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvaraƒ-faktura yozadi.

2010-yil 15-avgustdagi
1-tovar yuklab jo'natish hujjatiga
2010-yil 16-sentabrdagi
2-sonli

HISOBVARAQ-FAKTURA

Yetkazib beruvchi _____
Manzil _____
Telefon _____
Hisob-kitob hisobvara-
raqami _____
Yetkazib beruvchining identifikatsiya
raqami (STIR) _____
XXTUT bo'yicha kod _____

Sotib oluvchi _____
Manzil _____
Telefon _____
Hisob-kitob hisobvara-
raqami _____
Sotib oluvchining identifikatsiya
raqami (STIR) _____
XXTUT bo'yicha kod _____

Tovar (ish, xiz- mat)lar	O'l- chov birli- gi	Miq- dori	Narxi	Yetkazib berish qiymati	Aksiz solig'i		QQS		Yetkazib berish- ning QQS hisobga olingan qiymati
					Stav- kasi	Sum- masi	Stav- kasi	Sum- masi	
Plastik rom	dona	20	100000	2000000			20 %	400000	2400000
Plastik eshik	dona	10	150000	1500000			20 %	300000	1800000
Jami to'lashga:				3500000				700000	4200000

Rahbar _____
(imzo)

Oldim _____
(sotib oluvchi yoki vakolatli
shaxsning imzosi)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

2010-yil 16-avgustdagi 2-sonli
ishonchnoma bo'yicha

M.O'

Tovarni berdim _____
(Yetkazib beruvchi mas'ul shaxsning
imzosi)

(Tovar oluvchining F.I.Sh.)



1. Qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, qanday soliq hisoblanadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari kimlar hisoblanadi?
3. Qo'shilgan qiymat solig'i obyektini tushuntiring.
4. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularda qo'llash tartibi qanday bo'ladi?
5. Qo'shilgan qiymat solig'ining imtiyozlarini tushuntiring.
6. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday muddatlarda budjetga to'lanadi?

2.5. Aksiz solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Soliq to'lovchilar

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovar (aksiz to'lanadigan tovar)larni ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Soliq solish obyekti

Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyektidir:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarni sotish (jo'natish);
- garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisi (ishtirokchisi)ga topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovar (ish, xizmat)larga ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherik (ishtirokchi)ning hissasi sifatida topshirish va h.k.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana

Aksiz to'lanadigan tovarlar oluvchiga jo'natilgan (topshirilgan) kun, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlar garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish obo-roti amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiy-lashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Aksiz tovarlari ishlab chiqaruvchi yuridik shahslarning hisobot ma'lumotlari bo'yicha soliqqa tortiladigan aylanmani hisoblash

Soliq solinadigan baza. Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, agar ushbu moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovar (ish, xizmat)larga ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda

soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tan-narxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish. Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgartirilganda;
- baholar o'zgariganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanilganda.

Soliq solinadigan bazaga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq, yangi hisobvara-q-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hol yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati va aksiz solig'i stavkalari. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish Soliq kodeksining 232-moddasiga muvofiq, aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Aksiz solig'ini hisoblash tartibi

Aksiz solig'i summasi qat'iy stavkalar belgilangan holatlarda quyidagicha hisoblanadi:

1. Alkogolli mahsulotlar bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq, budjetga to'lanadigan aksiz solig'i summasini hisoblash. Suvsiz etil

spirtning 1 litri uchun aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulotlar bo'yicha aksiz solig'i summasi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$A_s = (M \cdot A) : 100,$$

bu yerda, A_s —aksiz solig'i summasi; M —tayyor mahsulot tarkibidagi spirtning o'tkirligi, foizlarda; A —aksiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligi so'mlarda.

2. Tayyor mahsulot birligiga aksiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha (spirti kam vino, shampan vinosi, pivo, vino mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlari) bo'yicha aksiz solig'i summasi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$A_s = F \cdot A,$$

bu yerda, A_s —aksiz solig'i summasi; F — tegishli o'lchov birliklarida sotilgan mahsulotning natura ko'rsatgichlaridagi hajmi; A —aksiz solig'ining qat'iy stavkasi, o'lchov birligi so'mlarda.

3. Foiz (advalor) ko'rinishdagi stavkalar belgilangan aksizlanadigan mahsulotlar bo'yicha aksiz solig'ining summasi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$A_s = (O \cdot A) : 100,$$

bu yerda, A_s —aksiz solig'i summasi; O —o'z ichiga aksiz solig'ini oladigan narx, QQSsiz; A —aksiz solig'i stavkasi.

4. Aksiz solig'i summasining hisob-kitobi uchun aksizni o'z ichiga oladigan narx quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$O = (S : 100) \cdot (100 - A),$$

bu yerda, O —QQSsiz aksiz solig'ini o'z ichiga oladigan narx; S —korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me'yoriy xarajatlar va foyda me'yori); A —aksiz solig'i stavkasi.

Masala. Korxonada zargarlik buyumlarini ishlab chiqaradi. Hisobot davrida 8000 dona tilla uzuk sotilgan. Bir dona tilla uzukni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha xarajatlar yig'indisi 70 ming so'mni, foyda me'yori 25 % ni tashkil etsa, aksiz solig'i summasini hisoblang.

aksiz solig'i HISOB-KITOB-I

(ming so'm)

Davr	Tovar	Yuklab tushirilgan tovarlarning qiymati (QQSsiz, keli-shilgan erkin narxlarda)		Aksiz		Jami aksizlar		Budget bilan hisob-kitoblar saldosi kamayishga qo'shimcha to'lovga
		Jami	Shu jumladan, soliqqa tortiladigan aylanma	Soliqqa tortiladigan aylanmaga nisbatan soliq stavkasi	Budgetga to'lanadigan aksiz solig'i (4-satr · 5-satr/100)	Dekadalik to'lovlar	Xomashyo uchun to'langan va hisobga olingan aksiz solig'i	
I o'n kunlik	Zargarlik buyumlari	23000	23000			5750		
II o'n kunlik	Zargarlik buyumlari	23000	23000			5750		
III o'n kunlik	Zargarlik buyumlari	24000	24000			6000		
Jami oylik		70000	70000	25 %	17500	17500		

Yechim. 1. Mahsulot birligining ulgurji narxi:

$$O = 70 \text{ ming so'm} + \frac{70 \text{ ming so'm} \cdot 25 \%}{100} = 70 \text{ ming so'm} +$$

$$+ 17,5 \text{ ming so'm} = 87,5 \text{ ming so'm}.$$

2. Hisobot davrida soliqqa tortiladigan aylanma quyidagicha aniqlanadi:

$$O = 87,5 \text{ ming so'm} \quad 8000 = 70 \text{ ming so'm}.$$

3. Zargarlik buyumlari uchun aksiz solig'i stavkasi — 20 %. Soliqqa tortiladigan aylanma bo'yicha hisoblangan aksiz solig'i summasi:

$$A_s = \frac{O \cdot A}{100} = \frac{70 \text{ ming so'm} \cdot 25 \%}{100} = 17,5 \text{ ming so'm}.$$

Demak, tilla uzukning xarid narxi: $87,5 + 17,5 = 104$ ming so'm.

Aksiz solig'i stavkalari

Tovarlar	Aksiz solig'i QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	Bir o'lchov birligiga so'mlarda
1. Etil spirti (1 dal uchun)		1410
2.Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun) (1)		3000
3. Konyak, araq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1dal tayyor mahsulot uchun) (1)		11300
4.Tarkibida foizlarda hajmiy ulushda etil spiriti (alkogol) bor pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun) (1)		
4,5 gacha (bu miqdor ham hisobga olinadi)		1000
4,5 dan yuqori—6,0 gacha (bu miqdor ham hisobga olinadi)		1300
6,0 dan yuqori		2200
5. O'simlik (paxta) moyi (1 t uchun) (1)		
Oziq-ovqat yoki (saloma ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan moy va «O'zbekiston» moyidan tashqari)		495000
Texnik moy (oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		329000
6. Sigaretlar (1 ming dona uchun) (1):		
filtrli		5206
filtsiz papirosalar		1476
7. Zargarlik buyumlari	25	

8. Ishlab chiqarilgan avtomobillar (2)	29	
9. Kumushdan ishlandan oshxona anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar (2)		
11. Neft mahsulotlari:		
A-76, AI-80 benzini (1)		148000
AI-91, AI-92, AI-93 benzini (1 t uchun)		16300
AI-95 benzini (1 t uchun)		188000
Dizel yoqilg'isi (1 t uchun)		130000
Aviakerosin (1 t uchun)		18700
12. Tabiiy gaz (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmidan tashqari (2)	25	
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan («O'ZTRANSGAZ» AKning mintaqalararo unitar korxonalar tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport (2)	26	

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i SATVKALARI 2011-yilga nisbatan:

<ul style="list-style-type: none"> • alkogol mahsulotlari uchun 15 foizga; • pivo uchun 20 foizga; • o'simlik (paxta) moyi uchun 10 foizga; • sigaretlar uchun 20 foizga indeksatsiya qilindi.
<p>Alkogol mahsulotlarini ulgurji va chakana sotish narxlarining qat'iy minimal miqdorlari oshirildi.</p> <p>1 litr tayyor mahsulot uchun minimal narx quyidagicha belgilandi:</p> <p>* Ulgurji sotish narxlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • aroq va boshqa alkogol ichimliklarga — 5000 so'm; • vino uchun — 2200 so'm. <p>* Chakana narxlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • aroq va boshqa alkogol ichimliklarga — 6100 so'm; • vino uchun — 2700 so'm.

Soliqdan chegirma

Soliq kodeksining 236-moddasiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi ushbu moddada belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi. Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik ak-

siz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifati foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvaraƒ-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvaraƒ-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chakana savdo tarmog'ida sotiladigan, oltindan bo'lgan zargarlik buyumlarining 1 grammi uchun 10 AQSH dollariga teng miqdorda aksiz solig'i joriy etildi, bunda chakana savdo korxonalariga tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid qilingan oltindan bo'lgan zargarlik buyumlari bo'yicha to'langan aksiz solig'i summasini chegirish huquqi berildi.

Soliq davri

Soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Hisob-kitobni taqdim etish tartibi

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq to'lash tartibi

Ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Soliq kodeksining 236 va 237-moddalariga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o‘n kunligi uchun;

- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida import qiluvchi tomonidan to‘lanadi. Aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan import qilinadigan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i aksiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Aksiz solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
2. Aksiz solig‘ining obyekti nimalardan iborat?
3. Aksiz solig‘i stavkalari qanday tartibda belgilanadi?
4. Aksiz solig‘ini hisoblash tartibini tushuntiring.
5. Aksiz solig‘i bo‘yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. Aksiz solig‘i budjetga qanday muddatlarda to‘lanadi?

2.6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari hisoblanadi.

Aholi punktlarining suv ta‘minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o‘z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar.

Soliq solish obyekti. Yerusti va yerosti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir. Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv man-

balari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yerosti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Soliq solinadigan baza. Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi. Suv resurslarining yerusti va yerosti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lichagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Imtiyozlar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliقدan quyidagilar ozod qilinadi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

2) suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar va h.k. (Soliq kodeksining 261-moddasi).

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam oylik ish

haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunigacha;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kamini tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan — yilda bir marta hisobot davrining 15-dekabrigacha;

4) yakka tartibdagi tadbirkorlar — yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq solish tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni to'lovchilar tomonidan suvdan foydalanish joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari bundan mustasno.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs joriy yilning 15-yanvarigacha suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv yetkazib berish shartnomasiga muvofiq, har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar, qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno.

Masala. Sanoat korxonasi o'z faoliyatida bir chorak davomida 110 ming m³ suv ishlatgan. Foydalanilgan suvning 32 % ini yerosti manbayi suvlari, 68 % ini yer usti manbayi suvlari tashkil etgan.

Yerosti suv hajmining 12 % i sog'lomlashtirish markazi faoliyatida foydalaniladi. Korxonaning hisobot davri uchun suv resurslaridan foydalanganlik solig'ini hisoblang.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

To'lovchilar	1 m ³ uchun stavka (so'm)	
	yerusti suv resurslari manbalari	yerosti suv resurslari manbalari
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2—4-bandlarida ko'rsatilganlaridan tashqari)	35,8	45,5
2. Elektrostansiyalar	10,3	15,4
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	19,7	25,4
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	1,9	2,2

Yechim. Hisobot yilida qurilish korxonalariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 1 m³ yerusti manbayi suvlari uchun — 35,8 so'm, 1 m³ yerosti manbayi suvlari uchun — 45,5 so'm qilib belgilangan.

Yerusti manbalaridan olingan suvning hajmi:

$$110 \cdot 68:100=74,8 \text{ ming m}^3.$$

Yerosti manbalaridan olingan suvning hajmi:

$$110 \cdot 32:100=35,2 \text{ ming m}^3.$$

Soliqqa tortilmaydigan suv hajmi:

$$35,2 \cdot 12:100=4,224 \text{ ming m}^3.$$

Soliqning umumiy summasi quyidagicha hisoblanadi:

$$(74800 \cdot 35,8) + [(35200 - 4224) \cdot 45,5] = 2677840 + 1409408 = 4087248 \text{ so'm}.$$

STIR

varaқ 01

Hujjat turi 1 / Hisobot davri oy/choraқ Hisobot yili
(kerakligi tagiga chizilsin)

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliқ to'lovchi to'g'risida
MA'LUMOT**

Yuridik shaxsning to'liқ nomi _____
(yakka tadbirkor)

Xodimlar soni kishi

Mikrofirma Kichik korxonа Yirik korxonа Elektrostansiya

Kommunal xizmat ko'rsatish korxonasi Yakka tartibdagi tadbirkor

Yagona yer soliғi to'lashga o'tmagan (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)
qishloқ xo'jalik korxonasi

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvoohnoma

Yuridik shaxsning joylashgan manzili _____
(yakka tadbirkor)

Pochta manzili _____

Telefon: kod raqam

Ushbu hisob-kitob <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	varaқda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari	O'lchov birligi <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> Varaқda <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> so'm
---	--	--

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (k/o/y)

_____ ga taqdim etiladi
(davlat soliқ xizmati organi nomi)

Joylashgan joyi Yuridik shaxs Mustaqil balansga ega bo'lgan alohida bo'linma Obyekt

Norezidentning O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshiradigan joyi (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

Mazkur hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligini va ishonchligini tasdiqlayman	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar STIR F.I. Sh. Imzo	Ushbu hisob-kitob (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali
Bosh buxgalter STIR F.I. Sh. Imzo	
Sana (k/o/y)	<input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>
	Taqdim etilgan <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> sana (k/o/y) F.I. Sh. _____ Imzo _____

M.O'.

STIR varaq

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
HISOB-KITOB**

Ko'rsatkichlar	Satr kod	Jami	Yerusti manbalari	Yerosti manbalari
Soliq solinadigan baza (jami olingan suvning umumiy hajmi, m ³)	010	235	180	55
Soliq solinadigan bazani kamaytirish — suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobga ilovaning 010-satri	020			
Soliq solinadigan baza (010-satr —020-satr)	030	235	180	55
1 m ³ uchun belgilangan soliq stavkasi (so'm)	040		35,8	45,5
Budjetga to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi (030-satr · 040-satr)	050	8946,5	6444	2592,5
Oldingi hisobot davri hisob-kitobi bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun hisoblangan soliq summasi	060	3162,5	2162,5	1000
Qo'shimcha to'lashga	0740	5484	4281,5	
Kamaytirishga	080			1502,5

Rahbar _____
(imzo)

Bosh buxgalter _____
(imzo)

M.O'.



1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qanday yuridik shaxslar to'laydilar?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortiladigan obyektlar nimalardan iborat?
3. Suv manbalari turlarini tavsiflang.
4. Soliq stavkasi nimalarga qarab belgilanadi?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini va to'lash muddatlarini tushuntiring.

2.7. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan va (yoki) foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir. Ular quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan, texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;
- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Soliq solish obyekti. Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan, bepul berish, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va

boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot, deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq solinadigan baza. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqish uchun, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan—yilning har chog'ragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Soliq solinadigan obyekt	Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan % da
Asosiy va qo'shimcha va foydali qazilmalar qazib olinishi uchun	
Energiya manbalari:	
tabiiy gaz	30,0
yer ostidan qazib olingan gaz	2,6
nostabil gaz kondensati	20,0
neft	20,0
ko'mir	3,8
rangli va noyob metallar:	
tozalangan mis	8,1
molbdenli sanoat mahsuloti	1,3
konsentratlangan qo'rg'oshin	1,3
volfram konsentrati	10,4

Asil metallar:	
oltin	5,0
kumush	8,0
qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar (xomashyo)	24,0
Qora metallar:	
temir	3,9
Kon-kimyo xomashyosi:	
tosh tuz (ovqatga ishlatiladigan)	1,7
kaliy tuzi	0,4
natriy sulfat	0,4
fosforitlar (grafit)	4,8
karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,3
mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xomashyosi:	
plavik shpatli konsentrat	21,2
tabiiy grafit	7,8
ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
kvars-dala shpatli xomahyosi	6,5
shisha xomashyosi	1,8
bentonitli loy	4,8
talk va talk toshi	3,9
talkomagnetiz	3,9
mineral bo'yoqlar	5,7
vollostanit	3,9
asbest	3,9
mineral tola ishlab chiqarish uchun basalt	2,3
bariy konsentrati	2,0
Metallurgiya uchun ruda xomashyo:	
o'tga chidamli qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	3,3
ohaktoshlar, dolomitlar	3,9

Masala. Hisobot davrida korxonada qazib olingan ko'mir miqdori 125 tonnani tashkil etadi, 1 tonna ko'mirning tannarxi 86 ming so'm. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblang.

Yechimi. 2011-yilda ko'mir uchun yer ostidan foydalanganlik soliq stavkasi 3,8 %.

Soliq summasi quyidagicha hisoblanadi:

125 tonna 86 ming so'm 3,8 % =408,5 ming so'm.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaqa

0	1
---	---

Hujjat turi 1 / Hisobot davri: oy yoki chorak Soliq davri

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq HISOB-KITOB

Tayyor mahsulotlar	Soliq solinadigan baza (hisob-kitob ilovasining 090-satri)	Soliq stavkasi, %	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun hisoblangan soliq summasi	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning oldingi hisobot davri hisob-kitobida hisoblangan soliq summasi (oldingi hisob-kitobning 040-satri)	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi (040-satr — 050-satr)	
					qo'shimcha to'lashga	kamaytirishga
010	020	030	040	050	060	070
Ko'mir	26000000	3,8	988000		988000	
Jami:	26000000	3,8	988000		988000	

116

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

STIR varaqa

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi
guvohnoma

Yuridik manzili _____

Pochta manzili _____

Telefon: kod raqam Geologik tadqiqotlar uchastkasidan foydali qazilmalarni
qazib olish huquqini beruvchi litsenziya Hisob-kitobni taqdim etish muddati (k/o/y) _____ ga taqdim etiladi.
(hisobda turuvchi davlat soliq xizmati organi nomi)**Tijoratbop topilma bonusi****HISOB-KITOBI**

Foydali qazilma	Qazib olinayotgan zaxiralarning tasdiqlangan hajmi	Birja bahosi (aniqlangan bahosi), so'm	Soliq solish bazasi, so'm	Tijoratbop topilma bonusi stavkasi	Tijoratbop topilma bonusi summasi, so'm
Oltin	1516 g	22740000	22740000	25	5685000
Kumush	3759 g	3759000	3759000	20	751800

Ushbu hisob-kitob varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari varaqda O'lchov birligi so'm



1. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
2. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiga nimalar kiradi?
3. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq stavkalari qanday tartibda belgilanadi?
4. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
5. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq qanday muddatlarda budjetga to'lanadi?

2.8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Soliq to'lovchilar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir. O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati Soliq kodeksining 20-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyektini

Quyidagi mol-mulk soliq solish obyektidir:

- 1) asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;
- 2) nomoddiy aktivlar;

3) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga qurilishi shu obyekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda nihoyasiga yetkazilmagan obyektlar kiradi;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha—asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq kodeksining 266-moddasi ikkinchi qismi uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko'rsatilgan ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Soliq solinadigan bazani belgilash tartibi

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oying oxirgi kunidagi holatga ko'ra, soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Imtiyozlar. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

1) uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarining. Uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, ichimlik suvi tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), oqova suvi tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan, asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san‘at, xalq ta‘limi, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta‘minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlari va h.k. (Soliq kodeksining 268-moddasi).

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan Soliq kodeksining 267-moddasi birinchi qismiga muvofiq, hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to‘lovchilar har oyda joriy to‘lovlarni to‘laydilar, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Joriy to‘lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o‘rtacha yillik qiymatdan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqish uchun soliq to‘lovchi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma‘lumotnomani joriy yilning 20-yanvarigacha taqdim etadi. Budjetga joriy to‘lovlarni to‘lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari

bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

To'lanishi lozim bo'lgan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay budgetga o'tkaziladi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi kerak.

Soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq quyidagicha hisoblanadi:

$$S_s = \frac{M_{o'q} A}{100},$$

bu yerda, S_s —soliq summasi; $M_{o'q}$ — mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati; A —soliq stavkasi.

Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati ($M_{o'q}$) quyidagicha hisoblanadi:

O'rtacha yillik qoldiq qiymat =

$$\frac{1\text{-yanv.}/2 + 1\text{-fev.} + \dots + 1\text{-dek.} + 1\text{-yanv.}/2}{12}$$

Masala. Hisobot yilining 1-yanvar holatiga korxonaning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan. 23-yanvarda 680 ming so'mga kompyuter, 25-martda esa 220 ming so'mga printer sotib olingan. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan texnologik qurilmalarning qiymati — 1860 ming so'm. Korxonaning balansidagi sog'lomlashtirish markazi ixtiyoridagi mol-mulkning qoldiq qiymati 165 ming so'm bo'lgan, 27-sentabrda tashxis qo'yish jihozi sotib olingan. Hisobot yilida budgetga to'lanadigan mol-mulk solig'i hisoblansin.

Yechim. Soliq kodeksining 268-moddasiga asosan, 23-yanvarda olingan kompyuter uchun fevral oyidan, printer uchun aprel oyidan boshlab eskirish hisoblanadi.

Masalan,

1) yanvar oyi uchun: 958 ming so‘m 20 (eskirish me‘yori)
100 = 191,6 ming so‘m.

2) mol-mulkning qoldiq qiymatini aniqlash: 958 + 120—
191,6 = 886,4 ming so‘m;

3) mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatini quyidagicha hisoblaymiz:

O‘rtacha yillik qoldiq qiymat =

$$\frac{1\text{-yanv.}/2 + 1\text{-fev.} + \dots + 1\text{-dek.} + 1\text{-yanv.}/2}{12} = \infty$$
$$= \frac{0,5 \cdot 721,4 + 1265,4 + 1265,4 + 1475,4 \cdot 6 + 1367,4 \cdot 3 + 0,5 \cdot 1367,4}{12} =$$
$$= \frac{16529,8}{12} = 137,48 \text{ ming so‘m.}$$

4) Mol-mulk solig‘i summasi:

$$S_s = \frac{M_{o'q} A}{100} = \frac{1377,48 \cdot 3,5}{100} = 48,2 \text{ ming so‘m.}$$

5) Me‘yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan mol-mulk solig‘i summasi:

$$S_s = \frac{M_{o'q} A}{100} = \frac{1860,7}{100} = 130,2 \text{ ming so‘m.}$$

6) Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk solig‘i summasi:

$$42,1 + 130,2 = 178,41 \text{ ming so‘m.}$$



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qaysi yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini to‘laydilar?
2. Mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?
3. Mol-mulk solig‘i stavkalarini izohlang.
4. Mol-mulk solig‘ini to‘lash tartibi qanday?

**Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash uchun mol-mulkning o'rtacha yillik
qoldiq qiymati hisob-kitobi**

(ming som)

T/r	Balans moddalari	Balans satri kodi	Balans moddalari bo'yicha qoldiqlar												
			01.01	01.02	01.03	01.04	01.05	01.06	01.07	01.08	01.09	01.10	01.11	01.12	01.01
1.	Asosiy vositalar	010	958	1638	1638	1858	1858	1858	1858	1858	1858	1858	1858	1858	1858
2.	Nomoddiy aktivlar	020	120	120	120	154	154	154	154	154	154	154	154	154	154
3.	Asosiy vositalarning eskirishi	010 021	191,6	327,6	327,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6	371,6
4.	Jami mol-mulkning qoldiq qiymati	012 022	886,4	1430,4	1430,6	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4	1640,4
5.	Soliq solinadigan bazadan chiqariladigan mol-mulkning qoldiq qiymati		165	165	165	165	165	165	165	165	165	273	273	273	273
6.	Hisobot davri uchun soliq solinadigan mol-mulkning qoldiq qiymati		721,4	1265,4	1265,4	1475,4	1475,4	1475,4	1475,4	1475,4	1475,4	1367,4	1367,4	1367,4	1367,4

STIR varaqa 01Hujjat turi 1 / Hisobot davri oy/chorak Soliq davri

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchisi to'g'risida
MA'LUMOT**

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Xodimlar soni kishi XXTUT kodi Mikrofirma Kichik korxonalar Yirik korxonalar (kerakligiga «V» belgi qo'yilsin)Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma Yuridik shaxsning joylashgan manzili _____
Pochta manzili _____Telefon: kod raqami Ushbu hisob-kitob varaqda tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularning nusxalari varaqda O'lchov birligi so'mHisob-kitobni taqdim etish muddati (k/o/y) _____ga taqdim etiladi.
(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi nomi)

Mazkur hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligini va ishonchliligini tasdiqlayman	Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar STIR <input type="text"/>	Ushbu hisob-kitob (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin) <input type="checkbox"/> qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishda <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali <input type="checkbox"/> elektron pochta orqali <input type="text"/> varaqda taqdim etildi
F.I. Sh. _____ Imzo _____	
Bosh buxgalter STIR <input type="text"/>	
F.I. Sh. _____ Imzo _____	
Sana (k/o/y) <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>	Taqdim etilgan <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> sana (k/o/y)
	F.I. Sh. _____ Imzo _____

M.O'.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodlari	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar)ning va soliq solinadigan nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 070-satri	010	1504141
Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi — yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 4-ilovaning 010-satri	020	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan baza (010-satr—020-satr)	030	1504141
Belgilangan soliq stavkasi, %	040	3,5
Tuzatilgan stavka, %—yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 6-ilovaning 060-satri	050	3,5
Soliq summasi (030-satr 040-satr yoki 050-satr)	060	52645
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 080-satri	070	
Soliq stavkasi, % da	080	
Soliq summasi (070-satr 080-satr)	090	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 090-satri	100	
Soliq stavkasi, % da	110	
Soliq summasi (100-satr 110-satr)	120	
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi (060-satr + 090-satr + 120-satr)	130	52645
O'tgan hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	140	35097
Qo'shimcha to'lashga	150	17548
Kamaytirishga	160	

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

M.O'.

2.9. Yuridik shaxslarning yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartibi

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

Yer uchastkalaridan foydalanlik uchun budgetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan Yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqli hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqli to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

Soliq to'lovchilar. Mulq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir. Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalanilgan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Soliq solish obyekt. Mulq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

Quyidagilarga soliq solish obyekt sifatida qaralmaydi:

- aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar.

Soliq solinadigan baza. Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Imtiyozlar. Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muho-faza qilish tashkilotlari — o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun va h.k. (Soliq kodeksining 282-moddasi).

**Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i
STAVKALARI
(2012-yil uchun)**

Zona	Undiriladigan yer solig'i stavkalari	
	Yuridikshaxslardan 1 ga uchun, so'mlarda	Fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun belgilangan 1 m ² yer uchun, so'm
1	9423127	92,9
2	11322916	117,9
3	18239488	142,9
4	25156060	167,9
5	32072631	192,9
6	38989203	217,9
7	45905775	242,9
8	52822347	267,9
9	59738919	292,9
10	66655490	317,9
11	73752062	342,9
12	80488634	367,9
13	87405206	392,9
14	94321777	417,9

*Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini
taqdim etish tartibi*

Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqish Soliq kodeksining 281-moddasiga muvofiq, hisoblab chiqilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida yuridik shaxslarda yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, ulardan foydalanish huquqi yoki ijara huquqi vujudga kelganida (bekor qilinganda), shuningdek, ular foydalanayotgan yer maydoni ko'paygan (kamaygan) yoki yer solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) taqdirda, yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini yer uchastkasi ajratilgan (olib qo'yilgan) yoki imtiyoz huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) kundan e'tiboran bir oylik muddatdan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi. Oldingi tahrirda yer uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish uchun javobgarlik choralari qo'llanilmagan.

Masala. Sanoat korxonasi Toshkent shahrining Sirg'ali tumanida, ya'ni birinchi zonada joylashgan bo'lib, umumiy yer maydoni 7,6 ga, shundan 1,2 ga me'yordan ortiq yer maydoni. Hisobot davrida budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang. Toshkent shahridagi 1-zonada joylashgan yer maydoniga yer solig'i stavkasi 9423127 so'm:

$$S_s = S_{yer} H k,$$

bu yerda, S_s —yer solig'i summasi; S_{yer} —yer maydoni; H —yer solig'i stavkasi; k —koeffitsiyent.

$$\begin{aligned} \text{Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'i summasi} = \\ (7,6 - 1,2) \cdot 9423127 + (1,2 \cdot 9423127 \cdot 2) = 60244012,8 + \\ + 22615504,8 = 83859517,6 \text{ so'm.} \end{aligned}$$

STIR

varaqa 01

Hujjat turi 1 /

Joriy soliq davri

Hujjat turi: 1—hisob-kitob, 2—qayta hisob-kitob (kasr orqali qayta hisob-kitobning raqami)

**Yer solig'i to'lovchi yuridik shaxs to'g'risida
MA'LUMOT**

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Xodimlar soni kishi XXTUT kodi

Mikrofirma Kichik korxonasi Yirik korxonasi

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonasi

Faoliyatini doimiy muassasada amalga oshiruvchi norezident

Faoliyatini doimiy bo'lmagan muassasada amalga oshiruvchi norezident

(kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

Yer uchastkalarining soni: hisobda turgan hududda

boshqa tumanda

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma

Yuridik shaxsning joylashgan manzili _____

Pochta manzili _____

Telefon: kod raqami

Ushbu hisob- kitob <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	varaqa tuzilgan, unga ilova qilingan tasdiqlovchi hujjat- lar yoki ularning nusxalari <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/>	O'lchov birligi varaqa <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> so'm
---	--	---

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (k/o/y)

ga taqdim etiladi.

(davlat soliq xizmati organining nomi)

Joylashgan joyi Yuridik shaxsning bo'yicha: Mustaqil balansga ega bo'lgan alo- Obyektning

hida bo'linmaning

Doimiy muassasa joylashgan va (yoki) faoliyat amalga oshirayotgan joyining (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)

**Joriy soliq davrining 1-yanvardagi holat bo'yicha qishloq xo'jaligi ahamiyatiga
molik bo'lmagan yerlar uchun to'lanadigan yer solig'i
HISOB-KITOBI**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'l- chov birligi	Yer may-doni	Summa
Yer uchastkasining umumiy maydoni – mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 3-ustuni yoki 020-satr 3-ustuni	010	ga	4,86	x
Soliq solinmaydigan yer maydoni– mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 4-ustuni yoki 020-satr 4-ustuni	020	ga	0,73	x
Soliq solinadigan baza–mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 5-ustuni yoki 020-satr 5-ustuni	030	ga	4,13	x
Yil uchun budjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi–mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 7-ustuni yoki 020-satr 7-ustuni	040	so'm	x	38917515,4
shu jumladan:				
I chorak uchun — 15-fevralgacha	0401	so'm	x	9729378,8
II chorak uchun — 15-maygacha	0402	so'm	x	9729378,8
III chorak uchun — 15-avgustgacha	0403	so'm	x	9729378,8
IV chorak uchun — 15-noyabrgacha	0404	so'm	x	9729378,8

Rahbar _____

(imzo)

Bosh buxgalter _____

(imzo)



NAZORAT SAVOLLARI

1. Yer fondi yerlari foydalanish maqsadiga ko'ra qanday toifalarga bo'linadi?
2. Qanday yuridik shaxslar yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi?
3. Qanday yer uchastkalari yer solig'i obyektlari hisoblanadi?
4. Yer solig'i stavkalari necha turga bo'linadi?
5. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar qanday guruhlarga bo'linadi?
6. Yer solig'i to'lash muddatlari.

2.10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchilar

Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi Soliq kodeksining 362-moddasi ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq, faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Soliq kodeksining 362-moddasi ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq kodeksining 350-moddasi birinchi qismiga muvofiq, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun Soliq kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq daromadlar sifatida qaraladi hamda ularga soliq solinmaydi, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Soliq solish obyekt. Qonun hujjatlariga muvofiq, qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir.

Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. Yer uchastkalarining normativ qiymati belgilanmagan qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchilari uchun soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalarini uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda, soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Imtiyozlar. Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

Soliq kodeksining 362-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi.

Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran, ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar—yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeksining 282-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Soliq davri. Kalendar yil soliq davridir.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Yagona yer solig'i summasi soliq solinadigan bazaga qarab:

- yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan;
- yer uchastkalarining maydonidan, yer uchastkasi joylashgan yer va yer uchastkasining sifat tavsifini (bonitet balini) nazarda

tuzatish koeffitsiyenti e'tiborga olingan holda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek, yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha—yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

Yagona yer solig'ini hisoblash tartibi

Yagona yer solig'ini to'lovchilar mustaqil ravishda, yer mulklari, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi ifoda bo'yicha belgilanadi:

$$S = S_{yeU} \cdot S_s \cdot K_T,$$

bu yerda, S — yagona yer solig'i summasi, so'mlarda; S_{yeU} — yer uchastkasi maydoni; S_s — soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mlarda; K_T — tuzatish koeffitsiyenti.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifati (ball-bonitet)ga bog'liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga tuzatiladi.

Ball-bonitet — bu yerning sifatini qatlamining unumdorligini, joylashgan joyini, suv bilan ta'minlanganligini va yo'l qatnoviga qulay joylashganligini hisobga olgan holdagi bahosi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun qishloq xo'jaligi yerlarining normativ me'yoriy qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig'i stavkasi 2012-yilda 6 % ni tashkil etdi.



1. Yagona yer solig'i to'lovchilarini tavsiflang.
2. Yagona yer solig'ini hisoblash xususiyatlari nimalarda o'z ifodasini topadi?
3. Yagona yer solig'ining stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlarini izohlang, yagona yer solig'ining stavkalari qanday?
4. Yagona yer solig'ini budjetga to'lash tartibi va muddatlari qanday?

2.11. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1-oktabrdan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Alohida-alohida hisob yuritish

Ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, turli soliq solish obyektlari va (yoki) yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. Bunda Soliq kodeksining 355-moddasi, ikkinchi qismi, 2-bandida ko'rsatilgan daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Soliq solish obyekti

Yalpi tushum soliq solish obyektidir. Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- tovar (ish, xizmat)larni qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:


• qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun — tovar oboroti.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining

STAVKALARI

(2012-yil uchun)

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, % da
1	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	Ulardan:	
	Umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2	Chakana savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari):	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida borish qiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda joylashgan	4 2 1
3	Ulgurji savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4	Ulgurji va chakana tashkilotlari: aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda joylashgan	2 1
5	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari) plastik kartochkalarini qo'llagan holda haqi to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 10 % ga pasaytiriladi



Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi

(shartli misol)

Ko'rsatkichlar	Satr kodlari	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'g'risida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)							
			Savdo-1 (as.faoliyat)			ish. chiq.	Lot. t.q.-3	Bro-ker.-4	5	6
Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirilgan holdagi tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushum	010	19400	5000	2000	1000	4400	4000	3000		
Shu jumladan:										
O'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni erkin almash-tiradigan valutaga eksportdan, shu jumladan:	0101	4000	x	x	x	4000	x	x		
Stavkani tuzatishda hisobga olingan o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni erkin almashtirilgan valuta eksportidan	01011	3000	x	x	x	3000	x	x		
Plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlardan	0102	3000	2000	1000	0	x	0	0		
Faoliyat turlari bo'yicha tushumining tovar (ish, xizmat)larning realizatsiyasidan jami tushumdan salmog'i, foizda	0103	100	41,2			22,7	20,6	15,5		
O'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni erkin almash-tiradigan valutaga eksportdan tushumni tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushumidagi salmog'i, foizda (01011-satr/010-satr)	0104	15,5	x	x	x	15,5	x	x		
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (05-varaqning 010-satri)	020	3320	3320	x	x	x	x	x	x	x
Moliyaviy faoliyatdan daromadlar (06-varaqning 010-satri)	030	3000	3000	x	x	x	x	x	x	x



Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Shu jumladan, yagona soliq to'lovi to'lovchisi to'grisida ma'lumotda ko'rsatilgan faoliyat turlari bo'yicha (01-varaq)							
			Savdo-1 (as.faoliyat)		ish. chiq.	Lot. t.q.-3	Bro-ker.—4	5	6	
Favqulodda daromadlar	040	0	0	x	x	x	x	x	x	x
Yalpi tushum (010-satr+020-satr+030-satr+040-satr)	050	25770	11320	2000	1000	4400	4000	3000	x	x
Yalpi tushumdan chiqarib tashlanadigan summalar (07-varaqning 010-satri)	060	7630	6000	x	x	0	1600	30		
Soliq solish bazasi (050-satr-060-satr)	070	18090	5320	2000	1000	4400	2400	2970		
Yagona soliq to'lovining belgilangan stavkasi	080		5 %	3 %	1 %	10 %	33 %	33 %		
O'zi ishlab chiqargan tovar (ish va xizmat)larni erkin almashtiradigan valutaga eksport qilishdan tushumga soliq solish uchun yagona soliq to'lovchining tuzatilgan stavkasi	090	x	5 %	2,7 %	1 %	7 %	33 %	33 %		
Plastik kartochkalar qo'llanib ko'rsatilgan xizmatlarni tushumiga soliq solish uchun yagona soliq to'lovining tuzatilgan stavkasi [090-satr-090-satr · 10 %)	100	x	4,5 %	57	0,99 %	x	x	x		
Yagona soliq to'lovining summasi-jami (1101-satr+1102-satr)	110	2403,1	256	27	10	308	792	980,1		
Plastik kartochkalar qo'llashdan tushum qismida (0102-satr-100-satr)	1101	117	90	30	0	0	0	0	x	x
Boshqa tushum bo'yicha [(070-satr-0102-satr)·090-satr]	1102	2286,1	166	30	10	308	791	980,1		
Budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi	120	1400	x	x	x	x	x	x	x	x

Soliq solinadigan bazani aniqlash va yalpi tushumga tuzatish kiritish

Soliq solinadigan baza. Soliқ kodeksining 355-moddasiga muvofiq, quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliқ solinadigan bazadir:

- 1) qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbayida soliқ solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar.

Soliqlardan imtiyozlar. Yagona soliқ to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniý» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Yagona soliқ to'lovini hisoblab chiqarish, uning hisob-kitoblarini taqdim etish va uni to'lash tartibi

Yagona soliқ to'lovi soliқ solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat soliғ'i to'lovchilar uchun yagona soliқ to'lovi summasi budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat soliғ'i summasiga, lekin yagona soliқ to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi. Qo'shilgan qiymat soliғ'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliқ to'lovi summasini qo'shilgan qiymat soliғ'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliқ to'lovining hisob-kitobi soliқ bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliқ xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.




NAZORAT SAVOLLARI

1. «Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi» iqtisodiy mohiyati qanday?
2. Yagona soliq to'lovchilarni aniqlash mezonlari qanday?
3. Yalpi tushum va yalpi daromad tushunchalarini izohlang.
4. Yalpi daromad solig'ini hisoblash tartibi qanday?
5. Yagona soliqni to'lash tartibi va muddatlarini ko'rsating.
6. Qanday sabablarga ko'ra yagona soliq joriy qilinadi?

2.12. Obodonlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida»gi 453-sonli va «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlari to'g'risida»gi 490-sonli qarorlariga muvofiq, ishlab chiqilgan va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish hamda budjetga to'lash mexanizmini belgilaydi.

To'lovchilar. Yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.



Soliq kodeksi bilan ko'zda tutilgan maxsus soliqqa tortish tartibi qo'llaniladigan yuridik shaxslar ushbu soliqni to'lovchilar qatoriga kirmaydilar:

- yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari;

- faoliyatning asosiy turi bo'yicha yalpi daromad solig'ini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- qat'iy soliq belgilangan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarinigina amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- lotereyalar, totalizatorlar va boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar — asosiy faoliyat bo'yicha.

Soliq solish obyekt. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining obyekt — foyda hamda hamma soliqlar to'lab bo'lgandan keyingi qoladigan sof foyda.

Barcha soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda —sof foyda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish obyekt hisoblanadi.

Soliq stavkasi

Tabaqalashtirilgan stavkalarni belgilash uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

a) Vazirlar Mahkamasining «Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida»gi 453-sonli qarorining 1—3-illovalariga binoan, budjetdan moliyalashning hissidan kelib chiqib, topshirilayotgan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish xarajatlari summasi;

b) o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlarini amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq solish bazasini, u quyidagi ifodaga ko'ra belgilanadi:

$$S_f + X_{is} + S,$$

bu yerda, S_f — barcha soliqlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (sof foyda); X_{is} — o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy sohani tutib turish xarajatlari; S — foyda solig'ining hisob-kitob qilingan summasi, u daromad (foyda) solig'ining belgilangan stavkasidan va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari summasidan kelib chiqib hisoblanadi ($X_{is} \cdot$ foyda solig'i stavkasi 100);

d) mazkur bandning «b» kichik bandiga muvofiq hisob-kitob qilingan soliq solish bazasidan kelib chiqib mazkur mintaqa uchun belgilangan stavka bo'yicha obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini.

Soliq stavkasi davlat hukumati organlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatilgan soliq stavkasidan oshmasligi kerak.

Masalan. Joriy davr ichida bolalar bog'chasini saqlab turish uchun korxonadan qilingan xarajatlar 2100 ming so'mni tashkil etgan.

Soliq to'lagunga qadar foyda — 14500 ming so'm.

Hisoblangan (foyda) solig'i (9 % stavka qo'llanilganda) 14500 ming so'mni tashkil etgan:

$$(14500 \cdot 9 \%): 100 = 1305 \text{ ming so'm.}$$

Foyda solig'i to'langandan keyingi foydasi —

$$(14500 - 1305) = 13195 \text{ ming so'm.}$$

Undan so'ng korxonadan bolalar bog'chasini saqlash uchun sarflangan xarajati hisobiga foyda solig'i qancha summaga qisqarganligini aniqlaymiz:

$$2100 \cdot 10 \% \quad 100 = 210 \text{ ming so'm.}$$

Agar korxonadan balansida bolalar bog'chasi bo'lmagan taqdirda to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini aniqlaymiz:

13050 ming so'm (foyda solig'i to'langandan keyingi foyda) + 2100 ming so'm (bolalar bog'chasi uchun ketgan xarajat) + 210 ming so'm (ushbu xarajatlar to'g'ri keladigan foyda solig'i) = 15360 ming so'm.

Agarda, korxonadan balansida bolalar bog'chasi bo'lmagan taqdirda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliqqa tortish bazasi shu summaga teng bo'lar edi. Bunday holatda soliq summasi: $8 \% \cdot 5385 = 430,8$ ming so'mni tashkil etgan bo'lar edi ($(15360 \cdot 8 \%) \quad 100 = 1228,8$ ming so'm).

Ya'ni korxonaga budjetga 430,8 ming so'm to'lardi. Ammo ijtimoiy sohaga qarashli bo'lgan obyektning saqlab turish haqiqatda ketgan xarajatlar ushbu summadan ancha ko'p bo'lib, 2100 ming so'mni tashkil etadi, demak, ushbu korxonaga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi.

Agarda, hisoblangan soliq summasi 2100 ming so'mdan ko'p bo'lganda edi, u holda korxonaga ular orasidagi farqni Davlat budjetiga to'lagan bo'lar edi.

Soliq bo'yicha quyidagi buxgalteriya hisobi yuritiladi:

Soliq hisoblanganda

9810-debet — «Foydadan hisoblangan va to'langan soliqlar»;
6410-kredit — «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik».

Mazkur soliq budjetga to'langanda

6410-debet — «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik»;
5110-kredit — «Hisob-kitob schoti» hisobvarag'i.

Masala

Hisobot davrida korxonaning sof foydasi 2870 ming so'mni tashkil etsa, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i qanday miqdorda to'lanadi?

Masala yechimi

$$S_s = (2870 \text{ ming so'm} \cdot 8 \%) \cdot 100 = 229,6 \text{ ming so'm.}$$

Mustaqil yechish uchun masala

Korxonani ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatish va savdosotiq faoliyati bilan shug'ullanadi. Joriy davrda realizatsiyadan tushgan sof tushum quyidagini tashkil etdi: ishlab chiqarish mahsulotlarini sotishdan — 88400 ming so'm, ta'mirlash bo'yicha xizmatlardan — 36500 ming so'm, tovarlarni sotishdan — 38400 ming so'm. Joriy davr uchun xarajatlar summasi: «Ishlab chiqarish» — 39800 ming so'm, «Davri xarajatlari» hisobvarag'ida — 15600 ming so'm; keltirilgan summalar hisoblangan soliq va majburiy to'lovlarni chegirgan holda berilgan.

**Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish
solig'ining hisob-kitobi**

(ming so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
1	Budjetdan moliyalashning belgilangan hissasidan kelib chiqib, topshirilayotgan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish xarajatlari	
2	Soliq solinadigan baza — jami	2870
	shu jumladan:	
	a) barcha soliqlar to'langandan so'ng korxonalar tasarrufida qoladigan foyda	2870
	b) o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy infratuzilma obyektlarini tutib turish xarajatlari (1-satr)	
	d) belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblangan foyda solig'ining hisob-kitob qilingan summasi (6-satr soliq stavkasi) 100*	
3	Belgilangan soliq stavkasi (% da)	8
4	Belgilangan stavka bo'yicha hisoblangan soliq summasi (2-satr 3-satr)	229,6
5	Budjetga to'lanadigan soliq summasi (4-satr — 1-satr)	229,6
6	Hisoblangan (jamlangan) soliq stavkasi (5-satr 2-satr) 100 (% da)	
7	Budjetga hisoblab yozildi	229,6
8	Qo'shimcha qilib yozishga	
9	Kamaytirishga	
*Agarda, xarajatlar (1-satr) soliq summasidan ko'p bo'lsa (4-satr), u holda korxonada obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi.		

Barcha umumdavlat va mahalliy soliqlarni to'lovchi yuridik shaxsda foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi 490 ming so'mni tashkil etadi. Korxonada hech qanday imtiyozlarga ega emas. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblang.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash va to'lash tartibining xususiyatlari nimalarda o'z ifodasini topadi?
2. O'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlarini amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq solish bazasini hisoblash tartibi qanday?

2.13. Mahalliy soliqlar va yig'implarni hisoblash hamda to'lash tartibi

Soliq kodeksi va «Mahalliy soliqlar va yig'implarni hisoblash hamda budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaga muvofiq, mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

- a) mol-mulk solig'i;
- b) yer solig'i;
- d) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish solig'i;
- e) transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq;
- f) savdo-sotiq huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim tovar turlari bilan savdo qilish huquqiga litsenzion yig'implar;
- g) yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im.

Avtotransportni qisqa muddatga saqlash uchun to'xtash joylaridan belgilangan soliq undirilishi 2002-yil 1-yanvardan boshlab, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan hamda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslarga (budjetdagi tashkilotlardan tashqari) birlashtirib qo'yilgan hududda joylashgan barcha avtotransportni qisqa muddatga saqlash uchun pulli to'xtash joylariga joriy etildi.

Mahalliy soliqlardan mol-mulk va yer soliqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi. Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi alohida yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi.

Qolgan mahalliy soliqlar va yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi, ushbu soliqlar va yig'implar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'implarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Joylardagi davlat hokimiyati mahalliy organlar tomonidan joriy etiladigan mahalliy yig'imlar savdo-sotiq huquqi uchun yig'im, shu jumladan, tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'imlar

Savdo-sotiq huquqi uchun yig'im va tovarlarning ayrim turlarini, shu jumladan, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'im to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda savdo-sotiqni amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolli mahsulotlar sotishdan tashqari) va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yig'im savdo-sotiqni amalga oshirish huquqi uchun to'lanadi. Savdo-sotiq huquqi ruxsatnoma bilan tasdiqlanadi. Tovarlarning ayrim turlari, shu jumladan, alkogolli va tamaki mahsulotining huquqi uchun litsenzion yig'im alohida to'lanadi.

Savdo-sotiq huquqiga ruxsat guvohnomasi ariza beruvchi (yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor)ning arizasida ko'rsatilgan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan muddatidan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi (ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun — 3 yil, chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun — 2 yil).

Savdo-sotiq huquqiga ruxsat guvohnomasi joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladi. Ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar tomonidan yig'im har oyda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joylar bo'yicha to'lanadi. Chakana savdo bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, yig'im har oyda, har bir savdo shoxobchasi uchun savdo faoliyatini amalga oshirish joyi. Yig'imlarni undirish tasdiqlangan stavkalarda shu kun uchun belgilangan minimal ish haqining belgilangan karrali qiymatiga qo'llanilgan holda undiriladi.

Yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im

To'lovchilar bo'lib:

- yangi barpo etilayotgan yuridik shaxslar;
- yuridik shaxsni tashkil etmasdan O'zbekiston hududida ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyati turlari bilan shug'ullanish xohishini bildirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Yangi barpo etilayotgan yuridik shaxs uchun yig'imni ularning muassislari (yuridik va jismoniy shaxslar) to'lashi mumkin. Yig'im yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahalliy budjetga bank muassasalari orqali to'lanadi.

Davlat mol-mulki negizida barpo etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, dehqon xo'jaliklari mazkur yig'imni to'lashdan ozod etiladilar.

Toshkent shahri hokimining qaroriga asosan, 1998-yil 1-iyuldan boshlab, aholiga xizmat ko'rsatuvchi va tovar ishlab chiqaruvchi yangi tuzilayotgan korxonalar bir yil muddatga quyidagi mahalliy soliqlar va yig'imlar to'lashdan ozod etiladi:

a) yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'imdan;

b) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish uchun soliqdan.

2012-yil uchun yig'imning eng yuqori stavkasi eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida belgilangan.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar STAVKALARI

T/r	Soliq va yig'imlar turlari	Chegaralangan stavkalar
1	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	Sof foydaning 8 % i
2	Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi Transport vositalari uchun	1 litr uchun 200 so'm 1 kg uchun 200 so'm
3	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish uchun yig'im	
	Alkogolli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqining 5 baravari
	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqining 3,5 baravari
4	Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im	1 oy uchun eng kam oylik ish haqining 8 baravari



1. Mahalliy soliqlar va yig'imglar tarkibini sanab o'ting.
2. Mahalliy soliqlar va yig'imglar miqdori qaysi organ tomonidan belgilanadi?
3. Savdo-sotiq huquq uchun yig'im to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Mahalliy yig'imglar stavkalari qanday miqdorda belgilangan?

2.14. Qat'iy soliq belgilangan alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni soliqqa tortish

Bunday toifadagi shaxslarni soliqqa tortish alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun «Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilar

Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari bo'lib quyidagi sohalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadilar:

- bilyard o'ynash xonalari xizmatlari;
- avtotransportni qisqa muddatga saqlash xizmatlari ko'rsatish (yuridik shaxslar);
- bolalar o'yin avtomatlari;
- o'yin avtomatlari tashkil etish, shu jumladan, pul (buyum) yutuqli tavakkalchilikka asoslangan o'yin avtomatlari bo'yicha faoliyat.

Ushbu turdagi qat'iy belgilangan soliq to'lovchilariga boshqa tizimga taalluqli bo'lgan soliqqa tortish tizimiga o'tish huquqi berilmagan.

Soliq solish obyekti

Qat'iy belgilangan soliq solish obyekti bo'lib, daromad olish bilan bog'liq bo'lgan, faoliyatning aniq turini tavsiflaydigan tabiiy ko'rsatkichlar: jihozlangan joylar soni, band qilingan maydon hisoblanadi. Masalan, tadbirkorlik subyekti 4 ta bolalar o'yin avtomatiga va 2 ta yutuqli o'yin avtomatlariga ega. Bunda har bir jihozlangan joy soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan sohalarda faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, arizani soliqni to'lash bo'yicha belgilangan muddatgacha taqdim qilish orqali qat'iy belgilangan soliq to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tkaziladigan joydagi davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishlari shart. Ushbu arizaga soliq summasining hisob-kitobi quyida keltirilgan ilovaga muvofiq taqdim etilishi lozim.

Soliq stavkalarini

Qat'iy belgilangan soliq bazaviy stavkalarining miqdorlari, tabiiy ko'rsatkichlar, shuningdek, bazaviy ko'rsatkichlarga nisbatan qo'llaniladigan ko'rsatkichlar koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi tomonidan belgilanadi.

10-jadval

Tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarini

T/r	Faoliyat turi	Soliq to'lovchilari	Faoliyat turini xarakterlovchi tabiiy ko'rsatkichlar*	Bitta tabiiy ko'rsatkichga nisbatan oylik qat'iy belgilangan soliqning stavkasi (karrali eng kam oylik haqiga nisbatan)**		
				Toshkent sh.	Viloyatlardagi shaharlar	Tumanlar, bunga qishloqlar ham kiradi
1.	Qisqa muddatli avtotransport vositalarini saqlash	Yuridik shaxslar	Egallagan maydoni (1 m ²)	0,1	0,09	0,06
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan joylar soni (birlik)	3,0	2,0	1,0
3.	O'yin avtomatlarini, shu jumladan, pul (buyum), yutuqli tavakkalchilikka asoslangan o'yin avtomatlari zalini tashkil etish	Yuridik shaxslar	Jihozlangan joylar soni, stollar (birlik)	35,0	35,0	35,0
4.	Bilyard o'yinlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan joylar soni, stollar (birlik)	14,0	12,0	10,0

*Agarda, taqdim etilgan qat'iy soliq bo'yicha hisob-kitoblarda, hisobga kiritilmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlansa, u holda bunday holat soliqqa tortish obyektini berkitish, deb hisoblanadi.

**Belgilangan soliq stavkalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi mahalliy sharoitdan kelib chiqib, yuqoriroq qilib belgilashlari mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari qat'iy belgilangan soliq to'lovchisi sifatida tadbirkorlik subyektini hisobga qo'yish bo'yicha arizani olgandan so'ng, ushbu arizani bir ish kuni mobaynida hisob-kitobda keltirilgan ma'lumotlar asosida hisoblangan soliq summasi to'g'ri aks ettirilganligini tekshirgan holda ko'rib chiqishi shart.

Soliq solinuvchi obyektning hisob-kitobida ko'rsatilgan ma'lumotlar (jihozlangan joylar soni (birlik), band qilingan (egallab olingan) maydon, eng kam ish haqi miqdorining o'zgarishiga bog'liq holda soliq stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar o'zgargan taqdirda to'lovchilar, davlat soliq xizmati organlariga o'zgargan sharoitlarda faoliyatni amalga oshirishni boshlagunga qadar o'z-gargan hisob-kitoblarni taqdim qilishlari shart.

Qat'iy belgilangan soliq jami umumdavlat soliqlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar o'rniga to'lanadi. Ularga quyidagilar to'lanishining amaldagi tartibi saqlab qolinadi:

- import qilingan tovar (ish, xizmat)lar uchun undiriladigan bojxona bojlari, aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i;
- davlat bojlari;
- davlat maqsadli jamg'armalariga undiriladigan ajratmalar;
- ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im.

Agarda, tadbirkorlik subyektini bir vaqtning o'zida faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, u holda u har bir faoliyat turi bo'yicha alohida-alohida soliq to'laydi.

Agar tadbirkorlik subyektini bo'lib hisoblangan yuridik shaxslar, qat'iy belgilangan soliq to'lanadigan faoliyati bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlari bilan ham shug'ullanishsa, ular alohida hisob olib borishlari va faoliyatning boshqa turlari bo'yicha to'lovchilarning ushbu toifasi uchun qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan soliqlar va yig'imlar to'lashlari shart.

Qat'iy belgilangan soliq summasi davr xarajatlariga olib boriladi va quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$B_s = T_k \cdot S,$$

bu yerda, B_s — qat'iy belgilangan soliq summasi; T_k — tabiiy ko'rsatkichlar (jihozlangan joylarining umumiy soni, egallagan

maydon); *S* — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi tomonidan qat‘iy belgilangan soliqning aniq stavkasi.

Qat‘iy belgilangan soliq har oyda hisobot oyidan keyingi oyni 15-sanasigacha to‘lanadi va soliq mahalliy budjet hisobiga tushadi.

Masala

Pul yutuqli o‘yin avtomatlari soni 4 ta bo‘lgan yuridik shaxs Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatadi.

Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qat‘iy soliqni hisoblang.

Masala yechimi

$$Bs = Tk \cdot S;$$

$$Bs = 4 \cdot 35 \cdot 72350 \text{ so‘m} = 10129000 \text{ so‘m}.$$

11-jadval

To‘lanishi lozim bo‘lgan qat‘iy soliqning hisob-kitobi

T/r	Faoliyat turi	Tadbirkorlik subyekti-ning joylashgan joyi	Tabiiy ko‘rsatkichlar nomi			Qat‘iy soliq stavkasi (karrali eng kam ish haqi)	Budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qat‘iy soliq summasi (so‘m)
			Nomi	O‘lchov birligi	Jihozlangan joylarning umumiy soni (birligi), cgal-langani maydoni		
1	O‘yin avtomatlari	Toshkent shahri	Pul yutuqli o‘yin avtomatlari	Dona	4	35	10129000
2							
		x	x	x	x	x	x
	Jami						

Yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi

Faoliyat turi	Fizik ko'rsatkichlar		Qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam oylik ish haqiga nisbatan karra miqdorida)	Eng kam oylik ish haqi miqdori	Budgetga to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasi (3-ust. 4-ust. 5-ust.)
	O'lchov birligi	Jihozlangan joylar soni (birligi), egallangan maydon			
Bolalar o'yin avtomatlari	dona	4	3	72350	868200
Bilyard xonalar	dona	5	14	72350	5064500
Jami	x	9	x	x	5932700

Mustaqil yechish uchun masala

Yuridik shaxs Toshkent viloyati Pskent tumanida 675 m².li avtomobillarni qisqa muddatli saqlash joyiga ega. Yuridik shaxs budgetga to'lashi lozim bo'lgan qat'iy soliq summasini hisoblang.

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan obyektidir. Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq davri — bir oy. Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

- faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan — hisobot yilining 15-yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish obyekti va oylik ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

- yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

- yakka tartibda tadbirkorlar tomonidan — Soliq kodeksining 375-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.



1. Qanday yuridik shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari bo'lib hisoblandi?
2. Qat'iy belgilangan soliq solish obyekti bo'lib nima hisoblanadi?
3. Qat'iy belgilangan soliq qanday ifoda yordamida hisoblanadi?
4. Qanday muddatlarda qat'iy belgilangan soliq budjetga to'lanadi?

2.15. Davlat boji

Davlat bojini to'lovchilar

O'z manfaatini ko'zlab harakat qiluvchi va maxsus vakolatlarga ega bo'lgan tashkilotlardan yuqori ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilar, deb hisoblanadi.

Davlat boji undiriladigan obyektlar

Davlat boji:

- sudlarga berilgan da'vo arizalaridan, maxsus ishlar to'g'risidagi arizalardan (shikoyatlardan), ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarga doir shikoyatlardan, sudlarning qarori yuzasidan beriladigan kassatsion va nazorat tarzidagi shikoyatlardan, shuningdek, sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

- xo'jalik sudlariga berilgan da'vo arizalaridan, shuningdek, xo'jalik sudlarining qarorlarini qayta ko'rish to'g'risidagi arizalardan, notarial idoralar hamda shahar, tuman va qishloq boshqaruv idoralari tomonidan notarial harakatlarni bajarganlik uchun, shuningdek, hujjatlarning notarial yo'l bilan tasdiqlangan nusxalarini berganlik uchun, qayd etilgan idoralar tomonidan bitim arizasi loyihalari tuzilganligi, hujjatlar tayyorgarligi va ulardan ko'chirmalar qilinganligi uchun;

- fuqarolik holati aktlarini qayd etganlik uchun, shuningdek, fuqarolarga fuqarolik holati aktlari qayd etilganligi to'g'risidagi takroriy guvohnomalar berganlik uchun va fuqarolik holati aktlari qayd etilgan yozuvlarga o'zgartirishlar, qo'shimcha tuzatishlar kiritgan hamda ularni qayta tiklagan holda guvohnomalar berganlik uchun;

- yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun;

- chet eldan respublikaga kelish va respublikadan chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, shuningdek, boshqa davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risidagi

hujjatlarni berganlik, ana shu hujjatlarga o'zgartirishlar kiritganlik uchun, yashashga doir hujjat berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun;

- respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rmini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyiga qayd etganlik uchun;

- ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnomalar berganlik uchun;

- chet eldan kelgan pul jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxslarga berganlik uchun;

- jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjatlar berganlik uchun undiriladi.

Davlat boji stavkalari

Davlat boji stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Davlat boji bo'yicha imtiyozlar

Sudlarda quyidagilar davlat bojini to'lashdan ozod qilinadilar:

- a) *da'vogarlar* — ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

- b) *da'volar* — mualliflik huquqlaridan kelib chiqadigan huquqlardan, shuningdek, yangilik ochish, ixtiro qilish ratsionalizatorlik takliflari va sanoat namunalari bo'lgan hujjatlari to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

- d) *da'vogarlar* — alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

- e) *da'vogarlar* mayib bo'lishdan yoki sog'liqqa yetkazilgan boshqa shikastlanishlardan, shuningdek, boquvchisining o'limidan keyin chiqqan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

- f) *da'volar* — qonunga zid tarzda mahrum etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo solish orqali fuqarolarga yetkazilgan zararni to'lash bilan bo'g'liq nizolar yuzasidan;

- g) ijtimoiy sug'urta idoralari va ijtimoiy ta'minot idoralari jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga zarar yetkazuvchidan yet-

kazilgan zararni pensiya yoki nafaqa tarzida undirish to'g'risida regress da'volar yuzasidan;

h) *ijtimoiy ta'minot idoralari* — zarar yetkazuvchidan benzinga ketadigan xarajatlarning tovon puli, ta'mirlash, avtomototransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyot qismlari, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga ketgan xarajatlarning summasini undirish to'g'risida regress da'volar yuzasidan, shuningdek, noto'g'ri to'langan pensiya va nafaqa summalarini undirib olish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

i) *da'volar* — jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

j) *shaxslar* — mol-mulkini bo'lish bilan bog'liq bo'lmagan nikohni bekor qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha kassatsion shikoyatlardan.

Davlat bojini to'lash va uni budjetga o'tkazish tartibi

Davlat boji naqd puli, boj markalari bilan, shuningdek, boj to'lovchining kredit muassasasidagi hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

Mulkiy nizo bo'yicha sudga, xo'jalik sudiga da'vo arizasi berilganda, shuningdek, oldi-sotdi shartnomasini, in'om qilishni, mol-mulkni rasmiylashtirishda, da'vo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valutasida belgilanadigan holdlarda davlat boji O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilab qo'yadigan tartibda chet el valutasida undirilishi mumkin.

Ko'rsatiladigan xizmatlari uchun undiriladigan davlat organi ixtiyorida qoladigan qismini istisno etgan holda budjetga o'tkaziladi. Qoldiriladigan qismining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi.

Davlat bojini qaytarish

To'langan davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytariladi:

- boj amaldagi qonunlarda talab etilganidan ortiqcha miqdorda to'langanda;
- arizalar (shikoyatlar) qaytarib berilganda yoki ularni qabul qilishdan bosh tortilganda, shuningdek, notarial idoralar yoki

tuman, shahar va qishloq boshqaruvi notarial harakatlarni bajarishni rad etganda;

- sudda yoxud xo'jalik sudi qurilmaydigan bo'lganligi tufayli ishning qurilishi to'xtatilganligi yoki da'voni ko'rib chiqishi bekor qilinganda, shuningdek, da'vogar tomonidan aynan shu ishlar toifasi uchun nizolarni dastlabki tarzda buzilgan bo'lsa yoxud da'vo salohiyatsiz shaxs tomonidan qilingan bo'lsa;

- balog'atga yetmagan farzandlari bo'lmagan er-xotinning nikohi o'zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun boj to'langanda, basharti, er-xotinlarning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmasligi tufayli nikohni bekor qilish sodir etilmagan bo'lsa;

- umumfuqarolik chet el pasportini berish rad etilganda;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan boshqa hollarda.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat boji tushunchasini izohlang.
2. Davlat bojini to'lash tartibini bayon eting.
3. Davlat bojini qaytarish tartibi qanday?

2.16. Bojxona boji

Bojxona boji — bojxona organlari tomonidan tovarni bojxona hududiga olib kirilayotganda yoki ushbu hududdan olib chiqib ketilayotganda undiriladigan to'lov bo'lib, tovarlarning olib kirishda va olib chiqib ketishdagi ajralmas sharti.

Savdogarlar uchun ko'rsatilgan xizmat (pochta binolari, omborxonalar, binolardan tovarlarni o'lchashda foydalanish) uchun to'lov sifatida ko'pgina asrlar avval paydo bo'lgan bojxona bojlari kapitalizm davriga kelib, ichki bozorni himoya qilishda va ba'zi turdagi milliy ishlab chiqarish tovarlarini chet el tovarlari raqobatidan saqlash uchun foydalaniladigan qurolga aylanadi.

Bojxona boji olib chiqish (eksport), olib kirish (import) va tranzit bojlari turlariga bo'linadi. Olib chiqib ketish uchun qo'llaniladigan bojlar Yevropada VI–VII asrlarda juda ko'p tarqalib, ular asosan, qat'iy summalar ko'rinishida undirilgan va davlat xazinasini to'ldirish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. XIX asr oxirlariga kelib, tashqi savdoda qo'llanishda umuman olib tashlandi,

chunki ular milliy ishlab chiqarishni va eksportni oyoqqa turishiga qarshilik ko'rsatdi va uning o'sishiga yo'l bermadi. O'zbekiston Respublikasida eksport uchun boj 1997-yil 1-oktabrdan bekor qilingan.

Tranzit bojxona bojlari barcha Yevropa davlatlarida XVI–XVIII asrlarda qo'llanilgan, ammo XX asrga kelib, o'zining ma'nosini yo'qotgan. *O'zbekiston Respublikasi boj ta'rifi* — davlat bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga muvofiq holda tabaqalashtirilgan hamda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plami.

Tovarlar olib chiqilgandagi va olib kirilgandagi bojxona bojining stavkalari tashqi savdoning unumdorlik ko'rsatkichiga, dunyo bozorining konyunkturasiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq ravishda belgilanadi. Bojxona qonun hujjatlariga muvofiq, himoya chorasi sifatida qo'llaniladigan maxsus ko'rinishdagi bojlar: antidemping va kompensatsiya bojlari, ular O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida olib kiriluvchi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi, ular tadbirkor yoki tadbirkorlar ittifoqlarining arizalariga muvofiq, maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan kiritiladi.

Demping narxlaridagi tovar importi uchun import bojidan tashqari undiriladigan boj antidemping bojidir. Bunda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida eksport narxi o'zining normal qiymatidan past bo'lgan tovar importi demping narxlaridagi tovar importidir.

Subsidiya bilan ta'minlangan tovar importi uchun import bojidan tashqari undiriladigan boj *kompensatsiya bojidir*. Bunda ishlab chiqarish, eksport qilish yoki tashish paytida chet davlatning subsidiyasida foydalanilgan tovarning O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga importi subsidiya bilan ta'minlangan tovar importidir.

Boj stavkalari boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan (advolar) va boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan («alohida») xos stavkalardir.

Bojlarning stavkalari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda) bojxona yuk deklaratsiyasi qabul qilingan kun va tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatlarga bog'liq ravishda har xil o'rnatiladi, bunda stavkalar tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun yagona bo'lib hisoblanadi.

Belgilangan stavkalar hajmidagi bojlarni tovarning jo'natuvchi mamlakatdan va eksportchidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda mumkin qadar qulaylikni yaratib beruvchi rejimni qo'llaydigan mamlakatlardan kelib chiqqan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi erkin savdo zonasi barpo etish to'g'risidagi kelishuvga ega bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan bojlar:

- *qo'llanilmaydi*, agar tovar mazkur kelishuv ishtirokchisi bo'lgan davlatlardan birining rezidenti tomonidan eksport qilinsa va mazkur kelishuv ishtirokchisi bo'lgan davlat rezidenti tomonidan kelishuv ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatning bojxona hududidan olib kirilsa (olib qo'yishlar to'g'risidagi bayonnomalarga kiritilgan tovarlardan tashqari). Bunda rezident deyilganda, ushbu davlat hududida tashkil etilgan tashkilot yoki ushbu davlat hududida doimo yashovchi jismoniy shaxs tushuniladi;

- *belgilangan stavkalar miqdorida qo'llaniladi* — boshqa hollarda.

13-jadval

Erkin savdo tartibi qo'llanilishi bo'yicha shartnoma imzolangan mamlakatlar ro'yxati

1.	Belorus Respublikasi	6.	Rossiya Federatsiyasi
2.	Gruziya Respublikasi	7	Turkmaniston
3.	Qozog'iston Respublikasi	8.	Ukraina
4.	Qirg'iziston Respublikasi	9.	Tojikiston
5.	Moldova Respublikasi	10	Ozarbayjon

Ikki tomonlama shartnomalarga asosan, o'zaro kelishilgan tovarlarga import bojxona bojlari tayinlanmaydi.

Olib kelinadigan bojxona bojini hisoblash

Respublika tashqarisidan olib kelinuvchi tovarlar uchun hisoblanadigan import bojini aniqlashda bojning advolar stavkasi qo'llanilsa, quyidagi ifodaga asoslaniladi:

$$B = Qb \cdot S,$$

bu yerda, B — olib kelinadigan import boji qiymati; Qb — tovarning bojxona bahosi; S — bojxona bahosiga nisbatan foizlarda o'rnatilgan import bojining stavkasi.

Respublika tashqarisidan olib kelinuvchi tovarlar uchun hisoblanadigan import bojini aniqlashda bojning xos stavkasi quyidagi ifoda asosida qo'llaniladi:

$$B = T_s \cdot S,$$

bu yerda, B — olib kelinuvchi import boji qiymati; T_s — tovarlar soni; S — tovarlar birligi uchun belgilangan miqdordagi o'rnatilgan import bojining stavkasi.

Tovarlarni olib kirish vaqtida to'lanadigan bojlarni hisoblashda aralash stavkalar qo'llanilsa, u bir necha bosqichlarga bo'linadi. Olib kelingan tovar uchun bojning qiymatini hisoblashda avval advolar stavka qo'llaniladi, undan so'ng tovar birligiga yevro yoki AQSH dollarida xos stavkada hisoblanadi. To'lanishi lozim bo'lgan bojning qiymatini aniqlash uchun hisoblangan summalarda eng kattasi olinadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Bojxona to'lovlarining turlari haqida tushuncha bering.
2. Bojxona bojlarini to'lash bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
3. Bojxona bojlarini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
4. Bojxona bojlarini budjetga to'lash tartiblari qanday?

2.17. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, mehnatga haq to'lash fondidan ajratmalar va fuqarolarning majburiy sug'urta badallarini to'lashning o'rniga (budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashuvi davlat fondi, O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi) yagona ijtimoiy soliq kiritiladi. Yagona ijtimoiy to'lovning stavkasi yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan 24,8 % miqdorida, Davlat bandlikka ko'maklashish fondiga 0,1 %, Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi fondiga — 0,1 % miqdorida belgilangan, fuqarolar ish haqlaridan Pensiya jamg'armasiga undiriladigan majburiy ijtimoiy sug'urtalash badallarining stavkasi 5,5 %.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy ijtimoiy sug'urtalash badallari davlat soliq va yig'implariga tenglashtiriladi va «Yagona ijtimoiy to'lovni hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risida»gi Nizomga (Adliya vazirligida 1333 raqam bilan ro'y-xatga olingan) muvofiq, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolar majburiy sug'urta badallarining hisoblab yozilishi ijtimoiy sug'urtalash tatbiq etiladigan barcha toifadagi xodimlarga haqiqatan hisoblab yozilgan mehnatga haq to'lash fondi (daromad) va ish haqidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari moliyalash manbalaridan qat'i nazar, soliq ushlanmalarini hisobga olishlarsiz, barcha ish haqi (daromad) turlariga hisoblanadi, bundan quyida ko'rsatib o'tilgan to'lovlar mustasno.

Doimiy ravishda xorijda istiqomat qiluvchi mulkchilik shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi korxonalari (tashkilotlari, muassasalari)da fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishlovchi xorijiy davlatlar fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining daromadlaridan yagona ijtimoiy to'lov va davlat ijtimoiy sug'urtasiga oid majburiy sug'urta badallari hisoblanmaydi.

Mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtalashga oid majburiy badallar bo'yicha imtiyozlar

Ba'zi bir toifadagi mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtalashga oid majburiy badallar to'lovchilar uchun quyidagi pastroq stavkalar belgilangan:

- ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlar mehnatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar uchun ijtimoiy sug'urtalashga majburiy badallar miqdori nogironlar mehnatiga haq to'lash fondidan 4,7 % ni tashkil etadi.

- «SOS — O'zbekistondagi bolalar mahallalari» uyushmasi uchun ijtimoiy sug'urtalashga majburiy badallar miqdori mehnatga haq to'lash fondidan 7 % ni tashkil qiladi;

- advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalari uchun mehnatga haq to'lash fondidan 25 % ni tashkil qiladi.

*Mehnatga haq to'lash fondidan ajratmalar va fuqarolarning
majburiy sug'urta badallari hisoblab yozilmaydigan
to'lovlar turlari.*

1. Foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiya.
2. Ishdan bo'shash paytida ishdan bo'shash nafaqasi.
3. Moddiy yordam sifatida beriladigan turli xil pul nafaqalari.
4. Kompensatsiya to'lovlari (xizmat safarlari bo'yicha sutkalik pullar va sutkalik pullar o'rniga to'lovlar, mehnatkashlarga shikastlanish yoki ular ish bilan bog'liq holda sog'liqning boshqacha shikastlanishi bilan yetkazilgan zararni qoplashga to'lovlar).
5. Xodimlarning ba'zi bir toifalariga bepul taqdim etiladigan xonadonlar, kommunal xizmatlar, yoqilg'i, yo'l chiptalari qiymati yoki ularni qoplash qiymati.
6. Berilgan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibdagi himoyaning boshqa vositalari, sovun, yog'sizlantiruvchi vositalar, sut va davolash-profilaktika ovqatlanishining qiymati.
7. Bepul ovqatlanish qiymati.
8. Tushlikka dotatsiyalar, sanatoriy-kurortlarda davolanishga, dam olish uylariga yo'llanmalar qiymati, stasionar va ambulatoriyalarda davolanishga to'lanadigan haq.
9. Boshqa joydagi ishga o'tkazishda yoki ko'chib o'tishda ko'chib o'tish, mol-mulknini olib o'tish va turar joy ijarasi bo'yicha xarajatlarni qoplash.
10. Doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki sayr turida bo'lgan hollarda yoxud xizmat safarlari munosabati bilan sutkalik pullar o'rniga ish haqiga qo'shimcha ustama haqlar va h.k.

*Majburiy sug'urta badallarini hisoblab yozish, hisobotlarni
topshirish va to'lash tartibi*

Yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab yozish to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda, hisobot oyi uchun hisoblab yozilgan mehnatga haq to'lash fondi va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

To'lovchilar tomonidan mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallarining to'lanishi tegishli davr uchun bank bo'linmalarida ish haqi uchun naqd pul mablag'larining olinishi chog'ida, biroq hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirilgan holda mablag'larni

to'lovchilarning to'lov topshiriqnomalari asosida o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslar tomonidan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, bola tug'ilishi munosabati bilan, dafnga nafaqalar to'lashi (bundan keyingi — nafaqalar), uy-joy kommunal xizmatlari bo'yicha berilgan imtiyozlar o'rniga to'lanadigan kompensatsiya pul to'lovlari (bundan keyin kompensatsiyalar), ishlovchi pensionerlarga pensiyalar (bundan keyin — pensiyalar), 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning ota-onalariga qo'shimcha dam olish kunlariga haq to'lash, bolalar sog'lomlashtirish lagerlari va sanatoriy-profilaktoriylarning tutib turilishiga biron-bir chegirishlarsiz hisoblab yozilgan summaning to'liq hajmida o'tkaziladi.

Bundan yuridik shaxslar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlariga 2004-yil 1-yanvardan boshlab, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobiga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oluvchi buyurtmanomalarni taqdim etadilar. Yuridik shaxslar soliq organlariga hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlarida, biroq, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuridik shaxslar xarajatlarini to'lashga budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan mablag'larni olish uchun buyurtmanomalarni taqdim etadi.

Yuridik shaxslarning taqdim etilgan buyurtmanomalaridan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ma'lum davr uchun buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha hisoblab yozilgan summalardan ortiq bo'lgan xarajatlar summalarini ko'rsatishlari taqiqlanadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlarni to'lash uchun olingan mablag'lar qat'iy nazoratda bo'lishi va faqatgina buyurtmanomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin. Hisob-kitoblardan kerakli summalarni ataylab buzib ko'rsatishga va ulardan maqsadga nomuvofiq foydalanishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar mehnat, ma'muriy va jinoyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda to'lov intizomiga rioya qilganlik uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

Yuridik shaxslar (bundan budjet tashkilotlari mustasno) o'z mablag'lari mavjud bo'lgan hollarda, keyinchalik to'langan summalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hi-

sobidan qoplash evaziga pensiyalar, kompensatsiyalar va nafaqalarni ish haqini to‘lash kunidan o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lashni amalga oshirish huquqiga egalar. Yuridik shaxslar tomonidan to‘langan summalarning qoplanishi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan olingan mablag‘larning ikkilamchi depozit hisobvarag‘idan xarajatlar to‘lab yuborilgan ularning asosiy hisobraqamiga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo‘jaligi a‘zolari tomonidan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi sug‘urta badallarini hisoblab yozish va to‘lash tartibi

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilish chog‘ida bir vaqtning o‘zida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining sug‘urta badallari to‘lovchilari bo‘ladilar. Dehqon xo‘jaligining davlat ijtimoiy sug‘urtasiga tegishli shaxs bo‘lish istagini bildirgan a‘zosi belgilangan tartibda tuman (shahar) soliq organlarida budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi sug‘urta badallarining to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga, dehqon xo‘jaliklari a‘zolariga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamiga beriladi. Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo‘jaliklari a‘zolari budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi sug‘urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilashadi. Bunda tadbirkor va dehqon xo‘jaligi a‘zosining sug‘urta badali miqdori bitta eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo‘lmasligi, yoshga doir pensiya huquqiga ega bo‘lgan, shuningdek, I va II guruh nogironlari bo‘lib hisoblanuvchi tadbirkorlar uchun esa, sug‘urta badali miqdori O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida ellik foizini tashkil qilishi kerak.

Sug‘urta badallari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘ini to‘lash uchun belgilangan muddatlarda to‘lanadi. Sug‘urta badallari naqdsiz hisob-kitoblar yo‘li orqali yoki naqd pullar bilan bevo-

sita budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobvaraqlariga to'lanadi.

To'lov topshiriqnomasidan (kirim orderida), albatta, STIR va to'lov kirim qilinayotgan davr ko'rsatilishi kerak. Davr ko'rsatilmagan hollarda to'lov u amalga oshirilgan oy uchun kirim qilingan, deb hisoblanadi. Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan to'langan sug'urta badallari ko'rsatilmaydi.

Korxonalar tomonidan nafaqalarni to'lash tartibi

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-fevraldagi «Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash chegarasini takomillashtirish to'g'risida»gi 71-sonli qaroriga muvofiq, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar:

- Ikkinchi Jahon urushi qatnashchilaridan bo'lgan xodimlarga, baynalmilalchi jangchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarga, qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar uchun — 18 yosh) to'lmagan uch nafar va undan ko'p farzandi bo'lgan xodimlarga, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga, Chernobil AESdagi halokat natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o'simta bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga, yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya — yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi nogiron xodimlarga, shuningdek, xodim ishda shikastlanish va kasbiy kasalliklari oqibatlarida vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda, oylik ish haqining to'liq miqdoridan;

- ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar bo'yicha hisobda turuvchi xodimlarga, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar to'lab kelinishi muddatiga (umumiy ish stajiga) qarab, oylik ish haqining 60 % idan 100 % igacha miqdorida;

- qolgan hollarda, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar to'lab kelinishi muddatiga (umumiy ish stajiga) qarab, oylik ish haqining 60 % idan 80 % igacha miqdorida to'lanadi;

- bola tug'ilishi munosabati bilan to'lanadigan nafaqa oylik ish haqining 100 % i miqdorida to'lanadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratma 0,5 % qilib belgilandi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Mehnatga haq to'lash fondidan budjetdan tashqari, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan ajratmalarni izohlang.
2. Yagona ijtimoiy to'lov tushunchasini bayon eting.
3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash tartibini ko'rsating.
4. Majburiy sug'urta bo'yicha ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibini ko'rsating.
5. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqatdagi hajmidan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni bayon eting.

III bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning tasnifi

Har bir iqtisodiy yoki ijtimoiy munosabat va iqtisodiy kategoriyalar o'zining shakllanish tarixiga ega. Jamiyat rivojlanishida natural ishlab chiqarishdan tovar ayirboshlash munosabatlariga o'tilishi pulning ayirboshlash vositasi sifatida paydo bo'lishiga olib kelgan. Soliq va soliq munosabatlari shakllanishining obyektiv asoslari bo'lib, davlat boshqaruvining vujudga kelishi va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Soliqlarni shakllanish tarixi shundan dalolat beradiki, dastlab soliq munosabatlarining subyektlari sifatida aholi bilan davlat shakllangan.

Soliq kategoriyasini amaliyotga kirib kelishining asosiy sabablari quyidagilardir: davlatni boshqarish xarajatlarining mavjudligi, urush va boshqa harbiy xarajatlarning ortib borishi, iqtisodiy xarajatlar, ijtimoiy xarajatlar va boshqalar. Davlat budjeti daromadlarining shakllanishida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar yuqori salmoqqa ega bo'lib, ular jami budjet daromadlarining taxminan 54 % ini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar aholini ijtimoiy himoyalashda, ya'ni ularning turmush tarzini oshirishda, bilim olishda, tibbiyotdan foydalanish kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etish asosiy vositalaridan biri bo'lgan budjet tizimi, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti faoliyat ko'rsatishining tashkiliy shakli hisoblanadi. Davlatchilik shaklidan kelib chiqqan holda ikki xil ko'rinishdagi budjet tizimi amal qiladi:

- unitar boshqaruv tizimiga ega bo'lgan davlatlarda ikki bosqichli budjet tizimi;
- federal boshqaruv tizimiga ega bo'lgan davlatlarda uch bosqichli budjet tizimi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi unitar xususiyatga ega ekanligidan budjet tizimi ikki bo'limdan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi umumdavlat budjeti;
- mahalliy budjet (Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar mahalliy budjetlari).

Budjet birligini O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligi belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan, soliqa tortish obyektiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi subyektlar yuridik va jismoniy shaxslarga bo‘linadi.

Jismoniy shaxs — bu yollanib ishlagan holda daromad olgan yuridik shaxs maqomini olmay, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan shaxslar. Jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. Soliq to‘lovchilar muqim yashab turgan joyida yashash davomiyligidan kelib chiqqan holda rezident va norezidentga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan 12 oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti, deb qaraladi. Agarda, O‘zbekistonda 183 kundan kamroq tursa, bunday jismoniy shaxslar norezident, deb qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga ularning O‘zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo‘yicha o‘rnatilgan tartib bo‘yicha soliq solinadi. O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lmagan jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatidan olingan daromadlar bo‘yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar ikki turga bo‘linadi. Ular:

- I. Umumdavlat soliqlari.
- II. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Jismoniy shaxslar umumdavlat soliqlaridan quyidagilarni to‘laydilar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq.

Bundan tashqari, mahalliy budjetga quyidagi soliqlar va yig‘imlarni to‘laydilar:

- yer solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moli solig'i;
- savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im;
- avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im va h.k.

Mahalliy soliqlar va yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi tomonidan joriy etiladi, bu mahalliy soliqlar va yig'implar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kimlar jismoniy shaxs hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Rezident va norezident jismoniy shaxslarning farqini tushuntiring.
4. Jismoniy shaxslar qanday turdagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar?

3.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Soliq to'lovchilar

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq to'lovchilar hisoblanadi.


Soliq solish obykti

Jami yillik daromad bilan Soliq kodeksiga muvofiq, belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan soliq solinadigan daromad soliq solish obyektidir.


Soliq solinadigan daromad quyidagicha hisoblanadi:

$$SS_d = U_{yD} - Ch - I,$$

bu yerda, SS_d — soliqqa tortiladigan daromad; U_{yD} — umumiy yillik daromad; Ch — chegirmalar; I — soliq imtiyozlari.



3-chizma. Solliqqa tortiladigan daromadlar.



4-chizma. Solliqqa tortiladigan daromadlar.

*Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan
soliq stavkalari*

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari, ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlari summalaridan soliq quyidagi miqdorda undiriladi (2012-yil uchun):

14-jadval

Soliqqa tortiladigan daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	Daromad summasining 9 % i
Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravar yuqori miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq besh baravaridan oshadigan summaning 16 % i
Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdorida	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan olinadigan soliq o'n baravaridan oshadigan summaning 22 % i

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan stavkalar bo'yicha to'lov manbayida soliq solinadi. 2012-yil jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarning soliq stavkasi 9 % ni tashkil etadi.


*Jismoniy shaxslar daromadiga
soliqdan imtiyozlar*

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlar uch guruhga bo'linadi:

1. Soliqqa tortiladigan daromadga qo'shilmaydigan daromadlar.
2. Soliqdan to'liq ozod bo'ladigan jismoniy shaxslar.
3. Soliqdan har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida ozod etish.

5-chizmada soliqqa tortiladigan daromadga qo'shilmaydigan daromadlar keltirilgan.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqqa imtiyozlar



Soliqqa tortiladigan daromadga qo'shilmaydi:

barcha nafaqalar (ishdan bo'shatish (EKIH 12 karrasigacha), ishsizlik, homiladorlik va tug'ish) (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi bundan mustasno); stipendiyalar, davlat pensiyasi; mayib bo'lish va boquchisining vafot etganligi munosabati bilan ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan olinadigan summalar; donorning daromadi; bolalarning sog'lomlashtirish lagerlariga, (ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga mo'ljallangan) sanatoriy-kurort muassasalariga borish uchun ish beruvchi yo'llanmalar qiymati; ish beruvchining o'z xodimlarining ambulatoriya yoki stasionar-tibbiy xizmatdan foydalanish qiymatini to'lashlari; o'z mulkini sotishdan olingan daromad; meros qilib qoldirish va hadya qilish natijasida olingan mol-mulkning qiymati va boshqalar.

davlat qimmatli qo'g'oz (va lotereya) laridan foizlar va yutuqlar; fuqarolarning bankka qo'yg'an mablag'laridan foizlar va yutuqlar; o'zining tomorqasida yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar; davlat korxonalari mol-mulkini xususiy lashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini, patent egasining sanoat mulki obyektlaridan o'z ishlab chiqarishida foydalanishdan olingan daromad; dividendlar tariqasida olingan hamda dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga yo'naltirilgan daromadlar; fuqarolarning sug'urta bo'yicha oladigan summaları va boshqalar.

qimmatbaho sovg'a; moddiy yordam (tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda hodisalar bundan mustasno); xizmat xarajatlari; ishchining shaxsiy avtomobilidan xizmatda foydalanlik kompensatsiya to'lovi; O'zR hukumati qarorlariga asosan to'lanadigan boshqa kompensatsiya to'lovi.

5-chizma. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqqa imtiyozlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi, fuqarolarning jamg'arib boriladigan shaxsiy hisob varaqalariga o'tkaziladigan daromad solig'i solinadigan daromatlardan 1 % badallar summasiga kamaytiriladi.

*Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni
to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi*

a) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;

b) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila azolari;

d) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar;

e) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar;

f) hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari;

g) Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek, o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

h) gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar — gastrol-konsert faoliyatidan olingan daromadlari bo'yicha;

i) mansab darajalari mavjud bo'lgan prokuratura organlari xodimlari.

Quyidagi soliq to'lovchilarning daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida to'lashdan ozod etiladi:

- O'zbekiston Qahramoni, 1941—1945-yillardagi urush nogironlari yoxud urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchiga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

- xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasada o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va 1941—1945-yillardagi urush,

sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarining qatnashchilari, 1941–1945-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari;

- Leningrad qamali paytida 1941-yil 8-sentabrdan 1944-yil 27-yanvargacha bo'lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fuqarolar va h.k. (Soliq kodeksining 179-moddasi.)

Fuqaro imtiyozga bo'lgan huquqni yo'qotganligini o'n besh kundan kechiktirmay, undan soliq ushlanib qoladigan korxonada, muassasa, tashkilot, shuningdek, jismoniy shaxslarni yoxud soliq organiga (agar mazkur organ hisob-kitobni amalga oshirsa) ma'lum qilishi lozim.

Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari jismoniy shaxslarning daromadlari va undan olinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad summasidan har oyda taqvim yili boshidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil davomida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olingunga qadar joriy yilda to'langan hamda daromaddan ushlab qolingani soliq summasi ushlab qolingani soliqlar summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshida ilgari va yangi ish joyida olingani jami daromaddan kelib chiqqan holda ish amalga oshiriladi. Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka, ya'ni 22 % bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lov manbayida ushlab qolinishini quyidagi yuridik shaxslar amalga oshirishi shart.

- ishlaydigan jismoniy shaxslarga mehnat shartnomalari yoki fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradiganlar;

- nodavlat pensiya to'lovlarini to'laydiganlar;

- jismoniy shaxslarga dividendlar va foiz to'laydiganlar;

- asosiy ish joyi bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlarga to'lovlarni amalga oshirish.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va budjetga o'tkazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda daromad to'lovchi yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarimalarni budjetga to'lashi shart.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq hisob-kitob

2012-yilning yanvar—avgust oylari uchun eng kam ish haqi (EKIH) miqdori 512790 so'mni (62920+62920+62920+62920+62920+62920+62920+72350) tashkil etadi.

Jismoniy shaxsning yanvar—iyuldagi mehnat haqi miqdori 500000 so'mni, avgust oyida 575000 so'mni tashkil etdi. Uning yanvar—avgust oylaridagi daromadi 4075000 so'm (500000+500000+500000+500000+500000+500000+500000+575000) bo'lib, $5 \cdot 512790 = 2563950$ so'm daromaddan 9 % stavka bo'yicha soliq olinadi:

$$\begin{aligned} 2563950 \cdot 9 \% &= 230755,5 \text{ so'm.} \\ (4075000 - 2563950) \cdot 16 \% &= 241768 \text{ so'm.} \end{aligned}$$

Yanvar—avgust oylaridagi daromaddan hisoblangan soliq summasi:

$$230755,5 + 241768 = 472523,5 \text{ so'm.}$$

Yanvar—iyul oylarida 405846 so'm soliq ushlab qolingani bois, avgust oyida soliq summasi 66677,5 so'mni tashkil etadi.

Yanvar—avgust oylari uchun hisoblab yozilgan ish haqining 1 foizi miqdoridagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varag'iga (ShJBPHga) majburiy badallar summasi:

$$472523,5 \cdot 1 \% = 47252,35 \text{ so'mga teng.}$$

Fuqarolarning ShJBPHga majburiy badallari hisoblab yozilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan chegiriladi.

Jismoniy shaxslarning soliq deklaratsiyasini taqdim etish va to'lash tartibi

Soliq deklaratsiyasini har xil toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etadi. Yillik jami daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani quyidagilar soliq idoralariga topshirishga majburdirlar.

Asosiy ish joyidan tashqarida (O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan va undan tashqarida) daromad oluvchi jismoniy shaxslar. Agar asosiy ish joyida va undan tashqarida ishlab topgan daromadlari uch karrali minimal ish haqi miqdoridan oshmasa, bunday jismoniy shaxslar deklaratsiya topshirishmaydi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar — rezidentlar deklaratsiya topshirishmaydi. Yillik jami daromad to'g'risidagi deklaratsiya jismoniy shaxslar tomonidan o'zlari yashab turgan tuman soliq inspeksiyalariga quyidagi muddatlarda topshiriladi:

- asosiy ish joyidan tashqarida daromad oluvchi jismoniy shaxslari — rezidentlar tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha kechiktirmay tegishli shaklda taqdim etiladi;

- kutilayotgan daromadlar to'g'risida chet ellik jismoniy shaxslar — rezidentlar tomonidan amalga oshirilayotgan kalendar yilida va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketayotgan haqiqiy olingan daromad to'g'risida ketish oldidan bir oy qolganda tamomila deklaratsiyani hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha kechiktirmay tegishli shaklda taqdim etishadi;

- yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxs — shunday daromadlar paydo bo'lgan oydan keyingi oyning 5-sanasigacha deklaratsiyani taqdim etadilar. Hisobot yili tugashi bilan keyingi yilning 15-sanasigacha yil bo'yicha olgan jami daromad to'g'risida deklaratsiya topshiradi.

Agar jismoniy shaxslar o'z tadbirkorlik faoliyatlarini to'xtatgan bo'lsa, soliq inspeksiyalari soliq to'lovchilardan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani kam davrga ham taqdim etish to'g'risida yozma bildirish berib talab qilib olishi mumkin. Unda qachon, qaysi muddatga va nima sababdan yillik jami daromad va qilingan chegirmalar deklaratsiya topshirilishi ko'rsatilgan bo'ladi.

Belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini to'xtatishga qaror qilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxs o'n besh kun ichida bu to'g'rida soliq inspeksiyasiga yozma xabar berishi kerak. O'z tadbirkorligini to'xtatishga qaror qilgan jismoniy shaxs soliq inspeksiyasiga yillik daromad to'g'risida belgilangan shaklda deklaratsiya taqdim etadi.

Jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan daromad soliqlari quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- hisobot yilidan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay;
- yil mobaynida qayta hisoblanganda esa, deklaratsiya soliq xizmati organlariga taqdim etilgan kundan e'tiboran 1 oy ichida.

Norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarini hisobga olgan holda Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'implarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi va cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmagan.

Mustaqil yechish uchun masala

Korxonada ishchisiga yanvar oyi uchun 645000 so'm ish haqi hisoblandi. Fevral oyida esa, 695000 so'm ish haqi hisoblandi va 512000 so'm moddiy yordam berildi. Yanvar va fevral oylari uchun daromad solig'ini hisoblang.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi tarkibiga nimalar kiradi?
3. Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar necha guruhga bo'linadi?
4. Daromad solig'i stavkalarini izohlang.
5. Daromad solig'ini hisoblash tartibi qanday?
6. Daromad solig'ini to'lash muddatlarini tushuntiring.
7. O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblash tartibini tushuntiring.
8. Qanday jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini to'ldiradilar?
9. Deklaratsiya qanday muddatlarda soliq inspeksiyasiga taqdim etiladi?
10. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish xususiyatlarini tushuntiring.

3.3. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni soliqqa tortish xususiyati

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qat'iy belgilangan hajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari bo'lib:

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu tartib quyidagi sohalarida tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarga tatbiq etilmaydi:

- bilyardxonalar;
- bolalar o'yin avtomatlari;
- o'yin avtomatlari, shu jumladan, tavakkalchilikka asoslangan, pul (buyum) yutuqli o'yin avtomatlari zallarini tashkil etishga doir faoliyat.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq summasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga bog'liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turli xillari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat'iy belgilangan miqdorlarda daromad solig'i stavkalari belgilanishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor o'zi mustaqil ravishda faoliyat yuritib, u o'ziga ishchi yollash huquqiga ega emas, chunki «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq «Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi».

Masalan, ikki va undan ortiq yakka tadbirkorlar yuridik shaxsni tashkil etmagan holda ular birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi taraflari bo'lishlari mumkin (birgalikda faoliyat yuritish shartnomasi asosida). Ammo, ularning huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida (53-modda) keltirilgan shartlarga javob berishi lozim.

Jismoniy shaxs faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi. Qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 1-kunigacha to'laydilar. Masalan, mart oyi uchun soliq ular tomonidan 1-martga qadar to'lanishi lozim. Agar jismoniy shaxs soliq summasini o'zining bankdagi hisob raqamidan to'laydigan bo'lsa, u holda uning hisob raqamidan mablag' ko'chirilgan kun soliq to'langan kun hisoblanadi.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda:

- ijtimoiy sug'urta badallarini;
- eksport, import operatsiyalarini bajarganda, yagona bojxona to'lovi va qonunda nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni;
- savdo qilish huquqi uchun yig'imni;
- tamaki mahsulotlari bilan savdo qilish huquqi uchun litsenziya yig'imini;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'imni;
- suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqni — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suvdan foydalanilsa;
- bozorlarda faoliyatni amalga oshirishda savdo joyi uchun to'lovni (patta);
- davlat bojlarini;
- shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan boshqa soliqlar, yig'implar va to'lovlarni to'laydilar.

Bunda mulkida xona, inshoot va boshqa imoratlar, shuningdek, yer uchastkalari bor bo'lgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslar uchun belgilangan tartibga muvofiq, mol-mulk solig'i va yer solig'ini to'laydilar.

Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan, ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar (shu jumladan, transport vositasining egasi) to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga

ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining, shu jumladan, transport vositasi egasining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek, ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi.

Mazkur ma'lumotnoma (axborot) ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan, ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyat amalga oshirishga qadar taqdim etiladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari, bundan transport vositalari mustasno, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 55-moddasiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortiladi.

Agarda, jismoniy shaxs import tovarlarni sotish uchun respublika hududiga olib kelsa, u holda ular yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishlari kerak.

Jismoniy shaxsning turar joyidagi tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarida (o'zi kelgan holda), Tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy sarmoyalar va savdo vazirligi, bojxona organlarida — tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi sifatida, tijorat banklarida hisob raqamini ochishi, eksport-import operatsiyalarini va chakana savdo-sotiq bilan shug'ullanishi uchun ruxsatnoma rasmiylashtirishi, soliq organidan import operatsiyalari subyekti sifatida hisobga olish kartasini olishi kerak.

Davlat ro'yxatidan o'tganlik uchun eng kam ish haqining besh baravari miqdorida yig'im undiriladi. «Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, qat'iy belgilangan soliq to'lovchilarga quyidagilar kiradi:

- bilyard o'ynash xonalari xizmatlari;
- bolalar o'yin avtomatlari;
- pul (buyum) yutuqli tavakkalchilikka asoslangan o'yin avtomatlari zallarini tashkil etish bo'yicha faoliyat.

Qat'iy belgilangan soliq solish obyekti bo'lib daromad olishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat aniq turini tavsiflaydigan tabiiy ko'rsatkichlar: jihozlangan joylar soni (birlik), band qilingan (egallab olingan) maydon hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslar bir marotabalik deklaratsiya asosida ishlash huquqiga egadirlar. Agar jismoniy shaxslar daromad olish maq-

sadida (oldi-sotdi, ishlar, xizmatlar) bir marotabali operatsiyalarni amalga oshirsa, unga mahalliy boshqaruv organlarida yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkor shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmasdan soliq organlariga bir martabali daromadi haqida deklaratsiya to'ldirish huquqi beriladi.

Bunday deklaratsiya o'tkazilishi mumkin bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirishdan avval olinishi mumkin bo'lgan daromad ko'rsatilgan holda DSIGA topshiriladi, uning asosida soliq organi xodimi fuqaroga to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasini hisoblaydi va to'lov xabarnomasini topshiradi. Soliq summasi to'langandan so'ng jismoniy shaxsga deklaratsiya taqdim etiladi.

Soliq to'lovchi soliq deklaratsiyasini:

- yoki jismoniy shaxs yashaydigan hududdagi;
- yoki faoliyat yuritadigan hududdagi soliq inspeksiyasiga topshirishi mumkin.

Bir marotabali deklaratsiya asosida daromad solig'ini hisoblash Soliq kodeksining 55-moddasida ko'zda tutilgan, ya'ni 9 %—22 % stavkalarida undiriladi, ammo bunda:

- daromad solig'i bir marotabali deklaratsiya qaysi oyda topshirilgan bo'lsa, o'sha oyning soliq shkalasi bo'yicha hisoblanadi;
- bir marotabali deklaratsiya olinishi mumkin bo'lgan daromad haqida ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim, shuning uchun bir marotabali deklaratsiyani topshirgan fuqarolar yil yakuniga asosan, keyingi yilning 1-apreliga qadar, yilning jami daromadlari haqida deklaratsiyani soliq organiga topshirishlari shart.

Agarda, bir marotabali deklaratsiya topshirgan fuqaro olgan daromadi bo'yicha budjetga soliq to'langanidan so'ng o'zining faoliyatini davom ettirish istagini bildirsa, u holda, albatta, yuridik shaxs ko'rinishida bo'lmagan xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, faoliyatini davom ettirishi shart.

Soliq kodeksining 62-moddasiga asosan, soliq organining talabiga muvofiq, jismoniy shaxslar hisobotlar, soliq hisobi va olingan daromadlar bo'yicha deklaratsiyani belgilangan ko'rinishida va tartibda topshirishlari shart.

Vazirlar Mahkamasining qarorida yakka tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlariga aniqlik kiritilib, undan ulgurji savdo va umumiy ovqatlanish sohasida xizmat ko'rsatishlar ham chiqarib tashlandi.

**Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan
jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq
STAVKALARI**

T/r	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlari)					
		Toshkent shahri		Viloyatdagi shaharlar		Tumanlar, shu jumladan, qishloq joylari	
		2011-yil	2012-yil	2011-yil	2012-yil	2011-yil	2012-yil
1.	Chakana savdo:						
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	9,0	6,0	6,0	3,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	5,0	5,0	4,0	4,0	2,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
	oziq-ovqat nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalaridagi aralash savdo)	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari	5,5	3,5	2,0	1,5	1,0	0,5
3.	Sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar	6,5	4,0	3,0	2,0	2,0	1,0
4.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	3,5	2,0	2,5	1,5	1,5	1,0

«TASDIQLAYMAN»

_____ tuman DSI boshlig'i (muovini)
201__-yil _____

XUSUSIY TADBIRKOR GUVOHNOMASI № _____

Familiyasi _____ Ismi _____

Otasining ismi _____

Amalga oshiradigan faoliyat turi _____

Guvohnoma 201__-yil _____ dan _____ gacha haqiqiydir.
_____ tuman hokimining 201__-yil _____ qarori bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Faoliyatni amalga oshirish joyi _____

Uy manzili _____ shahar, _____ tumani,
_____ mavzesi, _____ ko'chasi, _____-uy, _____-xonadon.

Soliq stavkasi _____

Shaxsiy hisob raqami № _____

Masala

Xususiy tadbirkor S.Salimov Toshkent shahrining Sirg'ali tumani dehqon bozorida oziq-ovqat tovarlari bilan savdo qiladi.

Xususiy tadbirkorning bir oy uchun budjetga to'lashi lozim bo'lgan qat'iy solig'ini hisoblang.

Masala yechimi

2012-yilda eng kam ish haqi — 72350 so'm.

Toshkent shahrida oziq-ovqat tovarlari bilan savdo qilish uchun qat'iy soliq stavkasi eng kam ish haqining 9 baravari miqdorida belgilangan.

Qat'iy soliqning oylik miqdori $= 72350 \text{ so'm} \cdot 9 \text{ so'm} = 651150 \text{ so'm}$.

Mustaqil yechish uchun masala

Xususiy tadbirkor Sh. Ahmadxonov Yangiyo'l tumanidagi «Il-g'or» qishlog'ida oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar sotish bilan shug'ullanadi.

Xususiy tadbirkorning bir oy uchun budjetga to'lashi lozim bo'lgan qat'iy solig'ini hisoblang.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday jismoniy shaxslar qat'iy soliq to'lovchilari hisoblanadi?
2. Qat'iy soliq qanday muddatlarda to'lanadi?
3. Qat'iy soliq to'lovchi jismoniy shaxslar qanday yig'implarni to'laydilar?
4. Qat'iy soliq stavkalari kimlar tomonidan belgilanadi?

3.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish Soliq kodeksiga va «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar uchun ularning mulki bo'lgan turarjoylar, kvartiralarining inventarizatsiya qiymati va maydoni mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrda 490-sonli qaroriga muvofiq, yo'riqnomaning avvalgi nashriga quyidagi o'zgartirishlar kiritilgan: jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining transport vositalari qismi bo'yicha to'lanadigan soliqning o'rniga transport vositalari uchun ishlatiladigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan undiriladigan soliq kiritiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab berilgan stavkalarda soliqqa tortiladi. 2012-yil uchun jismoniy shaxslarni mol-mulkiga soliq stavkalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

15-jadval

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari

T/r	Soliq solinadigan baza	Soliq stavkasi (% da)
1.	Soliq solinadigan mol-mulkning inventarizatsiya qiymati (shaharlarda turarjoy va kvartiralarining, umumiy maydoni 200 m ² .dan ortiq bo'lmagan)	0,9
2.	Soliq solinadigan mol-mulkning inventarizatsiya qiymati (shaharlarda turarjoy va kvartiralarining, umumiy maydoni)	1,13
3.	Soliq solinadigan mol-mulkning inventarizatsiya qiymati (shaharlarda turarjoy va kvartiralarining, umumiy maydoni 500 m ² .dan ortiq bo'lgan)	1,13

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar

Quyidagilar mulkida bo'lgan imoratlar, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:

a) O'zbekiston Qahramoni;

b) 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtabdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo'lganlarning va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatini Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

d) qahramon onalar, shuningdek, 10 nafar va undan ortiq farzandi bor ayollar;

e) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);

f) I guruh nogironlari;

g) muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining — xizmatni o'tash davrida;

h) harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalar (erlari)ning;

i) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari jumlasidan bo'lgan nogironlarning, ichki ishlar organlarining xizmat vazifalarini ado etayotganda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo'lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan shaxslarning.

Mazkur bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar taqdim etilgan mol-mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo'ladi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda, ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar. Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotishdan soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1-yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud

bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi. Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'img'lar bo'yicha qarzar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1-yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosi taqdim etgan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa, qayta baholanganidan keyin qayta hisob-kitob qilingan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Ya'ni imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Taqvim yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Agar jismoniy shaxs o'ziga qarashli bo'lgan mulkdan tadbirkorlik (daromad olish) maqsadlarida foydalansa, u holda u mol-mulk solig'ini jismoniy shaxslar uchun belgilangan soliq stavkalarida to'laydi. Yer solig'i bo'yicha esa, agar jismoniy shaxs yer uchastkasidan tadbirkorlik maqsadida foydalansa, u holda yer solig'ini korxonalar uchun belgilangan stavkalarda to'laydi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq

- Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlarning inventarizatsiya bahosi bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda — 8030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

• 2012-yildan, Davlat soliq xizmati organlariga, yangi qurilgan belgilangan tartibda «Davergeodezkadastr» organlaridan ro'yxatdan o'tkazilmagan uy-joylar bo'yicha mol-mulk solig'ini belgilangan shartli qiymatning ikki baravari miqdoridan kelib chiqqan holda undirish huquqi berildi.

• Jismoniy shaxslarning mol-mulklari turar joy ko'rinishidan noturar joyga o'tkazilganda yoki ular tomondan sotib olingan noturar joy (bino, inshootlar)dan mol-mulk solig'i yuridik shaxslarga o'rnatilgan stavkada to'lanadi.

• Soliqqa tortiladigan mol-mulkka ega bo'lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha umumiy maydoni 60,0 kv. metrga teng bo'lgan soliqqa tortilmaydigan minimumni ajratish amalda saqlanib qolindi.

Masala

Fuqaro N. Alimov kvartirasining inventarizatsiya qiymati 18000000 so'm, maydoni 120 m². Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Mol-mulk solig'i summasi} = \frac{18000000 \cdot 0,9\%}{100} = 162000 \text{ so'm.}$$

Mustaqil yechish uchun masala

Fuqaroning uy-joyi Farg'ona viloyatida joylashgan, ammo uning mol-mulki texnik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan baholanmagan.

Jismoniy shaxsning mol-mulki solig'ini hisoblang.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadi?
2. Mol-mulk solig'ining obyekti bo'lib nimalar hisoblanadi?
3. Mol-mulk solig'i stavkalari necha foiz miqdorida belgilangan?
4. Mol-mulk texnik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan qayta baholanmagan bo'lsa, mol-mulk qiymati qancha deb baholanadi?
5. Mol-mulk solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. Mol-mulk solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?

3.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Jismoniy shaxslar — meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin.

Bunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqiga quyidagi holatlarda ega bo'ladilar:

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun;
- yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun;
- jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Fuqarolarning yer uchastkalariga meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chet yerlar;

5) meros bo'yicha hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilish uchun olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini davlat soliq organlari hisoblab chiqaradi. Shuning uchun fuqarolar yer solig'i summasining noto'g'ri hisoblanishi bo'yicha javobgarlikka tortilmaydi. Soliq to'lanishi to'g'risida to'lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili topshiriladi.

Yer uchastkalarining mulkdorlari yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar yoki ijarachilar bo'lgan jismoniy shaxslar davlat

soliq organlari tomonidan har yili 1-yanvardagi holat bo'yicha hisobga olinadilar. Yer solig'ini hisoblashda yer uchastkasining barcha maydoni hisobga olingan holda bunda uy-joylar yordamchi xo'jalik, hovli egallangan hamda qurilish obyekti atrofidagi yer maydonlarini hisobga olgan holda hisoblanadi. Jismoniy shaxslar yer solig'ini 15-oktabrgacha kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslarga qishloq joylarda shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkalari tomorqa yerlardan va jamoa yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunday holda tomorqa yerlar maydoni yer kadastr ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, yuz bergan o'zgarishlar har yili naturada aniqlashtiriladi. Jamoat yerlarida qo'shimcha ajratilgan yer uchastkalari maydoni xo'jaliklarining ma'lumotlari bo'yicha hisobga olinib, har yili aniqlanadi.

Fuqarolik ro'yxati va ularga jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydoni, shuningdek, shaxsiy garajlar egallagan maydonlar ushbu tashkilotlar boshqaruvlarining ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

Xizmat chek yerlarining maydoni o'z xodimlariga yer uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, ular joyning o'zida aniqlanadi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkasi

Yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yer uchastkasining foydalanish maqsadlari va joylashgan joyiga qarab belgilanadi. Shahar hududlarida joylashgan yer uchastkalari uchun yer soliqlari stavkasi xuddi yuridik shaxslarga belgilangan prinsiplarga asoslangan holda zonalarga bo'lish bilan belgilanadi. Masalan, Toshkent shahri 14, kichik shaharlar — 3 va posyolkalar — 2 zonalarga bo'linadi.

Shahar sharoitida yashaydigan fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurishga ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yerning mavqeyiga va shahardagi joylashgan joyiga hamda sifatiga qarab belgilanadi. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun eng yuqori soliq stavkalari dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalariga belgilangan.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqish chog'ida yer solig'i stavkalariga, yer sifatiga bog'liq holda yerning bonitetiga bog'liq ravishda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa — 0,75;
- tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa — 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa — 1,25.

Jismoniy shaxslarga asosiy fondlarni sotib olish va egalik huquqini berish bilan ajratilgan jamoa bog'dorchilik va uzumchiligini yuritishga berilgan yer uchastkalaridan yer solig'i qishloq xo'jaligi yuritish uchun belgilangan soliq stavkalarida undiriladi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Masalan, jismoniy shaxslar yer uchastkalaridan do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa obyektlar uchun foydalaniladigan bo'lsalar.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi. Masalan, agarda, yer uchastkasi tomorqa uchun berilsa, shu yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmasa yoki, agarda, yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkasi berilsa-yu, ammo u yerda uyni qurish bo'yicha ishlari boshlanmagan bo'lsa.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i 1,5 koeffitsiyentini qo'llagan holda to'lanadi. Masalan, jismoniy shaxs uchun shaxsiy tomorqa yuritish uchun yer 0,25 ga uchastkasiga ajratilgan, ammo uning haqiqatda foydalanayotgan yeri 0,40 ga ni tashkil etadi, u holda fuqaro oshiqcha 0,15 ga (hukumat organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkasiga nisbatan oshiqcha qismi) uchun yer solig'i 1,5 koeffitsiyent qo'llagan holda to'lashi shart. Jamoa va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yerlari uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Agar jismoniy shaxs yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan yer uchastkasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa yoki yerdan maqsadli foydalanishni o'zgartirmasdan o'z uyini ofis sifatida rasmiylashtirsa, undan yer solig'i yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Ko'p xonadonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig'i undirilmaydi. Ko'p qavatli uylarni xususiy lashtirishda ushbu uylar atrofidagi yer uchastkalari unda yashaydigan fuqarolarga foydalanish uchun ajratilmagan. Bu yerlar umumiy foydalanish yerlari hisoblanadi.

Xonadondan yoki ko'p xonadonli turar joylarning bir qismidan odamlar yashashi bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanilganda, belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan kelib chiqib, yer solig'ining tegishli hissasi undiriladi.

Yer uchastkalarining maydoni o'zgarganda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo'lganda (bekor qilinganda) davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob-kitob qilishlari va soliq to'lovchiga to'lash muddati o'zgartirishini hisobga olgan holda yangi yoki qo'shimcha xabarnomani taqdim etishlari shart.

Quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

- yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinarlari va texniklari, boshqa mutaxassislari hamda ishchilari;

- O'zbekiston Qahramoni, 1941—1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashuvchilari va h.k. (Soliq kodeksining 290-moddasi.)

Shuni ta'kidlash lozimki, mol-mulk solig'idan farqli, imtiyoz huquqi yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo'jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi. Jismoniy shaxslar qonunchilikda belgilangan me'yor chegarasida yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo'jaligi yuritish uchun ajratilgan yer uchastkalariga yer uchastkalarining berilgan muddatidan boshlab ikki yil muddatga yer solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Masala

Fuqaroning yer uchastkasi Toshkent shahridagi Olmazor tumanida joylashgan. Yer maydoni 400 m² bo'lib, 2-zonada joylashgan bo'lsa, yer solig'i summasini hisoblang.

Masalaning yechimi

Ohangaron shahrining 2-zonasida joylashgan 1 m² yer uchun yer solig'i stavkasi 117,9 so'm belgilangan.

Yer solig'i summasi = 400 m² · 117,9 so'm = 47160 so'm.

Fuqaro O. Yoqubxonov uy-joy qurishi uchun ajratilgan yer uchastkasi Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi «Changi» qishlog'ida joylashgan. Yer maydoni 0,12 ga ni tashkil etadi. Yer uchastkasini tuproq boniteti 40 ball.

Fuqaroning yer solig'ini hisoblang.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday jismoniy shaxslar yer solig'ini to'lovchilari hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslar uchun qanday yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi?
3. Yer solig'ining stavkalarini tushuntiring.
4. Yer solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
5. Jismoniy shaxslar qanday muddatlarda yer solig'ini to'laydilar?

3.6. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga undiriladigan soliq

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq to'lovchilari bo'lib, jismoniy shaxslarning, dizel yonilg'isi va gaz sotadigan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Bunda ularning joylashgan joyidan qat'i nazar, avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg'isi va gazning natural hajmi *soliq solish obyekti* hisoblanadi. Benzin, dizel yonilg'isi va gazni sotish deganda, ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

Soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs — xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi. Soliq summasi quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

$$N=V \cdot St,$$

bu yerda, N — hisoblab yozilgan soliq; V — jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi; St — soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushum, deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish obyekti bo'lmaydi. Soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yonilg'isi va gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalari hisobini alohida yuritadilar.

Soliq bank muassasalari orqali har o'n kunda, benzin, dizel yonilg'isi va gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oying o'n kunligi tugagandan so'ng, uchinchi kundan kechikmay to'lanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalariga yonilg'i ishlatilganligi uchun undirilgan soliqlar buxgalteriya hisobida quyidagicha yuritiladi:

1. Yonilg'i sotib olindi:

2920-debet — «Tovarlar»;

6010-kredit — «Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar».

2. Yonilg'ini jismoniy shaxslarga naqd pulga sotib, kassaga kirim qilgan moliyaviy jarayon:

5010-debet — «Kassa»;

9020-kredit — «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»;

6410-debet — «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik».

Masala

Toshkent shahrida joylashgan «MISS PETROL» avtomobil-larga yonilg'i quyish shoxobchasi hisobot davrida aholiga transport vositalari uchun 44500 litr benzin va 3496 kg suyultirilgan gaz sotgan. Shoxobchanning budjetga to'lashi lozim bo'lgan yonilg'i iste'moli solig'ini hisoblang.

Masala yechimi

1 litr benzin va dizel yonilg'isi uchun yoqilg'i iste'moli solig'i stavkasi 200 so'm. Yonilg'i iste'moli uchun soliq = $(44500+3496) \cdot 200$ so'm=9599200 so'm.

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga soliqning hisob-kitobi

(ming so'm)

Ko'r-sat-kich-lar	Aylanma									So-liq stav-kasi, so'm	Soliq summasi										
	Cho-rak uchun	Shu jumladan									Cho-rak uchun	Shu jumladan									
		1-oy uchun			2-oy uchun			3-oy uchun				1-oy uchun			2-oy uchun			3-oy uchun			
		I o'n kun	II o'n kun	III o'n kun	I o'n kun	II o'n kun	III o'n kun	I o'n kun	II o'n kun			III o'n kun	I o'n kun	II o'n kun	III o'n kun	I o'n kun	II o'n kun	III o'n kun	I o'n kun	II o'n kun	III o'n kun
I. Natural ifodada sotishning haqiqiy hajmi va jami soliq summasi	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x										
Shu jumladan:																					
benzin	44500	4000	5600	5200	4200	5000	5300	5500	4800	4900	175	7787500	700000	980000	910000	735000	875000	927500	962500	840000	857500
dizel																					

suyultirilgan gaz	3496	320	460	310	330	476	440	380	370	410	175	611800	56000	80500	54250	57750	83300	7000	66500	64750	71750
2. Hisobot oyi uchun budget-dan to'langan to'lovlar bo'yicha soliq summasi	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x										
Shu jumladan:																					
benzin	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	7787500	70000	980000	91000	735000	875000	927500	962500	840000	857500
dizel	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x										
suyultirilgan gaz	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	61180	56000	80500	54250	57750	83300	17000	66500	64750	71750



NAZORAT SAVOLLARI

1. Kimlar yonilg'i iste'moli solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi?
2. Yonilg'i iste'moli solig'i obykti bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Yonilg'i iste'moli solig'i stavkalari qanday miqdorda belgilangan?
4. Yonilg'i iste'moli solig'i budjetga o'tkazilganda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

4.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi har bir shaxsning belgilangan soliqlar va yig‘imlarni budjetga to‘lashi shartligi, adolatli soliqqa tortish, soliq tizimining yagonaligi va soliq qonunchiligining oshkoralik tamoyillariga asoslanadi. Soliq qonunchiligidagi tamoyillarning ahamiyati shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi tartib Soliq kodeksida keltirilgan soliqqa tortish tamoyillariga qarama-qarshi bo‘lmaydi.

Soliqqa tortishning *majburiyigi haqidagi* tamoyillarga asosan, soliq to‘lovchi soliq qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘liq hajmda va muddatlarda to‘lash bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi shart. *Adolatlilik tamoyillariga* asosan, O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortish hamma uchun umumiy va majburiy, shu bilan birga, soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘lishi shart.

Soliq tizimining *yagonalik tamoyillariga* asosan, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi butun respublika hududida barcha soliq to‘lovchilar uchun yagonadir. Soliq qonunchiligining *oshkoralik tamoyillariga* asosan, soliq solishni tartibga solib turuvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e‘lon qilinishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining «Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuni 2-moddasiga asosan, ushbu Qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida qonun hujjatlari me‘yorlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat — me‘yoriy-huquqiy hujjatdir.

Quyidagilar me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi so'zsiz tan olinadi.

Ko'pgina davlatlarning huquqi asosida yotgan quyidagi ikki tamoyil mavjud:

1. Keyingi hujjat avvalgi hujjatni bekor qiladi.
2. Tor masalani o'z ichiga olgan hujjat keng masalalarni o'z ichiga olgan hujjatni siqib chiqaradi.

Soliq huquqi tushunchasi



6-chizma. Soliq huquqi tushunchasi.



1. Soliq qonunchiligining asosiy tushunchalarini izohlang.
2. Soliq huquqi tushunchasini tavsiflang.
3. Soliqqa tortish tamoyillarining mazmuni qanday?

4.2. Soliq huquqining asosiy tamoyillari

Soliq huquqi ham huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida adolat, demokratiya kabi tamoyillarga amal qiladi.

Bu tamoyillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Soliqlarni qonun asosida oshkora joriy etish*, ya'ni soliq turi, miqdori, to'lanish tartibi qonunda oldindan belgilab qo'yilgan bo'lib, uning doirasidan chiqishga hech kimga huquq berilmagan.

2. *Soliq to'lovchi fuqaro yoki yuridik shaxsning xo'jalik mustaqilligi*. Mulka ega bo'lgan shaxs erkin faoliyat yuritgani holda daromad oladi va o'z daromadlaridan oldindan belgilangan qoidalar asosida soliq to'laydi.

3. *Soliqlarning umumiyligi*, ya'ni bir xil iqtisodiy sharoitda bo'lgan barcha fuqarolar ijtimoiy, milliy, irqiy yoki boshqa farqlaridan qat'i nazar, bir xil soliqlar to'lashi mumkinligi.

4. *Soliqlarni joriy etish faoliyati va ularni to'plash faoliyatining bir-biridan ajratilganligi*, ya'ni soliq joriy etuvchi davlat idorasining soliq olish imkoniyatidan, soliq to'plovchini esa, soliqlar joriy etish imkoniyatidan uzoqlashtirilganligi soliq munosabatlari sohasida ijtimoiy adolatni ta'minlash, davlat ijroiya organlari o'zboshimchalikka yo'l qo'yilishining oldini olish vazifalarini bajaradi.

5. *Soliqqa oid moliyaviy munosabatlar ustida jamiyat nazoratining amalga oshirilishi*. Ushbu tamoyilning amal qilishi natijasida soliq to'lovchi huquqlarining kafolatlanishiga, samarali tarzda himoya qilinishiga erishiladi. Huquqiy fuqarolik jamiyatlarida soliqqa oid davlat faoliyati ustidan ijtimoiy nazoratning xilma-xil shakllari, samarali usullari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi soliq huquqi manbalari ikki guruhga: qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlariga bo'linadi. Soliq munosabatlarini tartibga solishda qonun me'yorlari yetakchi va belgilovchi ahamiyatga ega, chunki soliqlar joriy etish, to'plashga

oid masalalar qonunlar bilan belgilanadi. Qonunosti hujjatlari esa, qonunlarni to'g'ri va to'liq ijro etilishini ta'minlash vositasi sifatida ahamiyatga ega.

Soliq huquqi manbalari sanaluvchi huquqiy hujjatlar yuridik kuchga ko'ra, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha huquq sohalari uchun, shu jumladan, soliq huquqi fani uchun ham asosiy yuridik manba hisoblanadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 53-moddasida: «Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin», deyiladi. Ya'ni o'z vaqtida to'lanmagan soliq va boshqa majburiy to'lovlar faqatgina sudga murojaat qilish yo'li bilangina fuqarodan undirilishi mumkin. Konstitutsiyada soliq munosabatlarini tartibga solishga taalluqli bo'lgan boshqa qat'iy qoidalar ham belgilangan. Ular soliqqa oid boshqa kundalik qonunchilikning rivojlanishi uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

2. Soliq huquqining ikkinchi eng muhim manbasi — O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Bu huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan bo'lib, 1998-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgan. Soliq kodeksi «Umumiy» va «Maxsus» qism, 11 bo'lim, 41 bobdan hamda 135 moddadan iborat. Soliq kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar taraqqiyoti muayyan bosqichi yakunining ifodasi bo'lib, erishilgan yutuqlar va yuzaga kelgan yangi muammolarni o'zida aks ettiradi. Soliq kodeksi shu paytgacha tarqoq holda bo'lgan qonunlarni birlashtirishi, ularda ba'zan uchrab turadigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, turli tushunchalarni talqin etishdagi har xilliklarga barham berish imkonini berdi. Soliq kodeksi bu sohada jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi va qo'lga kiritgan yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solish faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun haqiqiy tayanchni kuchaytiradi.

3. Soliqqa oid qonunlarni nazarda tutuvchi boshqa qonunlar. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonunida korxonalar belgilangan soliqlarni to'lashlari ko'rsatib qo'yilgan. Boshqa qonunlarda ko'zda tutilgan soliq haqidagi qoidalar Soliq kodeksiga zid bo'lmasligi lozim.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari ham, soliq huquqi manbalari orasida muhim o‘rin tutadi. Respublika Prezidenti Farmonlari vositasida soliqqa oid muhim qoidalar, imtiyozlar, cheklashlar muayyan huquqiy tartibi joriy etiladi. Farmonlar Respublika Oliy Majlisi sessiyasida muhokama etilib, tasdiqlangach qonun kuchiga ega bo‘ladi. Keyingi yillarda respublikamizda soliq tartibini o‘zgartirish, yangi tartibni joriy etishga qaratilgan ko‘plab Farmonlar qabul qilinganligini qayd etish lozim.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar. «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekistonning butun hududida barcha idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasi, shu jumladan, soliq huquqiy munosabatlariga taalluqli bo‘lgan masalalarda ham me‘yoriy hujjatlar chiqaradi va ular soliq huquqi manbalari orasida salmoqli o‘rin tutadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq huquqi tamoyillari haqida tushuncha bering.
2. Soliq huquqi manbalarini izohlang.
3. Soliq sohasida qonun qabul qilish tartibi.


4.3. Soliq subyektlarining huquq va majburiyatlari

Soliq to‘lovchilar — yuridik va jismoniy shaxslar soliq huquqiy munosabatlarida ishtirok etishlari jarayonida huquq subyekti sifatida huquqlar va majburiyatlar majmuyiga ega bo‘ladi. Ushbu huquq va majburiyatlar soliq to‘lovchining huquqiy maqomini belgilash, davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar doirasini belgilash imkonini beradi. Majburiyatlarni chuqur va yaxshi bilish esa, turli huquqbuzarliklarning oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 31-moddasida soliq to‘lovchilarning huquqlari ko‘rsatib berilgan. Bu huquqlar quyidagilardan iborat:

1. Soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq huquqining manbalari



7-chizma. Soliq huquqining manbalari.

2. Qonunlarda belgilab qo'yilgan tartibda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

3. O'zi tomonidan ortiqcha to'lab yuborilgan soliq va yig'im summasini qaytarishlari so'ralgan yozma ariza bilan murojaat qilish.

4. Soliqlar va yig'implar bo'yicha budjet oldidagi o'z majburiyatlari haqidagi soliq idoralari ixtiyorida bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishish.

5. Soliq idoralari tomonidan o'z faoliyati yuzasidan o'tkazilgan tekshirish materiallari bilan tanishib chiqish, dalolatnoma nusxalarini olish, tekshiruv natijalaridan norozi bo'lganida esa, o'n kunlik muddat ichida o'z noroziliklarini soliq idoralariga bildirish.

6. Soliq idorasi qarorlari va ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq idorasiga yoki sudga shikoyat qilish.

7. Soliq obyektlarini hisobga olish, soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarini soliq idoralari tomonidan aniqlaguniga qadar, mustaqil ravishda aniqlash va tuzatish huquqlariga egalik.

Soliq to'lovchilar huquqlar bilan bir qatorda, majburiyatlarga ham ega bo'ladilar va ularning qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Belgilangan tartibda va muddatda soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish, yuridik manzili o'zgarganida esa, bu haqda 10 kun ichida soliq idoralariga xabar qilish.

2. Soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda budjetga to'lash.

3. Buxgalteriya hisobi va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

4. Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonunlarda belgilangan tartibda va muddatlarda soliq idoralariga taqdim etish.

5. Soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq idoralarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishga ruxsat berish.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq to'lovchilarning huquqlari haqida tushuncha bering.
2. Soliq to'lovchilarning qanday majburiyatlari mavjud?

4.4. Soliq nazorati turlari va shakllari

Davlat soliq qo‘mitasining nazorat funksiyalarini ko‘rib chiqib, nazoratning mohiyatini aniqlab olishimiz lozim, zero, mazkur atama o‘z mohiyatiga ko‘ra, «tekshirish» va shuningdek, «tekshirish maqsadidagi kuzatish» ma’nosini anglatadi.

Nazorat vositasida bajarilayotgan topshiriqning to‘liqligi, o‘z vaqtidaligi va samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchiligi, topshiriqni bajarish paytida mansabdor shaxslar qilgan xatti-harakatlar va o‘tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi belgilanadi, faoliyatini yaxshilash va ishda yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etish uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi, ishda pala-partishlikka yo‘l qo‘ygani uchun tegishli mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Bajarish muddatlariga ko‘ra, *nazorat tezkor va davriy* turlarga bo‘linadi.

Tezkor nazorat hisobot oyi ichida (masalan, har o‘n kun, har kun va h.k.lar uchun) nazorat qilinadigan jarayon, operatsiya va xatti-harakatlar tugaganidan so‘ng, uning sifat va miqdor tavsifiga ko‘ra, bajariladigan tekshirishdan iboratdir.

Davriy nazorat — muayyan hisobot davri uchun rejalar, smetalar, me’yorlar va birlamchi hujjatlar, ishlab chiqish, moddiy va boshqa hisobotlar ma’lumotlari, hisob registrlari, hisobotlar va boshqa manbalardagi yozuvlar asosida tekshirishdir.

Ma’lumotlar manbalariga ko‘ra, nazorat *hujjatli va faktli* turlarga bo‘linadi.

Hujjatli nazoratda tekshirilayotgan obyekt mazmuni hamda uning reglamentlangan qiymatiga muvofiqligi hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida tekshiriladi.

Faktli nazoratda tekshirilayotgan obyektning miqdor va sifat holati, ishlab chiqarishdagi xomashyo va materiallarni tekshirish, ko‘zdan kechirish, o‘lchash, qayta sanash, laboratoriyada tekshirish, ekspertizadan o‘tkazish kabi usullar yordamida tekshiriladi.

Yuridik shaxslarni hujjatli tekshirish inspeksiya ishining yillik rejaları va har bir ish uchastkasi bo‘yicha tuziladigan tekshirishlarning choraklik grafiklariga muvofiq amalga oshiriladi. Ularga birichi navbatda katta miqdorda foydaga ega bo‘lgan yoki buxgalteriya hisobini yuritishda va soliq qonunchiligiga rioya qilishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yayotgan korxonalar, shuningdek, zarar ko‘rish sabablarini aniqlash va ularni bankrot, deb e‘lon etish uchun zarar ko‘rib ishlayotgan barcha korxonalar kiritiladi.

Soliq idoralari birlamchi hujjatlar va hisob registrlarini tekshirganda *yalpi* va *tanlab* olish usulini qoʻllaydilar.

Yalpi usul barcha hujjatlarni, jumladan, buxgalteriya hisobi registridagi yozuvlarni tekshirish bilan xarakterlanadi. Odatda, kassa va bank operatsiyalari yalpi tekshirishdan oʻtkaziladi.

Tanlab olish usulida tekshirilayotgan davrning har bir oyidagi yoki bir necha oy uchun birlamchi hujjatlarning bir qismi tekshiriladi. Tanlab tekshirilganda soliq qonunchiligini jiddiy buzilishlar yoki suiisteʼmolliklar aniqlangan hollarda korxonada faoliyatining mazkur uchastkasida tekshirish yalpi usul vositasida oʻtkazilib, foyda yashirilgani yoki boshqa obyektlar soliq solishdan yashirilgani va suiisteʼmolliklar toʻgʻrisida guvohlik beruvchi hujjatlar majburan olib qoʻyiladi.

Kameral tekshiruvni soliq organining vakolatli mansabdor shaxslari oʻzlarining xizmat burchlariga muvofiq, soliq organi rahbarining biron-bir maxsus qarorisiz, soliq toʻlovchi tomonidan soliqni hisoblash va toʻlash uchun asos boʻlib xizmat qiladigan hujjatlar taqdim etilganidan keyin oʻtkazadilar.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq nazorati turlari qanday?
2. Faktli nazoratni tavsiflang.

4.5. Soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 112-moddasiga asosan, soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun soliq toʻlovchiga nisbatan quyidagi miqdorda moliyaviy jazo choralari qoʻllaniladi:

1. Yuridik shaxslarning soliq organidan roʻyxatdan oʻtishdan boʻyin tovlash quyidagi miqdorda jarima solishga olib keladi:

a) agar faoliyat oʻttiz kungacha amalga oshirilgan boʻlsa, eng kam ish haqining 50 barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromadning 10 % dan kam boʻlmagan miqdorda;

b) agar faoliyat oʻttiz kundan ortiq muddatda amalga oshirilgan boʻlsa, eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromadning 50 % idan kam boʻlmagan miqdorda.

2. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarning soliq organida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlashi eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida jarima solishga olib keladi.

3. Daromad yashirilgan taqdirda, soliq to'lovchidan yashirilgan daromadning butun summasi va yana shuncha summa miqdorida jarima undiriladi.

4. Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki uning belgilangan tartibini soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblarning buzilishiga olib keladigan tarzda buzgan holda yuritganlik uchun soliq to'lovchidan qo'shimcha hisoblab chiqarilgan summaning 10 % i miqdorida jarima undiriladi.

5. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz shug'ullanganlik uchun shu faoliyatdan olingan butun daromad va yana shuncha miqdorda jarima undiriladi.

6. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 % miqdorida o'sib boruvchi yakun tartibida pena undiriladi.

7. Yer uchastkasiga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgandan kattaroq o'lchamdagi yer maydonlaridan foydalanganlik uchun quyidagi miqdorda jarima undiriladi: yuridik shaxslar uchun yer solig'iga teng summaning 2 barobari miqdorida, jismoniy shaxslar uchun 1,5 barobari miqdorida jarima undiriladi.

8. Nazorat-kassa mashinalarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek, xaridorga kvitansiya yozib berish, talonlar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa cheklarni berish majburiy bo'lgani holda bunday hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik uchun:

- yuridik shaxslardan eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida, o'sha qilmishlar moliyaviy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida takroran sodir etilgan taqdirda esa, eng kam ish haqining 200 barobari miqdorida;

- yakka tartibdagi tadbirkorlardan eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida jarima undiriladi.

9. Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlardan eng

kam ish haqining 200 barobari miqdorida, o'sha qilmishlar takroran sodir etilgan taqdirda esa, eng kam ish haqining 500 barobari miqdorida jarima undiriladi.

10. Dehqon bozoridagi statsionar savdo shoxobchalaridan tashqarida nooziq-ovqat tovarlarini realizatsiya qilganlik uchun yakka tartibdagi tadbirkorlardan eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida jarima undiriladi.

11. Realizatsiya qilingan tovar (xizmat)lar uchun olingan pul tushumi summasini daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish ro'yxatlariga kirim qilmagan holda savdoni amalga oshirganlik va pulli xizmatlar ko'rsatganlik uchun yakka tartibdagi tadbirkorlardan eng kam ish haqining 10 barobari miqdorida, o'sha qilmishlar takroran sodir etilganda esa, eng kam ish haqining 50 barobari miqdorida jarima undiriladi.

12. Iste'mol tovarlarini ulgurji savdo qilishning belgilangan tartibini buzganlik uchun yuridik shaxslardan mazkur faoliyatidan olingan butun daromad va yana shuncha miqdorida jarima undiriladi.

Agar soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun moliyaviy jazoga tortilgan shaxs jazoni ijro etish tugagan kundan e'tiboran bir yil ichida soliq bo'yicha takroran qoidabuzarlik sodir etmagan bo'lsa, u jazoga tortilmagan hisoblanadi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun qanday huquqiy javobgarlik choralari qo'llaniladi?
2. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun qanday moliyaviy javobgarlik choralari qo'llaniladi?

4.6. Soliqqa oid nizolarni ko'rib chiqish asoslari va uni tasniflash yo'llari

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan birga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga aralashmaydigan, ular faoliyati rivojlanishiga omil bo'ladigan, ayni paytda qonuniy faoliyat yuritishlarini davlat tomonidan nazorat qilishning yangi usulini tashkil etish zarur bo'ldi. Bu vazifaning dastlabki yechimi 1991-yil 12-avgustda Davlat soliq xizmati organlarini tashkil etish bilan hal etildi.

Soliq nazoratining paydo bo'lishi bilan birga soliqqa oid munosabatlar bo'yicha nizolar ham vujudga keldi. Soliqqa oid mu-


nosabatlarni tartibga solishda davlat soliq nazoratini amalga oshiruvchi idora va soliq to'lovchilar o'rtasida nizoli holatlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Chunki, *birinchidan*, bu jahon soliqqa tortish tajribasiga, *ikkinchidan*, 70 yildan ortiq vaqt soliqlarni yashirin (bilvosita) tarzda to'lab kelgan mamlakat hamda fuqarolarga xos holat bo'lsa, *uchinchidan*, bu huquqiy demokratik davlatning belgisidir.

Bizda soliqqa tortish tamoyillari, asoslari, imtiyozlar berish, soliqqa tortiladigan daromadlar obyektini hisoblash va soliqqa oid munosabatlarni tartibga solishni belgilab beradigan yagona hujjat — Soliq kodeksi amalga kiritilgunga qadar, soliqqa oid munosabatlar alohida qonunlar va tarmoq yo'riqnomalari asosida olib borilar edi.


O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 108-moddasi soliq munosabatlariga oid nizolarni ko'rib chiqishni tartibga solish asosini belgilaydi. Mazkur moddaga ko'ra, soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasidagi nizolar soliq organlari va sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, soliqqa oid munosabatlarda davlat va soliq to'lovchi manfaatlari o'zaro to'qnashuvga keladi. Bu esa, tomonlarning o'z manfaatlari, qonuniyligi borasida qarama-qarshi fikrni keltirib chiqaradi. Buni huquqshunoslikda soliqqa oid nizolar, deb atash mumkin.

Soliqqa oid nizolarni ularni qo'zg'atuvchilar bo'yicha, manfaatdor tomonlar bo'yicha, nizo predmetiga, nizo mazmuni, tarmoq yoki sudlarga taalluqliligiga ko'ra tasniflash bo'ladi. Ularni chizmalar yordamida ko'rib chiqamiz.



8-chizma. Soliqqa oid nizolarni qo'zg'atuvchilar.



9-chizma. Nizodan manfaatdor tomonlar.

Ta'kidlanganlar soliqqa oid munosabatlarda soliq nizolarini qo'zg'atuvchilarning biri — subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur subyektlarning nizoni qo'zg'atishdan manfaatdorligi bor. Chunki nizoni qo'zg'atishdan maqsad kimning va qanday manfaatni himoya qilishdir.

Nizolar manfaatdorlik belgisiga qarab:

- davlat manfaatlarini ko'zlab;
- soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilishi mumkin.

Nizolar soliq to'lovchilar manfaatlarini ko'zlab, soliq to'lovchilarning o'zlari, adliya va prokuratura organlari tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Davlat manfaatini ko'zlab esa, odatda, Davlat soliq xizmati organlari, prokuratura va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'linmalari hamda sudlar tomonidan qo'zg'atiladi.

Predmetiga ko'ra, nizolarni:

- soliq va boshqa qonunchilikning buzilishi oqibatida soliq to'lovchi yoki davlatga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha;
- davlat organlari harakatlari va qarorlarining qonuniyligi bo'yicha;
- soliqqa oid qonunosti hujjatlari va qonunlarning Konstitutsiyaga yoki bir-biriga mosligi bo'yicha guruhlariga bo'lish mumkin.

Mazmuniga ko'ra, soliqqa oid nizolarni:

- moliyaviy, ma'muriy jarimalarni undirish bo'yicha;
- boqimandalardan majburiy undirish bo'yicha;
- davlat soliq xizmati organlarining belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan hujjatlarini haqiqiy emas, deb topish bo'yicha;
- davlat soliq nazoratini olib boruvchi organlar mas'ul xodimlari harakatlari (yoki harakatsizligi) oqibatida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash bo'yicha guruhlariga.

Bundan tashqari nizolarni ko‘rib, chiquvchi organlarga qarab:

- ma‘muriyat tomonidan;
- sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan nizolarga bo‘lish mumkin.

Har qanday huquqiy demokratik davlatlardagidek, mamlakati-mizda ham soliqqa oid nizolarni hal etish huquqi soliq nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga berilgan. Nizolarning bunday tartibda hal etilishi, ularning ma‘muriyat tomonidan ko‘rib chiqilishi, deb yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 108-moddasi va «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasi soliqqa oid munosabatlar yuzasidan nizolarni davlat soliq xizmati organlari ma‘muriyati tomonidan hal etish uchun huquqiy asos hisoblanadi. Kodeksning 108-moddasiga ko‘ra, soliq to‘lovchi, soliq organlari o‘tkazgan tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda soliq organiga o‘zining yozma e‘tirozlarini 10 kunlik muddat ichida taqdim etishi va soliq organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga shikoyat qilishi mumkin.

Nizolarni ma‘muriyat bilan hal etishning ustunligi bunday tartibda davlat boji undirilmasligidadir. Shu sababli, soliqqa oid nizolarni hal etishda, soliq to‘lovchilar mazkur yo‘lni ko‘proq tanlaydilar. Ma‘muriyat bilan nizolarni hal etishda soliq to‘lovchi yuqori turuvchi davlat soliq nazorati organiga tekshiruvlar natijasi yoki mansabdor shaxsning qarori, harakati (harakatsizligi) to‘g‘risida shikoyat arizasi beradi. Agar 10 kunlik muddat uzrli sabablarga ko‘ra, o‘tkazib yuborilsa, yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki soliq nazorati organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Soliq to‘lovchi shikoyat arizasini tekshirishlar natijasidan nima sabablarga ko‘ra, norozi ekanligini asoslab, fikrini oddiy tarzda bayon etishi kerak. Yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki soliq organi soliq to‘lovchining shikoyat arizasini ko‘rib chiqib:

- qabul qilingan qarorni o‘zgartirishsiz qoldirish to‘g‘risida;
- shikoyatni qanoatlantirmaslik to‘g‘risida;
- davlat soliq nazorati organi tekshiruvlari natijasini bekor qilish va yangidan tekshiruv tayinlash to‘g‘risida;
- qarorga o‘zgartirish kiritish yoki yangi qaror qabul qilish to‘g‘risidagi qarorlardan birini chiqarishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning ariza va shikoyatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, davlat soliq nazorati organlari 1 oy muddat ichida shikoyat arizalarini ko‘rib chiqib, natijasini soliq to‘lovchiga ma‘lum qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 264-moddasiga binoan, davlat soliq xizmati organlariga ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘yicha aybdorlarga nisbatan jazo chorasi qo‘llash vakolati berilgan. Davlat soliq xizmati organlarininig ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarori yuzasidan kelib chiqqan nizolar MJTKning 315-moddasiga muvofiq, sud va ma‘muriyati tomonidan ko‘rib chiqilishi mumkin.

Bunday nizolar yuzasidan soliq to‘lovchilar davlat soliq nazorati organlarining ma‘muriy jazoga tortish to‘g‘risidagi qarori nusxasini olgandan so‘ng 10 kun ichida yuqori turuvchi organga shikoyat qilishlari mumkin. Soliq to‘lovchidan shikoyat arizasi kelib tushgandan so‘ng 3 kun ichida davlat soliq xizmatining mansabdor shaxsi ma‘muriy ish va shikoyat arizasini yuqori turuvchi organga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 316-moddasiga ko‘ra, yuqori turuvchi davlat soliq xizmati organi tomonidan shikoyat arizasi 10 kun muddatda ko‘rib chiqiladi. Shikoyat arizasi bo‘yicha yuqori turuvchi davlat soliq xizmati organi ma‘muriy jazoning qonuniyligi va asosligini tekshirib ko‘rib:

- ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni o‘zgartirishsiz qoldirib, arizani qanoatlantirmaslik;
- ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni bekor qilib, ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborish;
- ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni bekor qilib, ish yuritishni tugatish;
- ma‘muriy jazo chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni me‘yoriy hujjatlarda belgilangan talablar darajasigacha yengillashtirish to‘g‘risidagi qarorlardan birini chiqaradi.

Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan ishni ko‘rib chiqish paytida ma‘muriy jazoga tortish to‘g‘risidagi qaror vakolati bo‘lmagan shaxs tomonidan qabul qilingan taqdirda, qaror bekor qilinib, vakolatli shaxs tomonidan ko‘rib chiqish uchun yuboriladi. Shikoyat arizasi bo‘yicha qabul qilingan qaror nusxasi MJTKning 321-moddasiga binoan, 3 kun ichida uni qabul qilgan organga yuboriladi. Jabrlanuvchi o‘z arizasida

qaror nusxasini berishni so‘ragan taqdirda, qaror nusxasi jabrlanuvchiga ham yuboriladi.

Ma‘muriy jazoga tortish to‘g‘risidagi qaror bekor qilingan taqdirda, jabrlanuvchining musodara qilingan mol-mulki qaytariladi va yetkazilgan zarar qonuniy tarzda undirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 3-noyabrdagi «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida»gi PF-4377-sonli Farmoniga kiritilgan o‘zgartirish

Mazkur Farmon 2-bandining to‘rtinchi xatboshi:

«yagona tarif setkasi bo‘yicha boshlang‘ich (nolinchi) razryad — oyiga 62 920 so‘m» chiqarib tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-313-sonli Qonuni bilan kiritilgan o‘zgartirishlar

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilgan asosiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Soliq kodeksining 59-moddasiga:

«Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash choralari jumlasiga davlat soliyu xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddati tugagandan keyin uch ish kundan kechiktirmasdan jismoniy shaxslarga, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa o‘ttiz kundan kechiktirmasdan yuboriladigan, soliq to‘lovchi majburiyatini bajarishi zarurligi hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko‘riladigan choralar to‘g‘risidagi talabnoma kiradi».

2. Soliq kodeksining 63-moddasiga:

«Soliq qarzi summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalari soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddati tugagandan keyin uch ish kundan, kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa o‘ttiz kundan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi».

3. Soliq kodeksining 84-moodasig kiritilgan o'zgartirish Davlat notarial idoralari ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi to'g'risida o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shartligini nazarda tutadi.

Ushbu modda shuningdek, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan Davlat soliq qo'mitasiga depozitariylarda ro'y-xatga olingan aksiyalar bo'yicha bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozimligi to'g'risida qoida bilan to'ldirildi.

4. Soliq kodeksining 121-moddasidagi to'ldirish aniqlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, unga ko'ra yer uchastkalaridan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanilganda ham jarima qo'llanishini nazarda tutadi.

Oldingi tahrirda yer uchastkalrilan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish uchun javobgarlik choralari qo'llash nazarda tutilmagan edi.

5. Soliq kodeksining 143, 145 va 147-moddalari quyidagilarni nazarda tutuvchi qoidalar bilan to'ldirildi:

- foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadigan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar, ta'tilga qo'shimcha haqlar, oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini to'lash yoki oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini qoplash, shuningdek xodimlarga ta'til uchun mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'langan haq va ular bo'yicha pullik kompensiyalar kirtishni nazarda tutadi. Avval ushbu xarajatlar Soliq kodeksining 147-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, foyda solig'ini hisoblashda chegirilmas edi;

- foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadigan boshqa xarajatlar tarkibiga abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov kiritildi;

- soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar tarkibiga ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskunalar uchun to'lovni kiritildi.

6. Soliq kodeksining 164, 271 va 300-moddalariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda obodonlashtirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni to'lashning yagona muddatlarini ya'ni har oyning 10-kunidan kechiktirmay belgilashni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritildi.

Joriy to'lovlarni to'lashning yagona muddatini belgilash soliq to'lovchining ma'muriy xarajatlarini kamaytiradi.

7. Soliq kodeksining 172-moddasiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichik ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy, serjant va ofitser tarkiblarida xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar kirishini nazarda tutuvchi me'yor bilan to'ldirildi.

Ushbu to'lovlar ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan to'lovchilar uchun mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar sifatida qaraladi.

8. Soliq kodeksining 179-moddasiga kiritilgan qo'shimchalar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini), yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni, ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno, ozod etish ko'rinishidagi imtiyozni bekor qilishni nazarda tutadi. Kiritilgan o'zgartirishlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan obyektlarni aniqlash uchun aniq me'yorlarni o'rnatish imkoniyatini beradi.

9. Soliq kodeksining 181-moddasiga kiritilgan qo'shimchalar mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslardan tekin olingan ulushlar, paylar va aksiyalar, jismoniy shaxslarga egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi, ya'ni 9 foiz miqdorida soliq solinishini nazarda tutadi.

10. Soliq kodeksining 277 va 294-moddalariga kiritilgan o'zgartirishlar soliq davri uchun jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i va mol-mulk solig'ini to'lash muddatlarini o'zgartirishni, ya'ni hisobot yilining 15-oktabri qilib belgilashni nazarda tutadi.

Ushbu o'zgartirishlar jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni to'lash tartibi va ushbu soliqlar ma'murchiligini soddalashtiradi, shuningdek, soliq organlari tomonidan ularni yig'ish bo'yicha xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

2012-yilda quyidagi yangi huquqiy me'yorlar kiritildi:

<p>2012-yil 1-yanvardan Yagona tarif setkasini nolinch razryadi bekor bo'ldi va barcha korxonalar uchun ish haqi miqdori 1 razryaddan kam bo'lmashligi belgilandi (1 razryad — 2,476 koeffitsiyenti EKOIH 62920 so'm = 155220,44 so'm).</p>			
<p>1-yanvardan yagona soliq to'lovini to'lovchi avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmat ko'rsatuvchi korxonalar uchun yagona soliq to'lovining eng kam me'yorlari sifatida har bir avtotransport vositasi uchun xuddi shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'ladigan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmagan summani to'lash tartibi joriy etildi.</p>			
<p>Rossiya Federatsiyasi va Ukrainada ishlab chiqilgan yangi avtomobillarni maxsus savdo tizimi orqali xarid qilayotgan fuqarolar avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiritilganligi uchun yig'imdan ozod qilindi.</p>			
<p>Ko'chmas mulkni, shu jumladan, yashash joyini ijaraga berishdan olgan daromadlarini soliqqa tortishda, shartnomadan belgilangan ijara to'lovidan, lekin quyida belgilangan me'yorlardan kam bo'lmagan miqdorda belgilandi: — yuridik shaxslarga — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkasidan; — jismoniy shaxslar uchun:</p>			
To'lovchilar	Umumiy maydonning 1 kv.m. uchun eng kam ijara stavkalari miqdori, so'mda		
	Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyatga bo'y-sinuvchi shaharlar	Boshqa aholi punktlari
Uy-joyini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar	3000	2000	1000



NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq kodeksining qaysi moddasida soliq munosabatlari to'g'risida yozilgan?
2. Soliqqa oid nizolar predmetiga ko'ra, qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Soliqqa oid nizolar mazmuniga ko'ra, qanday guruhlarga bo'linadi?
4. Soliqqa oid nizolarni qaysi organlar ko'rib chiqadi?

TEST SAVOLLARI

1. *Yuridik shaxs — bu:*

- A. Moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- B. Mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga hamda hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan hamma turdagi xo'jalik subyektlari;
- C. Chetdan import tovarlarini olib kirib savdo qiluvchi shaxslar;
- D. Mol-mulkka, bankda hisobvarag'iga ega bo'lgan shaxslar;
- E. Fuqarolik huquq va majburiyatlarining egasi, jumladan, soliq to'lovchi bo'lgan insonlar, mazkur mamlakat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

2. *O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar qaysi bandda ko'rsatilgan?*

- A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, qat'iy soliq, yer solig'i, transport vositalari uchun olinadigan yoqilg'i iste'moli uchun soliq;
- B. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- C. Barcha turdag'i bilvosita soliqlar;
- D. Barcha turdagi umumdavlat soliqlari;
- E. Barcha turdagi mahalliy soliqlar.

3. *Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibini ko'rsating:*

- A. Tovarlar sotishdan olingan daromad va xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromad;
- B. Tovarlar eksporti va importidan olingan daromadlar;
- C. Tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarishdan olingan daromadlar;
- D. Yalpi daromad, yalpi tushum, sof foyda;
- E. Yil davomida olingan barcha daromadlar.

4. *Soliqqa tortiladigan yalpi daromad — bu:*

- A. Savdo, tayyorlov, ta'minot va qayta sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar mahsulotni sotib olingan va sotilgan narxlar o'rtasidagi qiymat;
- B. Ilgari chegirilgan xarajatlar, zararlar yoki gumonli qarzlarni qoplash ko'rinishida olingan daromadlar;
- C. Soliq to'langanidan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qolgan summa;
- D. Davr xarajatlari va favqulodda zararlar chiqarib tashlanganidan keyin qolgan daromad;
- E. Vositachilik faoliyati orqali daromad oluvchilar uchun vositachilik shartnomalari bo'yicha olingan xizmat haqi summasi.

5. *O'zbekiston Respublikasi Soliq qonunchiligiga asosan, foyda solig'i bo'yicha yuridik shaxslar qanday imtiyozlarga ega?*

- A. Foyda solig'idan butunlay ozod etish; foyda solig'idan ma'lum muddatga ozod etish; foyda solig'idan 1 yil davomida ozod etish;
- B. Soliq to'lovchilarning soliqqa tortiladigan daromadini ayrim tadbirlarga sarflangan mablag'lar ma'lum qismi hisobiga kamaytirish; foyda solig'idan butunlay ozod etish; xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining daromadidan eng kichik stavka asosida foyda solig'ini undirish;

- C. Soliqdan qisqa muddatga (1 yilgacha), o'rta muddatga (1 yildan 5 yilgacha), uzoq muddatga (5 yildan 10 yilgacha) foyda solig'idan ozod etish;
- D. Foyda solig'idan butunlay ozod etish; ayrim yuridik shaxslarning ma'lum muddatdagi faoliyati davrida olgan daromadi solig'idan ozod etish; soliq to'lovchilarning soliqqa tortiladigan daromadini ayrim tadbirlarga sarflangan mablag'lar ma'lum qismi hisobiga kamaytirish;
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

6. *Xodimlari umumiy sonining ma'lum qismini umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tashkil etadigan yuridik shaxslarga soliq qonunchiligida daromad solig'idan qanday imtiyozlar bor?*

- A. Foyda solig'idan butunlay ozod etiladi;
- B. Bunday yuridik shaxslarga imtiyoz belgilanmagan;
- C. Ma'lum muddatdagi faoliyati davrida olgan daromadi soliqdan ozod etiladi;
- D. Soliqqa tortiladigan daromadini ayrim tadbirlarga sarflangan mablag'lar ma'lum qismi hisobiga kamaytiriladi;
- E. Yuridik shaxs tarkibida ishlayotgan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining foiz ko'rsatkichiga qarab foyda solig'ining ma'lum qismidan ozod etiladi.

7. *Quyidagi qaysi yuridik shaxslarning ma'lum muddatdagi faoliyati davrida olgan daromadi soliqdan ozod etiladi?*

- A. Yangidan tashkil etilgan dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy korxonalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashdan, xalq iste'moli mollari, qurilish materiallarini ishlab chiqara boshlagan yuridik shaxslar;
- B. Protez-ortoped buyumlari, inventar ishlab chiqarish, shuningdek, nogironlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar (asosiy faoliyat turi bo'yicha);
- C. Davolash muassasalari qoshidagi davolash, ishlab chiqarish ustaxonalari;
- D. Davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromad olgan yuridik shaxslar;
- E. Eksport mahsulotlari chiqaruvchi yuridik shaxslar.

8. *Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangidan tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar olgan daromadidan soliqni qanday tartibda to'laydilar?*
- 1-yili soliqning 50 % ini, 2-yili soliqning 75 % ini, 3-yili soliqning 100 % ini;
 - 1-yili soliqning 40 % ini, 2-yili soliqning 70 % ini, 3-yili soliqning 100 % ini;
 - 1-yili soliqning 25 % ini, 2-yili soliqning 50 % ini, 3-yili soliqning 75 % ini, 4-yili soliqning 100 % ini;
 - 1-yili soliqning 50 % ini, 2-yili soliqning 85 % ini, 3-yili soliqning 100 % ini;
 - 1-yili soliqning 80 % ini, 2-yili soliqning 90 % ini, 3-yili soliqning 100 % ini.
9. *Yuridik shaxslarning foyda solig'ini hisoblash tartibini ko'rsating:*
- $D_{(n)} = (J_d - Ch - I) / 100;$
 - $D_{(n)} = (J_d - Ch - I - SBK) \cdot S_v / 100;$
 - $D_{(n)} = (J_d - Ch - I) \cdot S_v / 100;$
 - $D_{(n)} = (J_d - Ch - I - SBK) / 100;$
 - $D_{(n)} = (J_d - I - SBK) \cdot S_v / 100.$
10. *Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini qanday muddatlarda to'lashlari shart?*
- Foydadan olinadigan soliqning yil choragi summasining oltidan bir qismi miqdorida teng ulushlarda har oyning 15 va 25-sanalaridan kechiktirmasdan;
 - Foydadan olinadigan soliqning yil choragi summasining oltidan bir qismi miqdorida teng ulushlarda har oyning 15 va 30-sanalaridan kechiktirmasdan;
 - Foydadan olinadigan soliqning yil choragi summasining oltidan bir qismi miqdorida teng ulushlarda har oyning 10 va 25-sanalaridan kechiktirmasdan;
 - Har chorakda to'lab boradilar;
 - Birinchi yarim yillik uchun 15-iyun va yil oxirida 15-dekabr-dan kechitirmay.

11. *Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) obykti bo'lib:*

- A. Hisobot davrida yuridik shaxs olgan daromadi;
- B. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi;
- C. Mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati;
- D. Asosiy vositalarning eskirish qiymati;
- E. Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar qiymati, sotilgan tovarlar oboroti.

12. *0 (nol) darajali stavka qaysi soliq turida qo'llaniladi?*

- A. Daromad;
- B. Mol-mulk;
- C. Yer solig'i;
- D. QQS;
- E. Aksiz solig'i.

13. *Import qilinadigan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i ifodasini aniqlang:*

- A. $S_{QQS} = (T_Q + B + A_s) \cdot S : 100;$
- B. $S_{QQS} = (T_Q + B - A_s) \cdot S : 100;$
- C. $S_{QQS} = (T_Q + B - A_s) \cdot S : 100;$
- D. $S_{QQS} = (T_Q - B \cdot A_s) \cdot S : 120;$
- E. $S_{QQS} = (T_Q + B - A_s) \cdot S : 120.$

14. *Quyida ko'rsatilgan yuridik shaxslarning qaysi biriga qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyoz belgilangan?*

- A. Xalq ta'limi sohasidagi o'quv-ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar, shuningdek, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohalariga;
- B. Jazoni ijro etuvchi muassasalarga;
- C. Yo'lovchilarni tashish bilan bog'liq xizmatlar bilan shug'ullanuvchi shaxslarga;
- D. Notijorat korxonalariga;
- E. QQS bo'yicha imtiyozlar belgilanmagan.

15. *Iste'molchilardan olinadigan QQS qanday ifoda yordamida aniqlanadi?*

- A. $S_{QQS} = (O_{ob} + S_s) \cdot 100$;
- B. $S_{QQS} = O_{ob} \cdot S_s \cdot 100$;
- C. $S_{QQS} = (T_Q + B + A_s) \cdot S \cdot 100$;
- D. $S_{QQS} = (O_{ob} - S_s) \cdot 100$;
- E. $S_{QQS} = (O_{ob} + S_s) \cdot 100$.

16. *Tovar (ish, xizmat)lar qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganda qo'shilgan qiymat solig'i qanday aniqlanadi?*

- A. $S_{QQS} = S_t \cdot S_s \cdot (S_s + 100)$;
- B. $S_{QQS} = S_t \cdot S_s \cdot (S_s - 100)$;
- C. $S_{QQS} = S_t + S_s \cdot (S_s - 100)$;
- D. $S_{QQS} = S_t - S_s \cdot (S_s - 100)$;
- E. $S_{QQS} = S_t \cdot S_s \cdot 100$.

17. *Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating:*

- A. Yilning har choragida;
- B. Har oyning 25-sanasidan kechiktirmasdan;
- C. Har oydan keyingi oyning 15-sanasigacha;
- D. Joriy oydan keyingi oyning 25-sanasigacha;
- E. 15-iyun va 1-yanvargacha.

18. *Agar bojxona chegarasidan aksiz solig'iga tortiladigan tovar o'tkazilayotgan bo'lsa, QQSning qiymatini hisoblash ifodasini ko'rsating:*

- A. $S_{QQS} = S_t \cdot S_s \cdot (A_s - 100)$;
- B. $S_{QQS} = (Q_b + P_b + A_s) \cdot S_t / 100$;
- C. $S_{QQS} = (Q_b + P_b - A_s) \cdot S_t / 100$;
- D. $S_{QQS} = (Q_b + P_b + A_s) / 100$;
- E. $S_{QQS} = (Q_b - P_b - A_s) \cdot S_t / 100$.

19. *Aksiz solig'i to'lovchilari bo'lib:*

- A. Aksiz solig'i solinadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- B. Savdo tashkilotlari;

- C. Umumiy ovqatlanish korxonalari;
- D. Yagona yer solig'i to'lovchi korxonalar;
- E. Hisobot davrida daromad oluvchi korxonalar.

20. *Aksiz solig'i obyektini bo'lib:*

- A. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi;
- B. Sotish xarajatlari;
- C. Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan va sotilgan hajmi;
- D. Aksiz markalari uchun ketgan xarajatlar;
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

21. *Aksiz solig'iga tortiladigan (aylanma narx) qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?*

- A. $O = (S - 100) (100 - A)$;
- B. $O = (S + A) (100 - A)$;
- C. $O = (S + 100) (100 - A)$;
- D. $O = (S - 100) (100 + A)$;
- E. $O = (S + 100) (100 + A)$.

22. *O'n kunlik to'lovlar bo'yicha kelib tushgan aksiz solig'i summasini soliq xizmati idoralari soliq to'lovchilarning qaysi hujjatida aks ettiradilar?*

- A. Yuk xati;
- B. Soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i;
- C. Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish daftari;
- D. Barcha javoblar to'g'ri;
- E. To'g'ri javob yo'q.

23. *O'zbekistonda ishlab chiqarilgan va uning hududiga olib kelinadigan qanday turdagi tovarlarni aksiz markalari bilan sotilishini nazorat qilish tartibi joriy etilgan?*

- A. Tamaki va alkogol;
- B. Yog' va sovun;
- C. Paxta tolasi;
- D. Video-audio texnikasi;
- E. Gilam va gilam mahsulotlari.

24. *Yuridik shaxslardan olinadigan mahalliy soliq va yig'imlar qaysi budjetga tushadi?*

- A. Mahalliy budjetga;
- B. Davlat budjetiga;
- C. Korxonada budjetiga;
- D. Viloyatlar budjetlariga;
- E. To'g'ri javob yo'q.

25. *Yuridik shaxslar quyidagi ko'rsatilgan qaysi mahalliy soliq va yig'imlarni to'laydilar?*

- A. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, litsenzion yig'imlar, infratuzilmalarni rivojlantirish uchun soliq, daromad solig'i;
- B. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, infratuzilmalarni rivojlantirish uchun soliq, avtomobil to'xtash joylaridan foydalanganlik uchun yig'im, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- C. Infratuzilmalarni rivojlantirish uchun soliq, avtomobil to'xtash joylaridan foydalanganlik uchun yig'im, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yuridik shaxslarni tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im;
- D. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, infratuzilmalarni rivojlantirish uchun soliq, avtomobil to'xtash joylaridan foydalanganlik uchun yig'im, yuridik shaxslarni tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im;
- E. QQS, aksiz solig'i, daromad solig'i, resurslardan foydalanganlik uchun soliq.

26. *Yuridik shaxslar uchun qanday yer uchastkalari yer solig'i solish obyektini hisoblanadi?*

- A. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- B. Qishloq yoki o'rmon xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yerlar;
- C. Korxonalar, bino va inshootlar qurish uchun berilgan yerlar;
- D. A, B, C javoblari to'g'ri;
- E. To'g'ri javob yo'q.

27. *Agar qishloq yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan taqdirda yer solig'i stavkasi qanday belgilanadi?*
- A. Yerning bonitetiga qarab stavka belgilanadi;
 - B. Yer sifati yomonlashgunga qadar bo'lgan yer stavkasining 50 % i miqdorida;
 - C. Eng yuqori stavka asosida;
 - D. Yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavka bo'yicha;
 - E. Stavka uch barobar ko'p miqdorda undiriladi.
28. *Soliq kodeksiga muvofiq, yuridik shaxslarga yer solig'i bo'yicha necha xil imtiyozlar berilgan?*
- A. 2 xil;
 - B. 3 xil;
 - C. 4 xil;
 - D. 5 xil;
 - E. 6 xil.
29. *Dehqon xo'jaliklari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran qancha muddatga yer solig'idan ozod etiladi?*
- A. 1 yil;
 - B. 3 yil;
 - C. 2 yil;
 - D. 5 yil;
 - E. 6 oy.
30. *Yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblar yuridik shaxslar tomonidan joriy yilning nechanchi sanasigacha taqdim etilishi shart?*
- A. 1-iyungacha;
 - B. 15-yanvargacha;
 - C. 15-dekabr gacha;
 - D. 1-yanvargacha;
 - E. 1-fevralgacha.

31. *Qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ini yiliga necha marotaba to'laydilar?*

- A. 1 marotaba;
- B. Teng ulushlarda 2 marotaba;
- C. Har chorakda;
- D. 3 marotaba;
- E. Har oyda.

32. *Qaysi vaqtda jismoniy shaxs moddiy yordam berilganda daromad solig'idan ozod etiladi?*

- A. Ishdan bo'shatilganda;
- B. Tabiiy ofat bo'lganda;
- C. Xodim betob bo'lganda;
- D. Mukofot berilganda;
- E. Qimmatbaho sovg'a berilganda.

33. *Ijtimoiy soha obyektlarini o'z mablag'lari hisobidan ta'minlovchi korxonalar uchun soliq solish bazasi (S_{SOL}) qanday ifoda orqali hisoblanadi?*

- A. $S_{SOL} = S_f - X_{IJT} - S$;
- B. $S_{SOL} = S_f \cdot X_{IJT} \cdot S$;
- C. $S_{SOL} = S_f + X_{IJT} + S$;
- D. $S_{SOL} = S_f + X_{IJT} - S$;
- E. $S_{SOL} = S_f - X_{IJT} / S$.

34. *Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun joriy to'lovlari qanday muddatda amalga oshiriladi?*

- A. Har oyning 10-kunidan kechiktirmasdan;
- B. Har oyning 20-kunidan kechiktirmay;
- C. Har bir oydan keyingi oyning 5-kunigacha;
- D. Har bir oyning 27-kunidan kechiktirmay;
- E. Har bir oyning 23-kunidan kechiktirmay.

35. Eksport ulushi 50 % dan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi necha foizga pasaytiriladi?
- A. 50 %;
 - B. 30 %;
 - C. 10 %;
 - D. 5 %;
 - E. Bunday yuridik shaxslar mol-mulk solig'idan butunlay ozod etiladi.
36. Korxonada o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)lar umumiy sotish hajmining erkin almashtiriladigan valutadagi hissasi 15 % dan 25 % gacha belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi:
- A. 10 % ga pasaytiriladi;
 - B. 20 % ga pasaytiriladi;
 - C. 30 % ga pasaytiriladi;
 - D. 40 % ga pasaytiriladi;
 - E. 50 % ga pasaytiriladi.
37. Temiryo'l, dengiz, daryo va havo transporti vositalari uchun amortizatsiya me'yorini aniqlang:
- A. 10 %;
 - B. 20 %;
 - C. 30 %;
 - D. 8 %;
 - E. 15 %.
38. Mol-mulk solig'i bo'yicha budjetga joriy to'lovlar qanday muddatlarda amalga oshiriladi?
- A. Har oyning 25-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida;
 - B. Har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida;

- C. Har oyning 15-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida;
- D. Har oyning 10-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida;
- E. Har oyning 5-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida.

39. *Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq obykti bo'lib:*

- A. Qazib olingan foydali qazilmalar narxi;
- B. Qazib olingan foydali qazilma tannarxi;
- C. Qazib olingan foydali qazilma hajmi;
- D. A va B javoblar to'g'ri;
- E. A va C javoblar to'g'ri.

40. *Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari bo'lib:*

- A. Mamlakatimiz hududidagi foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- B. Yer osti inshootlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar;
- C. Foydali qazilmalarni qayta ishlovchi yuridik shaxs;
- D. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

41. *Soliq huquqining asosiy tamoyillarini sanab o'ting:*

- A. Oshkoralik, yagonalik;
- B. Fiskal, taqsimlash;
- C. Soliqlarni qonun asosida oshkora joriy etish, soliq to'lovchi fuqaro yoki yuridik shaxslarning xo'jalik mustaqilligi, soliq-larning umumiyligi, soliqqa oid nazoratni amalga oshirilishi;
- D. Axborot, nazorat, rag'batlantiruvchi, boshqarish;
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

42. *Yer osti boyliklaridan foydalangan xo'jalik subyektlari yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni qanday muddatlarda to'laydilar?*

- A. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;
- B. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;

- C. Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 20-kunigacha;
- D. Hisobot oyining 20-kunigacha;
- E. Hisobot oyining 25-kunigacha.

43. *Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari bo'lib qanday yuridik shaxslar hisoblanadi?*

- A. O'z faoliyatida bevosita suvdan foydalanuvchi shaxslar;
- B. 20 m³.dan ortiq suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar;
- C. Faqat O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari bo'lgan;
- D. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaliklari korxonalarini;
- E. To'g'ri javob A va C.

44. *Yerosti suv manbalariga:*

- A. Daryolar, ko'llar, kanallar;
- B. Suv omborlari va boshqa havzalar;
- C. Artezian quduqlar, suv omborlari, buloqlar;
- D. Buloqlar, artezian quduqlar, drenaj tizimlari kiradi;
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

45. *Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?*

- A. Soliq bosh boshqarmasi;
- B. Oliy Majlis;
- C. Vazirlar Mahkamasi;
- D. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi;
- E. Toshkent shahar sudi.

46. *Qanday korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilning har choragida bir marta belgilangan muddatda to'laydilar?*

- A. Yil choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 40 baravaridan kam bo'lgan korxonalar;
- B. Yil choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 50 baravaridan kam bo'lgan korxonalar;

- C. Yil choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 60 baravaridan kam bo'lgan korxonalar;
- D. Yil choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 80 baravaridan kam bo'lgan korxonalar;
- E. Yil choragi davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'laydigan soliqning umumiy summasi eng kam ish haqining 100 baravaridan kam bo'lgan korxonalar.

47. *Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda soliq birligi bo'lib:*

- A. m^3 ;
- B. km;
- C. so'm;
- D. tiyin;
- E. m^2 .

48. *Soliq qonunchiligi qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?*

- A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Soliq kodeksi;
- B. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Oliy Majlis qarorlari;
- C. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi qarorlari;
- D. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Soliq kodeksi;
- E. Faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Soliq kodeksi.

49. *Soliq huquqi tushunchasiga ta'rif bering:*

- A. Soliq huquqi, bu — tegishli subyektlarga imperativ usulda ta'sir etish yo'li bilan soliqlarni joriy etish va ularni to'lashga oid munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy me'yorlar tizimidan iborat;
- B. Soliq huquqi, bu — soliqlarni undirishni nazorat qilish;

- C. Soliq huquqi, bu — bojxona bojlarini undirishni nazorat qilish;
- D. Soliq huquqi, bu — davlat bojlarini undirishni nazorat qilish;
- E. Soliq huquqi, bu — yigʻimlar va toʻlovlarni nazorat qilish.

50. *Oʻzbekiston Respublikasi norezidenti, deb kimlarga nisbatan aytiladi?*

- A. Moliya yilida 183 kun va undan ortiq yashagan jismoniy shaxs;
- B. Moliya yilida 183 kundan kam yashagan jismoniy shaxs;
- C. Moliya yilida toʻla istiqomat qilgan jismoniy shaxs;
- D. Oʻzbekiston hududida mutlaqo yashamaydigan jismoniy shaxs;
- E. Moliya yilida 365 kun va undan ortiq yashagan jismoniy shaxs.

TEST JAVOBLARI

T/r	To'g'ri javob	T/r	To'g'ri javob
1	B	26	D
2	B	27	E
3	C	28	A
4	A	29	C
5	D	30	E
6	A	31	D
7	A	32	A
8	A	33	C
9	B	34	A
10	C	35	A
11	E	36	C
12	D	37	D
13	A	38	B
14	A	39	C
15	B	40	A
16	A	41	C
17	C	42	B
18	B	43	A
19	A	44	D
20	C	45	B
21	A	46	A
22	B	47	A
23	A	48	D
24	A	49	A
25	D	50	B

I L O V A L A R

**Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish
BAYONNOMASI**

201__-yil ____

Toshkent shahri

Toshkent shahar _____ tumani Davlat
soliq inspeksiyasida raislik etuvchi (DSI boshlig'i yoki muovini)

_____ kotiblik etuvchi

ishtirokida DSI navbatchilik qismida 201__-yil ____ da
_____ soni bilan ro'yxatga olingan fuqaro _____

_____ ga

nisbatan to'plangan tekshiruv hujjatlari bo'yicha fuqaro _____
(imzo)

_____ (imzo)
ishtirokida (ishning ko'rib chiqilishida huquqbuzar ishtirok etmasa,
ishtirok etmaganligi sabablari ko'rsatilishi lozim)

_____ ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rib chiqildi.

Raislik etuvchi tomonidan ko'rilayotgan ishning mazmuni haqida
ma'lumot berildi va _____ ga

O'zbekiston Respublikasi MHTKning 294-moddasida belgilangan ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari tushuntirildi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vaqtida quyidagilar aniqlanadi:

Raislik etuvchi tomonidan ishdagi tushuntirish xatlari bayonnoma va boshqa hujjatlar o'qib eshittirildi.

Ishni ko'rib chiqishda huquqbuzar _____ tomonidan quyidagi iltimoslar va tushuntirishlar berildi:

(tushuntirishlar va iltimoslar mazmuni)

Ishni ko'rish jarayonida boshqa iltimoslar va tushuntirishlar bo'lmaganligi sababli, raislik etuvchi tomonidan qabul qilingan qaror o'qib eshittirildi.

Huquqbuzarga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish tartiblari va muddatlari haqida tushuntirildi.

Raislik quluvchi _____

Kotiblik quluvchi _____

Toshkent shahar Davlat soliq
boshqarmasi boshlig'i

_____ga

_____da yashovchi

(tug'ilgan joyi va vaqti)

(ish joyi va mansabi)

(pasport ma'lumotlari)

(uy va xizmat telefoni)

TUSHUNTIRISH XATI

201__-yil _____

(sana) (imzo)

(FISH)

Tushuntirish xatini oldim

(imzo)

(FISH)

Eslatma. Huquqbuzar yozma tushuntirish yoza olmasa, uning roziligi bilan, uning so'zlaridan mansabdor shaxs yoza oladi. Bu holda «Mening so'zlarimdan to'g'ri yozib olingan», «Men o'qib chiqdim» yoki «Menga ovoz chiqarib o'qib berishdi» so'zlari yozilib, imzo chekiladi. Tushuntirish xati huquqbuzar, guvoh, jabrlanuvchi tomonidan xohlagan tilda yozilishi mumkin.

**Tekshiruv o'tkazishda to'ldiriladigan hujjatlar shakli
DALOLATNOMA**

201__-yil _____

Toshkent shahri

Biz _____
(tekshiruvchilarning ismi-sharifi va ish joyidagi lavozimi)

_____ lar xolis guvohlar

(ismi-sharifi)

ishtirokida _____
_____ asosida

(buyruq, farmoyish raqami)

(tekshirilayotgan obyektning to'liq nomi, manzili, telefon raqami)

(tekshirilayotgan obyektning to'liq nomi, vakillarining
ismi-sharifi, lavozimlari)

qatnashuvida tekshirish o'tkazilib quyidagilar aniqlandi:

Dalolatnoma tuzish jarayonida ariza va shikoyatlar bo'lmadi, deb dalolatnoma tuzuvchilar:

DSB (DSI) xodimlari _____

Fuqarolar: _____

Xolislar: _____

(FISH)

(Imzo)

**Egasiz mol
DALOLATNOMASI**

201__-yil _____

Toshkent shahri

Biz _____

(tekshiruvchilarning ismi-sharifi va ish joyidagi lavozimlari)
_____ lar xolis guvohlar

_____ (ismi-sharifi)
ishtirokida _____ asosida
(buyruq, farmoyish raqami)

_____ (tekshirilayotgan obyektning to'liq nomi, manzili)

tekshirish o'tkazib, quyidagilarni aniqladik:

_____ (egasi tomonidan tashlab ketilgan mahsulot, tovarning nomi,
miqdori, soni, markasi va boshqa holati)

Dalolatnoma tuzish jarayonida ariza va shikoyatlar bo'lmadi, deb dalolatnoma tuzuvchilar:

DSB (DSI) xodimlari _____

Fuqarolar: _____

Xolislar: _____

(FISH)

(Imzo)

Muhrlash dalolatnomasi

201__-yil _____

Toshkent shahri

Biz _____

(tekshiruvchilarning ismi-sharifi va ish joyidagi lavozimlari)
 _____ lar xolis

guvohlar _____

_____ (ismi-sharifi)
 ishtirokida _____ asosida

(buyruq, farmoyish raqami)

soliqqa ta'sir qiluvchi omillar tekshirib aniqlanguncha _____

_____ (tekshirilayotgan obyektning to'liq nomi, manzili)

vaqtincha plastilinli, surg'uchli, qog'ozli muhr bilan yopib, muhrlab qo'ydik.

Muhrni Toshkent shahar DSB (DSI) xodimlarining ruxsatisiz buzmaslik mas'uliyati va moddiy javobgarligi fuqaro _____ ga yuklatildi.

Tovarlarni saqlashga qabul qilgan shaxs tovarlarni amaldagi qonunlar asosida saqlash haqida va belgilangan javobgarlik to'g'risida ogohlantirildi.

Dalolatnoma tuzish jarayonida ariza va shikoyatlar bo'lmadi, deb dalolatnoma tuzuvchilar:

DSB (DSI) xodimlari _____

Xolislar: _____

(FISh)

(Imzo)

Muhrlangan obyekt vakillari (moddiy javobgar shaxs)

(FISh)

(Imzo)

MUHRLANGAN

(tekshirish amalga oshirilayotgan obyekt)

Toshkent shahar DSB (DSI) xodimlari

1. _____
(FISh) (imzo)

2. _____
(FISh) (imzo)

Xolislar _____

(FISh) (imzo)

Muhrlangan obyekt vakillari:

(FISh) (imzo)

M.O': (Sana)

CHAQIRUV QOG'OZI

_____ tuman, _____
ko'cha, _____-uyda, _____-xonadonda istiqomat qiluvchi

(FISH)

Siz _____ tuman Davlat soliq inspeksiyasiga
201__-yil _____ kuni soat _____ da _____-xonaga soliq
inspektori _____ ga quyidagi savollar bo'yicha uchrashib
ketishingiz lozim:

O'zingiz bilan quyidagi hujjatlarni olib kelishingiz lozim:

Bizning manzil _____

Telefonlar _____

DSB (DSI) boshlig'ining
o'rinbosari

(Imzo)

(FISH)

TILXAT

Men _____

(FISH)

chaqiruv qog'ozini oldim.

201__-yil _____

(Imzo)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T., «O‘zbekiston», 1993.
2. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston — iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995.
3. *I.A. Karimov*. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. T., «O‘zbekiston», 2000.
4. *L. B. Xvan*. Soliq huquqi. T., «Konsauditinform», 2001.
5. *T.Ф. Юткина*. Налоги и налогообложение. М., ИНФРА-М, 2001.
6. *T. Malikov*. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T. «Akademiya», 2002.
7. *T. Toshmurodov, T. Mirzayev, O. Abdullayev*. Soliqlar va soliqqa tortish. T., «Mehnat», 2003.
8. *T. Toshmurodov*. Soliq nazariyasi va tizimi. T., «Bilim», 2004.
9. *A. Karimov, F. Islomov, A. Avloqulov*. Buxgalteriya hisobi. T., «Sharq», 2004.
10. *T. Toshmurodov*. Soliqlar va xalqaro soliq tizimi. T., «Turon — Iqbol», 2005.
11. *T. Toshmurodov*. Bojxona va soliq asoslari. T., «Bilim», 2005.
12. *I.A. Zavalishina*. Soliqlar: nazariya va amaliyot. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
13. *U.I. Inoyatov, G.N. Ahmadjonova*. Budget va budget tizimi. T., «Turon — Iqbol», 2006.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. SOLIQ NAZARIYASINING ASOSLARI

1.1. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va funksiyalari	5
1.2. Davlat va mahalliy budjetlarni shakllantirishda soliqlarning salohiyati	10
1.3. Soliq siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari	12
1.4. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi	14
1.5. Xorijiy davlatlarning soliq tizimlari va xalqaro soliq munosabatlari	27

II bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLI VA SOLIQSIZ TO‘LOVLAR

2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqli va soliqsiz to‘lovlar tavsifi	35
2.2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartibi	38
2.3. Chet el investitsiyali korxonalarini soliqqa tortish xususiyatlari	79
2.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi	82
2.5. Aksiz solig‘ini hisoblash va budjetga to‘lash tartibi	99
2.6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi	107
2.7. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartibi	113

2.8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi	118
2.9. Yuridik shaxslarning yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi	126
2.10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i	131
2.11. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi	135
2.12. Obodonlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi	141
2.13. Mahalliy soliqlar va yig'implarni hisoblash hamda to'lash tartibi	146
2.14. Qat'iy soliq belgilangan alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni soliqqa tortish	149
2.15. Davlat boji	154
2.16. Bojxona boji	157
2.17. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratmalar	160

III bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR

3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning tasnifi	167
3.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi	169
3.3. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni soliqqa tortish xususiyati	178
3.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi	184
3.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi	189
3.6. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga undiriladigan soliq	193

IV bob. SOLIQ MUNOSABATLARI

4.1. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi	198
4.2. Soliq huquqining asosiy tamoyillari	200

4.3. Soliq subyektlarining huquq va majburiyatlari	202
4.4. Soliq nazorati turlari va shakllari	205
4.5. Soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	206
4.6. Soliqqa oid nizolarni ko‘rib chiqish asoslari va uni tasniflash yo‘llari	208
Test savollari	217
Test javoblari	232
Ilovalar	233
Foydalanilgan adabiyotlar	243

ZIROAT XO'JAYEVA, RAVSHAN HAKIMOV, AHROR ABDULLAYEV

SOLIQ TIZIMI VA MUNOSABATLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

3-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrirlar *N. Usmonova, I. Usmonov*
Rassom *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *D. Umarova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2012-yil 29-sentabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 15,5.
Nashr tabog'i 15,0. 3643 nusxa. Buyurtma № 433
Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 42 — 2012.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86-uy.

**X70 Xo'jayeva Z. va boshq. SOLIQ TIZIMI VA MU-
NOSABATLARI.** Kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv qo'llanma. (3-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2012.
— 248 b.

I. Muallifdosh.

УДК 336.22(075)

BBK 65.261.4ya722

ISBN 978-9943-303-20-1